

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

## LINGVISTIKA

2024 Vol. 1 (1)

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)

[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Hamidulla Dadaboyev  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Zulxumor Xolmanova  
**Mas'ul kotib:** Dilafroz Muhammadiyeva

### **Tahrir hay'ati**

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

**"Lingvistika"** Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Hamidulla Dadaboev  
**Deputy Editor in Chief:** Zulkhumor Kholmanova  
**Executive secretary:** Dilafroz Muhammadiyeva

### **Editorial Committee**

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

### **Journal information**

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors’ ideas may differ from those of the editors’.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Zulxumor Xolmanova**

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi frazemalar talqini.....6

#### **Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov**

AGUA: Guadalquivir va gvadiana madaniyatlari va daryolari bo'yicha etimologik sayohat.....19

#### **Nodira Alavutdinova, Laziz Ergashev**

“At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asari turkologlar e’tirofida.....27

#### **Iroda Azimova**

Afaziyani tilshunoslikda o‘rganishning ahamiyati.....35

#### **Muhabbat Madaminova**

Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar..53

#### **Mushtariy Xolmuradova**

XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi leksemalar tahlili.....69

#### **Dildora To‘rayeva**

Shaxsiy yozishmalarda lisoniy va nolisoniy vositalarning lingvistik ekspertizasi.....81

#### **Xilola Uzakova**

“Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi.....94

#### **Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова**

Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах.....110

#### **Lobar G‘aniyeva**

Davlat boshqaruvi terminlarining genetik tavsifi.....128

#### **Go‘zal Mirzayeva**

O‘zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar borasida.....138

#### **Dilobar Odilova, Zamira Rahmonova**

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida zoonim asosidagi ko‘chimlar tahlili.....150

## CONTENT

### Linguistics

#### **Zulkhumor Kholmanova**

Interpretation of phrases in the work of Zakhiriddin Muhammad Babur.....6

#### **Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov**

AGUA: etymological journey throughout the cultures and rivers gadalquivir and guadiana.....19

#### **Nodira Alavutdinova, Laziz Ergashev**

The work "At-tuhfatuz zakiyati fil-lugatit turkiya" is recognized by Turkologists.....27

#### **Iroda Azimova**

On the contribution of studies in aphasia to linguistics.....35

#### **Muhabbat Madaminova**

In the grammatical position of simple sentences linguopragmatic signs .....53

#### **Mushtariy Xolmuradova**

Analysis of lexemes reflecting the socio-political picture of the 11<sup>th</sup> century.....69

#### **Dildora Turayeva**

Linguistic examination of linguistic and non-linguistic means in personal correspondence.....81

#### **Khilola Uzakova**

Expression of the concept of "loyalty" in articles through zoonyms, plant names and symbols based on natural phenomena.....94

#### **Solikhha Anorboyeva, Nilufar Sobirova**

Modern model of professional competence of a translator in the context of the system of training translators in universities.....110

#### **Lobar G'aniyeva**

Genetic description of public administration terms.....128

#### **Go'zal Mirzayeva**

Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages.....138

#### **Odilova Dilobar, Rakhmonova Zamira**

Analysis of metonyms based on zoonym in Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig".....150

## LINGVISTIKA

**Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi  
frazemalar talqini**Xolmanova Zulxumor<sup>1</sup>**Annotatsiya**

Maqolada frazemalarning tafakkur, idrok bilan aloqador lug'aviy birlik ekanligi, dastlab, shaxs idroki mahsuli sifatida yuzaga kelishi, keyinchalik xalq mulkiga aylanishi haqida so'z yuritilgan. Boburning mavjud frazemalardan shaxs ko'rinishini, fe'l-atvorini, voqelikni tasirlashda mahorat bilan foydalangani misollar asosida ko'rsatib berilgan. Bobur ijodiga xos frazemalarning shakllanishi, ma'no xususiyatlari tahlil etilgan. Bobur qo'llagan frazemalar voqelikni ta'sirchan aks ettirishda, shaxs ichki olamini yoritishda, ma'lum tarixiy voqelik, ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ilmiy material sifatida xizmat qilishi asoslangan. Mumtoz manbalar, xalq og'zaki ijodi, shevalardagi iboralarni to'plash va nashr ettirish tafakkur mahsullari bo'lgan frazemalarni saqlab qolishda, ommalashtirishda muhimligi qayd etilgan. O'zbek tilining milliy korpuslari sinxron va diaxron frazemalarni jamlash va ommalashtirishda amaliy qiymatga ega ekanligi asoslangan. Frazemalar etimologiyasini yoritish, frazemalarning etimologik lug'atini, tarixiy frazemalar lug'atini yaratish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *frazema, tafakkur, idrok, o'zbek tili korpusi, ma'lumotlar bazasi, tarixiy frazema, sinxron frazema, real tasvir, kognitiv omil, kognitiv belgi, turg'un birikma, frazemalarning etimologik lug'ati, tarixiy frazemalar lug'ati.*

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh va sarkardalik faoliyati, she'riyati, "Boburnoma"si dunyo ilm ahli tomonidan hali-hanuz katta qiziqish bilan o'rganilib kelmoqda. Bobur ijodiga qizg'in e'tiborni uning betakror shaxsiyati, voqelikni haqqoniy chizgilarda tasvirlashi, voqea-hodisani ro'y-rost bayon etishi, harbiy mahorati, ruhiyatining boyligi, tilining soddaligi, tasvir ko'lamining kengligi bilan izohlaydilar. Bobur shuhratining yana bir omili uning lug'aviy

<sup>1</sup> Xolmanova Zulxumor – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**E-pochta:** zulxumor-uzmu@mail.ru

**Iqtibos uchun:** Zulxumor Xolmanova. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi frazemalar talqini. O'zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*. 2024-1: 6-18.

birliklar, jumladan, frazemalar semantikasini chuqur anglagani va mahorat bilan qo'llay olganidir.

Bobur so'z va frazemalar ma'nosini teran anglagan va o'z o'rnida mahorat bilan qo'llagan. Boburning shoh asari "Boburnoma" dagi bir qator lug'aviy birliklar Bobur ijodining tavsif birliklariga aylangan: *tengri taoloning inoyati birlan...*, *karimuttarafayn* (Husayn Boyqaro), *rub'i maskun* (zamin), *baldayi mahfuza* (Samarqand), *shunqor bo'lmoq* (o'lmoq), *Ko'ksaroyga chiqarmoq* (o'ldirmoq), *azimat* (yurish), *yukunmoq*, *ozurda* (ozor topgan), *xos elbegi* (mansabdor shaxs), *el budun* (xalq), *el-kun* (qo'shin), *el-ulus* (davlat, mamlakat), *beg eli* (bek boshqaruvidagi viloyat), *el bo'lmoq* (kelishmoq), *uy el* (ko'ch-ko'ron), *emaldosh* (safdosh, do'st), *pashkol* (yomg'ir mavsumi), *dahdardah* (har tomoni 10 gazdan bo'lgan hovuz), *singirlamoq* (istehkom qilmoq), *oshliq* (g'alla), *afg'onshol* (afg'oncha), *shakl-u shamoyil* kabilar.

Bobur ijodi o'zbek tiliga xos frazemalarning badiiy ta'sirchanlik ifodasi uchun yo'naltirilgan o'ziga xos ma'no qirralari bilan ajralib turadi. Frazemalar til taraqqiyotining keyingi jarayonlarida yuzaga kelgan leksik-semantik, struktur-grammatik jarayonlar mahsuli bo'lib, til sohibining ma'lum darajadagi tafakkur tarzini taqozo etadi. *Frazeologizmlar*, *frazeologik birikma*, *turg'un birikmalar* terminlari bilan yuritilgan mazkur til birligi, dastavval, nutqda shakllanib, keyin til birligiga aylanadi. Keyingi yillarda frazeologizmlar barqaror birikmalar tarkibida qayd etilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, frazemalar barqaror birikmalarning boshqa ko'rinishlaridan ko'chma ma'no-ga asoslangan yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalashi bilan farqlanadi. Mazkur til birligiga nisbatan *frazema* termini muvofiq keladi. *Frazema* termini o'zbek tilshunosligida Shavkat Rahmatullayev tomonidan ommalashtirilgan. *Frazema* termini *fonema*, *morfema*, *leksema* kabi terminlar qatorida til birligiga ishora qiladi. Shavkat Rahmatullayev tomonidan e'lon qilingan frazeologizmlar lug'ati o'zbek tili sohiblari idroki bilan bog'liq lug'aviy birliklarni jamlashda muhim manbadir. Shunisi ham borki, o'zbek tilida ajdodlarimiz tafakkuri, xalq turmush tajribasi mahsullari bo'lgan frazemalar ham borki, ularning ma'lum qismi yozma manbalarda aks etgan. Ayrimlari shevalarda qo'llanadi. O'zbek shevalari tarixiy, arxaik frazemalar saqlanib kelayotgan muhim manbadir. O'zbek shevalarida *momosini kurtigini yegan* (tarbiyali), *chumolining oshqozonini ko'radigan* (uddaburon), *betini suvini besh to'kmoq* (obro'sizlanmoq) kabi frazemalar qo'llanadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz yaratgan aforizmlar maqollarning dastavval ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilib, keyinchalik anonim

janr sifatida xalqqa nisbat berilganini asoslaydi. Xuddi shuningdek, frazemalarning yaratuvchisi ham yuksak tafakkur, teran idrok sohiblaridir. Frazemalar o'zbek tili tarixiy taraqqiyotining mahsuli, murakkab jarayon sifatida qaralsa ham, uning shakllanishida shaxs idroki va tafakkuri muhim o'rin tutadi. Frazemalar ham xuddi maqollar singari shaxs tafakkuri mahsullaridir.

Ko'ngil musavviri sifatida e'tirof etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur voqelik tasvirida, qahramonlar qiyofasi va fe'l atvori chizgilarida, faoliyat-jarayon izohlarida mavjud frazemalardan mahorat bilan foydalangan. Shuning barobarida Bobur ijodida muallif iqtidori hamda xalq turmush tajribasi asosida shakllangan frazemalar qo'llangan. Quyida Bobur ijodiga xos ayrim frazemalar tahlilida to'xtalamiz.

*Podsho ko'tarib, nog'orasini o'zining eshigida chaldirmoq* frazemasini Bobur Chag'oniyoniyning g'araz niyatini fosh etish maqsadida keltirgan: *..bovujudkim meni podshoh ko'tarib edi, naqorasini o'zining eshigida chaldurur edi (BN 217)*. Mazkur frazema nutq jarayonida yaratilgan bo'lib, muayyan voqelik bilan bog'liq. Bu frazema semantikasida quyidagi semalar mavjud: 1) "e'tirof (ya'ni taxtga chiqishda Boqi Chag'oniyoniyning o'rni borligini tan olish)"; 2) "shaxsning ustamonligini ta'kidlash"; 3) "shaxs faoliyatidan norizolik". Boqi Chag'oniyoniyning Boburga o'z maqsadlari yo'lida va xudbinona manfaatidan kelib chiqib, ko'mak bergani hamda uning xasis, kajxulq ekanligi shu frazemada mujassamlantirilgan.

*Oq qilmoq, qora qilmoq* frazemasini "davlatni boshqarish" tushunchasini ifodalagan. Bobur frazema orqali Muhammad Mas'ud mirzoda ixtiyor yo'qligi (hukmdor bo'lsa-da), barcha masalalar Shohbek arg'un tomonidan hal qilinishini ta'kidlagan: *Agarchi Qandahorni berib edi, vale oq qilsa, qaro qilsa, Shohbek arg'un qilur edi (BN 225)*.

*Oriyati qo'yul-* frazemasini "yuqori darajada orlanish" ma'nosini anglatadi: *Axsida Qosim Ajabnikim, ichki chegrasida edi, olimda beklik martabag'asig'a yetib edi, oriyati qo'yuldi (BN 121)*. Frazema tarkibidagi *oriyat* shaxs ruhiyatiga oid tushunchani ifodalaydi. *Oriyat* leksemasi *oriyati ber-* frazemasini tarkibida "sabr qilish" tuyg'usini aks ettirishga xizmat qilgan: *... tiladukkim, bu qish oriyati bergay, to anda o'lturub Samarqand viloyatig'a ilikdin kelgancha evrushgaybiz (BN 117)*.

*Ko'zlarini tuz tutti* frazemasini "jazolanmoq" ma'nosida kelgan: *Andin ham ko'rnamaklik qilib qochib, Andijonning ko'hpoyalari-ga borib, yog'iyliqlar va fitnalar angiz qildi. Axir o'zbek iligiga tushti. Ko'zlarini ko'r qildilar. "Ko'zlarini tuz tutti"ning bu ma'nisi bor emish*

(BN 77). Bobur “bor emish” birligi orqali mazkur frazema etimologiyasining xalqqa tegishli ekanligini ta’kidlaydi. Ammo bu muallif xulosasi ekanligini anglash qiyin emas. Bobur ushbu frazemaning shakllanishini bevosita izohlamagan, xoinlikning jazosi muqarrarligini ta’kidlash maqsadida qo’llagan. Bu bilan frazemaning shakllanish asosini yoritgan.

*Bosh-ko’z qil-* frazemasini “e’zozlamoq” tushunchasini bildirib kelgan: *Chun Ibrohim muhimmi ustida edi, filhol og’asining el-kunini ul bosh-ko’z qildi (BN 366).*

*Ilgida xamir bo’l-* “erksizlik” tushunchasini ifodalagan: *Badi-uzzamon mirzo xud bularning ilgida xamir edi, bularning so’zlaridin tajovuz qila olmas edi (BN 213).* Frazemaning shakllanishiga xamirning agregat holati, muayyan shaklga ega emasligi asos bo’lgan.

*Yetiqqa kir-* “tushunib yetmoq” (Ishoqov 2008, 52) frazemasini shaxs idroki, fahmi bilan bog’liq tushunchani anglatadi. Matndan *yetiqqa kir=* frazemasining “aytilgan gapga kirmaslik” ma’nosi anglashiladi: *Har necha bu yo’sunluq so’zlar aytib man’ qilurlar, yetiqqa kirmas (BN 2002,187).*

*Shugun tutmoq* “yaxshi niyat, yaxshi fol qilmoq” (Nazarova 1972,171): *Hindning taxsiri zamonida bu xabar kelgani uchun shugun tutub Hindol ot qo’y dum (BN 166).*

Ayrim frazemalar shaxsning jismoniy faoliyatiga aloqador tushunchani ifodalab kelgan: *umr top-* frazemasini “uzoq umr ko’rgan” tushunchasini ifodalagan: ... *xili umr topqon xotun edi (BN 153).*

*Ko’zga il-* frazemasini “nazar qilmoq” ma’nosini anglatgan:...*bi-zning so’zlarimizni ko’zga ilmay, quloqqa olmay...(BN 301); ko’z tut-* “umid qilmoq”: *Men andin hargiz mundaq ko’z tutmas edim (BN 400); Bepoy bo’l-* “oyoqsiz bo’lmoq” ma’nosidagi frazema ko’chma ma’nodan “hushini yo’qotmoq”, “holsizlanmoq”, “umidsizlanmoq” ma’nosida qo’llangan: *Bu so’z din bepoy bo’lib, muxoliflarni tilab ahd va shar qilib qal’ani berdi (BN 112).*

*Nash’u namo top-* “shuhrat topmoq” frazemasini “Boburnoma” matniga xos lug’aviy birlik sifatida baholash mumkin: *Janubiy tarafdag’i qasabalar(din) bir Andijondurkim, vasatta voqi’ bo’lubtur... Eli turkdur. Shahr va bazorisida turkiy bilmas kishi yo’qtur. Elining lafzi qalam bila rostdur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur (BN 60).*

*So’z qo’y-* frazemasini “kelishmoq” tushunchasini bildirgan:... *so’zni munga qo’ydukkim, muncha jo’g’ulluq va buzuqchiliq qilg’an... bu jamoat edilar (BN 1960:122); ba’zi beklar bila ittifoq qilib, so’zni*

*munga qo'ydukkim, muncha jo'g'ulluq va buzuqchilik qilg'on...bu jamoat edilar (BN 69).*

*Yuzim qora bo'l-* frazemasi shaxsning qasamini ifodalash uchun keltirilgan. "Yuzning qaro bo'lishi" Hindistonga qaytib borishni mutlaqo istamaslik belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Bobur Hindistondan ketayotgan Hoji Kalonning "Agar sog'-salomat Sinddan o'tib ketsam, Hindustonni yana havas qilsam, yuzim qora bo'lsin" mazmunida bayt yozganini qayd etgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *yuzim qora bo'lsin* frazemasi o'rnida bu vaziyatda *yelkamni chuquri ko'rsin* barqaror birikmasi ishlatiladi.

"Boburnoma"dagi frazemalar o'zbek tili tarixiy taraqqiyotidagi struktur-semantik o'zgarishlar haqida ham ma'lumot beradi. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi "biror narsaga yoki jarayonga chidam ko'rsatish" ma'nosini anglatadigan *dosh bermoq* lug'aviy birligining tarixiy shakli haqida ma'lumot beradi. *Turush ber-* frazemasi jismoniy yoki ruhiy ta'sirlarga chidam ko'rsatishni bildirib kelgan: *Yuqqoridin Ko'histon beklari ham o'tliq-yayog'ini yig'ib yurugan bila turush bera olmadilar (BN 248).* Frazema tarkibidagi turkiy *turush* leksemasi o'rnida hozirda *dosh* ishlatiladi. Bu esa ma'lum taraqqiyot bosqichlarida turkiy leksemalarning iste'moldan chiqib, ularning o'rniga forsha-tojikcha leksemalarning o'zlashish jarayonini ko'rsatadi.

Ruhiy kechinmalarni aks ettirishda frazemalardan keng foydalanilgan. Asar tilidagi frazemalarning aksariyati ruhiy kechinma, psixologik holatni aks ettiradi: *jong'a yet-*: "jondan to'ymoq": *Axir mundoq sargardonliqtin va bu nav' bexanumonliqtin jong'a yettim (BN 158).* *Jong'a yet-* sargardonlik (sargironlik) "gangish, dovdirash" (Shamsiyev 1972, 548) va bexanumonlik "darbadarlik, sarson-sargardonlik"dan (Shamsiyev 1972,113) charchash, umidsizlikka tushish natijasidagi ruhiy holatni ifodalagan.

*Hayf kel-* frazemasi achinish tuyg'usini bildirgan: *...xon dodam bir sarsabz go'shagir berib edi, ul chiqdi, tashlag'ali hayfim keldi (BN 164).*

*Aql qarorga kel-* frazemasi "o'ziga kelmoq"ni ifodalaydi: *Boshim bilan yerga yiqildim, vale aqlim oqshomg'acha qaroriga kelmadi (BN 151).*

"Bir-biriga ko'ngil qo'ymagan, bog'lanmagan" tushunchasi *ko'ngil to'xtat-* frazemasi orqali ifoda etilgan: *... Hanuz el anga va ul elga ko'ngil to'xtatmaydurlar... (BN 139); ko'ngul to'xtat-* "qarorsiz bo'lmoq" (BN 1960,139);

*tob keltura ol-* "toqat qilmoq": *Ushmuncha bila tob keltura ol-*

*may, yog'i qochti (BN 27); ehson maqomida bo'l- "kechirimli bo'lmoq": Sulton Husayn mirzo borig'a ehson maqomida bo'lub, yomonliqlarini yuzlariga kelturmay... (BN 213).*

*Bosh olib it-* frazemasida ham ruhiy holat ifodalangan. Qal-loshlik (shuhratsizlik, e'tiborsizlik)dan ozorlangan va xorlik tortgan, sargardon kezishdan charchagan Bobur *bosh olib itmak* (yo'qolmoq) ni istaydi: *Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib itsam yaxshi (BN 159)*. Bu o'rinda kin-adovatga to'la zaminni tark etish, bu olamdan ketish istagi ifodalangan. Frazema tarkibidagi *it-so'zi* turkiy yit- ("yo'qol-" , "g'oyib bo'l-") ma'nosidagi so'zning fone-tik o'zgargan shakli (prokopa: it<yit) bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, ayrim shevalarda narsa-buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur frazemada ruhiy toliqish, bevafoqlik va xiyonatdan azoblanish, barcha noxushliklardan ko'z yumish tuyg'ulari aks etgan. *Bosh olib itish* (o'lish) inson xohishiga ko'ra amalga oshmasligini yax-shi anglagan Bobur dunyoning narigi burchiga, uzoqroqqa ketishni istaydi: *Bu nav' xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog'im yetgancha ketsam yaxshi (BN 159)*. Va xohishini amalga oshirishga qaror qila-di: *Xitoyg'a bormoqni jazm qilib, bosh olib ketmakka azm qildim (BN 159)*. Xitoyga borishni Boburning bobomeros orzusi sifatida baho-lash mumkin. Amir Temurning ham Xitoy sari borishga azm etgani tarixdan ma'lum.

Yuqoridagi frazemalar muallif ruhiyatini darajalab ko'rsatish-ga xizmat qilgan: *bosh olib ket-* ("biror yurtga ketmoq") / *oyog'i yet-gancha ket-* "imkon qadar uzoqroq ketmoq" / *bosh olib it-* "dunyodan ko'z yummoq"; "o'zga yurtga (ketmoq)".

"Boburnoma"da "o'lmoq" tushunchasi o'n sakkiz xil shak-ldagi frazema bilan ifodalangan. Asarning o'ttizga yaqin o'rnida "o'lmoq" tushunchasi tengri nomi bilan bog'lab aks ettirilgan. *Tengri rahmatig'a bor-* frazemasida "o'limning tangri rahmat nurlarini yog'diradigan u dunyoga eltishi" semasi ta'kidlangan: *Bobi Ilohiyg'a yetganda tengri rahmatig'a bordi (BN 221); Tengri hukmini butkar-frazemasida o'limning "Alloh (tangri) hukmi (buyrug'i)" ekanligini ta'kidlovchi sema nazarda tutilgan: Kobulda tengri hukmini butkar-mush (BN 232).*

Quyidagi frazemalarda o'limning "bu dunyoni tark etish" semasi ifodalangan: *olamdin bor-: Haydar mirzo otasi zamonida -o'q olamdin bordi (BN 225); olami fonyidin vido' qil-: ...tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda qirq to'rt yoshida olami fonyidin vido' qildi (BN,74); olamdin kech- ...olti kunda olamdin kehti (BN 81); olamdin safar qil-: To'qquz yuz o'ttuz to'rtta Xonmirzo olamdin safar qildi (BN 456).*

*Olamdin o't-* va unga sinonim bo'lgan *olamdin bor-*, *olamdin kech-*, *dunyodin o't-* kabi kontekstual sinonimlarning XV – XVI manbalarida kuzatilishi frazemaning eski o'zbek adabiy tilida faol qo'llanganini ko'rsatadi.

*“O'lim”* tushunchasi *dunyo'i fonini vido' qilmoq*, *dunyodin rihlat qilmoq*, *dunyodin chiqmoq*, *naql qilmoq*, *zoyi' bo'lmoq*, *bosh qo'ymoq*, *jon tortmoq* frazemalari orqali ham ifodalangan.

*Dunyo'i fonini vido' qil-* frazemasida *o'lim* so'zining “o'tkinchi dunyoni tark etish” semasini aks ettirgan. Mazkur frazema semantikasida “dunyoning o'tkinchiligi”ni ta'kidlash semasi ustun: *...ul zolim badkirdorning habsida dunyoyi fonini vido' qildilar (BN 68)*. *Dunyodin rihlat qil-* frazemasida ham “bu dunyoni tark etish” tushunchasini anglatgan. Ushbu frazemada “bu olamdan (u olamga) ketish” semasi namoyon bo'lgan: *Inisi Ibrohim Husayn mirzodin burunroq bu dunyodin rihlat qildi (BN 231)*. *Dunyodin chiq-* frazemasida “olamdan, mavjud reallikdan chetga chiqish, yo'qolish” semasi aks etgan: *Ul baxti qaytg'an eshittikim, cherik tayin bo'lubtur, boshini qo'lig'a olib, dunyodin chiqar (BN 456)*. *Naql qil-* frazemasida insonning bu dunyodan butunlay “ko'chgan”ligi (*manqul* a. “naql etilgan”, “ko'chirilgan” ma'nosidagi so'z) (Shamsiyev 1972, 361) ta'kidlanadi: *Iroqta g'aribliqta naql qildi (BN 231)*. *Zoyi' bo'l-* frazemasida shaxsning yo'qolishi, nobud bo'lishi ifodalangan: *Ko'p eli bu uchmada zoyi' bo'ldi (BN 100)*. *Bosh qo'y-* frazemasida inson tanasi bilan bog'liq bo'lib, vujud (gavda) ning o'lim paytidagi holati (boshni tik tutib tura olmaslik, harakatsizlik) nazarda tutilgan: *...Har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yar (BN 95)*. “Boshing omon bo'lsin”, “Boshing toshdan bo'lsin” frazemalarida ham bosh metonimiya asosida “hayot” tushunchasini ifodalaydi. *Jon tort-* frazemasida “o'lmoq” tushunchasini jon haqidagi tasavvurga bog'liq ravishda aks ettirgan: *...beklar va yigitlar yaxshi qatlanib mardona janglar tortdilar (BNm 74)*.

Bobur qo'llagan bir qator iboralarda “o'lmoq”ning boshqa shaxs yoki biror vosita ta'sirida sodir bo'lishi haqidagi tushuncha aks etgan. M., *fano bodig'a yibor-* frazemasida “o'ldirmoq” tushunchasini ifodalagan: *Va ko'p yovning tanasi mazallat tuprog'iga tushub, fano badig'a yiborildi (BN 454)*. *Fano bodig'a yibor-* frazemasida “fano (yo'q bo'lish, tugalish) *bodi* (shamoli)ga topshirish”ni bildirgan. Bu frazemada o'limning tangri xohishi bilan emas, shaxs hamlasi oqibatida amalga oshirilishi tushuniladi

“O'lmoq” tushunchasining *shunqor bo'l-*, *qaro oldur-*, *ko'k saroyga chiqar-*, *siyosatga yetkur-* frazemalari bilan ifodalanishi “Boburnoma” tili uchun xosdir: *...Umarshayx mirzo jardin kabu-*

tar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo'ldi (BN,64). Shunqor bo'l- ham "o'lmoq" tushunchasini anglatgan: Xonim bobom shunqor bo'lg'oli onalari, inilari, singillarinikim, Shohbegim va Sulton Mahmudxon va Sulton Nigorxonim va Davlat Sulton xonim bo'lg'aylar, ko'rmaydurlar edi (BN 2002,86).

Siyosatga yetkur frazemasida "jazolamoq, o'ldirmoq" tushunchalarini ifodalaydi. Darvesh Muhammad tarxon betoqatliqtan sutung'a yopushti, sutung'a yopushqan bila qo'yg'aylarmi...siyosatqa yetkurdilar (BN 95).

Ko'k saroyga chiqar- frazemasida "o'lmoq" tushunchasi ham kinoya, ham shaxsning nasl-nasabiga ishora semasi asosida ifodalangan. Bobur Ko'ksaroyini "oliy imorat" deb ta'riflaydi. Temuriylardan har kim taxtga o'ltursa ham munda o'lturur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yar (BN,95). Sulton Ali Mirzoni Ko'ksaroyga chiqarib, ko'zlariga mil tortdiradilar. Bundan ko'rinadiki, ayrim jazo ko'rinishlari, jumladan qatl qildirish ham Ko'ksaroyda amalga oshirilgan. Bobur mazkur frazemaning etimologiyasini yoritgan: Hattokim, kinoyati bo'lub edikim, falon padshohzodani ko'k saroyg'a chiqardilar, ya'ni o'lturdilar (BN,95). Ko'k saroyga chiqar- frazemasida "o'lmoq" tushunchasi metonimik ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan.

"Boburnoma"dagi "o'lmoq" sememali birliklarning umumiy tavsifini keltirish maqsadida Navoiy asarlariga murojaat qildik. "Nasoyim ul-muhabbat" da *olamdin o't-; dunyodin o't-* iboralari faol bo'lib, 200 martagacha qo'llangan; "o'lim" tushunchasi *vafot* so'zi orqali aks ettirilgan. "Majolis un-nafois" da mazkur tushuncha *o't-, olamdin o't-, olamdin rihlat qil-, maqtul bo'l-,...* kabi so'z va iboralar orqali ifodalangan (Navoiy 1997). Bu frazemalar "Boburnoma" da ham ishlatilgan.

"Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" yodnomalarida *kasrat anjumanidin ko'z yumub, vahdat xilvatxonasig'a nuzul qil-,...* (jami:14ta) frazemalari ishlatilgan (Navoiy 1999). "Tarixi anbiyo va hukamo" da: *hayot vadi'atin arvoh qobizig'a topshur-, ruh vadi'atin ajal mutaqoziysig'a topshur-,...* (jami 26ta) kabi lug'aviy birliklar "o'lmoq" tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur frazemalarning Bobur asarlarida va Alisher Navoiy davriga oid boshqa manbalarda kuzatilmasligi mazkur lug'aviy birliklarni ijodkor mahorati mahsullari sifatida baholashga asos bo'ladi. "O'lmoq" tushunchasini ifodalovchi evfemik frazemalar muallifning subyektiv munosabatini ifodalashga ham xizmat qilgan.

Eski o'zbek tilida keng qo'llangan "o'lmoq" sememali birliklar

XVII – XVIII asrlar tilida ham ishlatilgan: *vafot top-*, *ul dunyog'a ket-*, *shahid bo'l-*, *jahannamg'a yibor-*, *dunyodin naql qil-*, *dorul fanodin dorul baqog'a ket-*, *dunyodin rihlat qil-*, *dunyodin o't-* kabi.

Ibora shaklidagi evfemistik birliklarning keyingi davrlarda nisbatan sodda shaklda qo'llangani kuzatiladi: *bu dunyoda turub, ul dunyog'a ket-*, *jannat saroyig'a ket-*, *tengri yaqinig'a bor-*, *ota keyinidan ket-*, *behishga olib bor-*, *oxirat sari ket-*, *haq rahmatig'a ket-*, *borsa kelmas degan shahrga ket-*, *uzoq safarg'a ket-* kabi (Abulg'oziy 1992). Bu frazemalarni esa muallif ijodiy mahorati bilan yuzaga kelgan lug'aviy birlik sifatida baholash mumkin.

Frazemalar til taraqqiyotining ichki imkoniyatlari asosida yuzaga keladi. Tilning lug'at fondi eng o'zgaruvchan sath bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jarayonlar birinchi navbatda tilning lug'at boyligida aks etadi. Ammo frazemalarda bunday holat, deyarli, kuzatilmaydi. Bu esa so'z o'zlashtirishning nisbatan osonligi, frazema o'zlashtirish murakkab jarayon ekanligi bilan belgilanadi.

“Boburnoma”da “vaqt” semasi bilan aloqador tojikcha *govgum shavad* frazemasi qo'llangan. Masalan, *govgum* “namozi digar” va “namozi shom” orasidagi payt. Hozirgi qipchoq shevalarida ham shu ma'noda qo'llanadi. *Gov* f. “ho'kiz” (ANATIL I, 405); *gum* “yo'qolish, g'oyib bo'lish, adashish, yo'ldan ozish” (ANATIL I, 421). Bobur *govgum* atamasining shakllanishiga asos bo'lgan frazemani keltirgan. Ya'ni, bir tang yo'lning qayerga olib borishini ho'kiz yetaklab kelayotgan kishidan so'rashadi. Yo'lovchi “ho'kizni qoralab boring, bilasiz” qabilida javob beradi. Xoja Asadullo taajjubini bildiradi: *Gov gum shavad, chikor kunem?* “Agar ho'kiz yo'qolsa yoki “govgum” bo'lsa, ya'ni qorong'u bo'lsa (ho'kiz ko'rinmay qolsa), nima qilamiz?”. *Govgum* “ho'kizni ko'z ilg'ar, ilg'amas payt”, “g'ira-shira qorong'ulik” ma'nosini bildiradi. Mana bu jumla ham yuqoridagi so'z etimologiyasini yoritishga xizmat qiladi: *O'yg'a ko'z soling, o'yni iturmang, to yo'lning qaysari chiqari ma'lum bo'lg'ay* (BN 153). *O'y* “ho'kiz”. Eski o'zbek tili manbalarida *o'y* “ho'kiz”, “sigir”, “buzoq” ma'nolarida qayd etilgan; burj nomini anglatgan (ESTY 573). Qadimgi turkiy manbalarida *ud* shaklida “sigir” ma'nosida qayd etilgan (DTS 605). Bu frazema tojik tili mahsuli bo'lib, o'zbek tiliga o'zlashmagan. O'zbek-tojik ikki tilligiga asoslangan ayrim shevalarda *govgum* so'zi qo'llanadi. Demak, lug'aviy birlik frazema shaklida emas, so'z ko'rinishida qo'llanadi. *Govgum* “kechki payt”, nomozshom vaqtini bildiradi.

Bobur ijodidagi okkazional frazemalar til birliklarining semantik xususiyatlarini yoritish, o'zbek tili uslubiy imkoniyatlarini aks ettirish hamda muallif badiiy mahoratini yoritishga xizmat qila-

di.

Frazemalar ikki xil omil asosida shakllanadi: 1) real voqelik asosida shakllanadi: *qo'l qo'ymoq* (imzolamoq), *qo'l ko'tarmoq* (urmoq, ovoz bermoq), *arpasini xom o'rmoq* (ranjitmoq), *ko'z yummoq* (vafot etmoq), *mushugini "pishit" demoq* (yomon gapirmoq); 2) kognitiv omil asosida yuzaga keladi: *qilni qirq yormoq*, *tegirmonga tushsa butun chiqmoq*, *oyog'ini qo'lga olmoq*, *ko'zi to'rt bo'lmoq* (kutmoq).

Bobur ijodiga xos frazemalarda real voqelik asosidagi frazemalar ko'p miqdorni tashkil qiladi.

Bobur ijodiga xos frazemalar hozirgi o'zbek tilida uchramaydi. Bobur davrida eski o'zbek adabiy tilida faol qo'llangan bir qator frazemalar hozirda araxaiklashgan: *tengri rahmatig'a bor-*, *tengri hukmini butkar-*, *olamdin bor-*, *olami foniydin vido' qil-*, *olamdin kech-*, *olamdin safar qil-*, *olamdin o't-*, *olamdin bor-*, *olamdin kech-*, *dunyodin o't-*, *dunyo fonini vido' qil-*, *dunyodin rihlat qil-*, *dunyodin chiq-*, *naql qil-*, *zoyi' bo'l-*, *bosh qo'y-*, *jon tort-*, *ko'ngul to'xtat- bepoy bo'l-*, *jong'a yet-*, *hayf kel-* kabi.

Quyidagi arxaiklashga frazemalarning hozirgi o'zbek tilida muqobillari mavjud: *ilgida xamir bo'l- – chizgan chizig'idan chiqmaslik*. So'z *qo'y-* frazemasini o'rnida unga ma'nodosh "bir qarorga kelmoq" lug'aviy birligi qo'llanadi; *aql qarorga kel-* frazemasining ma'nosi "*hushi joyida bo'lmoq*", "*hushi joyida bo'lmoq*" iboralari bilan ifodalanadi; ba'zi frazemalarning ma'nosi qo'shma fe'l bilan ifodalanadi: *ko'z tut-* "umid qilmoq", *tob keltura ol-* "toqat qilmoq", *ehson maqomida bo'l-* "kechirimli bo'lmoq".

Ayrim frazemalar komponenti o'zgargan shaklda qo'llanadi: *umr top-* – *umr kechirmoq*; *turush ber-* – *dosh bermoq*.

*Ko'zga il-* hozirgi o'zbek tilidagi "pisand etmoq" ma'nosiga teng keladi. Mazkur frazema bo'lishsiz shaklda qo'llanadi, bo'lishli shaklda ishlatilmaydi. Shu frazemaga ma'nodosh bo'lgan *nazariga ilmaslik* frazemasini ham faqat bo'lishsiz shaklda va mazmunda ishlatiladi.

Frazemalar etimologiyasi soha rivoji uchun qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, frazemalar tarkibidagi tarixiy, arxaik leksemalarning ma'no xususiyatlarini yoritadi. Masalan, *og'zining tanobi qochmoq*, *tanobini tortib qo'ymoq* frazemalari tarkibidagi *tanob* so'zining lug'aviy ma'nosi "arqon" bo'lib, frazema semantikasi shu leksemadagi "tortish", "jilovlash" semalari asosida shakllangan.

Frazemalar etimologiyasi ma'lum sohaga oid axborot olishga ham asos bo'ladi. Masalan, *tepa sochi tikka bo'lmoq* frazemasini inson jahli chiqqanda ta'sirlanadigan eng sezgir nuqtaga, soch tolasini

ildiziga ishora qiladi.

Frazemalar har bir tilning olam manzarasini aks ettirish imkoniyatini namoyon qiladi. Frazemalar semantikasi tilning kognitiv tafakkur bilan aloqador kognitiv belgilarini yoritishga xizmat qiladi. Tilda mavjud frazemalarni, mumtoz manbalardagi, shevalardagi frazemalarni to'plash va nashr etish, milliy til korpuslariga joylash tilshunoslikka doir tadqiqotlarni takomillashtirishda amaliy qiymatga egadir. Shuning barobarida o'zbek tilining ijtimoiy funksiyalari, emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir.

### **Adabiyotlar**

- Алишер Навоий. (1997). Мукаммал асарлар тўплами. XIII том. Мажлис ун-нафоис. –Тошкент.
- Алишер Навоий. (1999). Мукаммал асарлар тўплами. XV том. –Тошкент.
- ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (1983–1985). I–IV jild. –Тошкент. – I–656 б.; II–644 б.; III–624 б.; IV–636 б.
- BN –Бобурнома /Нашрга тайёрловчилар: П. Шамсиев, С. Мирзаев. В. Зоҳидов сўз бошиси ва таҳрири билан. (1960). –Тошкент: ФА нашр., –512 б.
- BNm – Бобурнома / Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. Масъул муҳаррир В. Раҳмонов. (2002).–Тошкент: Шарқ НМАК, –336 б.
- Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1972. –187 б.
- Исҳоқов Ф. (2008). “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. –Андижон нашриёт-матбаа ОАЖ, –236 б.
- DTS – Древнетюркский словарь –L,1969.
- NAL – Навоий асарлари луғати. (1972). Порсо Шамсиев таҳрири остида. –Тошкент, –784 б.
- ESTY– Севортян Э.В. (1974–1989). Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука.
- O‘TIL–Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.; II– 672 б.; III – 688 б.; IV - Тошкент, 2008. –608 б.; V – 592 б.

## INTERPRETATION OF PHRASES IN THE WORK OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Zulkhumor Kholmanova<sup>1</sup>

### Abstract

The article states that phrasemes are lexical units associated with thinking and perception, which first appear as a product of individual perception, and later become the property of the people. The examples show that Babur skillfully used existing phrases to express a person's appearance, character and environment. The formation of phrases characteristic of Babur's work and their meaning are analyzed. It is emphasized that the phrases used by Babur serve as scientific material, effectively reflecting reality, illuminating the inner world of a person, expressing a certain historical reality and social relations.

It is noted that the importance of collecting and publishing classical sources, folklore and dialect expressions is important for the preservation and popularization of phrasemes, which are creations of thought. It is substantiated that national corpora of the Uzbek language are of practical importance in the collection and popularization of synchronic and diachronic conditional phrases. Recommendations are given for clarifying the etymology of phraseological units, creating an etymological dictionary of phraseological units, and a dictionary of historical phraseological units.

**Key words:** *phraseological units, thought, perception, corpus of the Uzbek language, database, historical phraseological unit, synchronistic phraseological unit, real image, cognitive factor, cognitive sign, fixed conjunction, etymological dictionary of phraseological units, dictionary of historical phraseological units.*

### References

- Alisher Navoi. (1997). A perfect collection of works. Volume XIII. Majolis un-nafois. – Tashkent.
- Alisher Navoi. (1999). A perfect collection of works. Volume XV. – Tashkent, ANATIL – an explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works. (1983-1985). Vol. I-IV. –Tashkent,. I-656 p.; II-644 p.; III-624 p.; IV-636 p.
- BN – Boburnoma /Preparers for publication: P. Shamsiev, S. Mirzaev. V. Zohidov with foreword and editing. (1960). –Tashkent: FA publi-

---

<sup>1</sup> *Zulkhumor Kholmanova* – Doktor of Philological Sciences, Professor, Tashkent state university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** zulxumor-uzmu@mail.ru

**For reference:** Zulkhumor Kholmanova. Interpretation of phrases in the work of Zahiriddin Muhammad Babur. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 6-18.

cation, 512 p.

BNm – Boburnoma / Preparer for publication S. Hasanov. Responsible editor V. Rahmonov. (1972). –Tashkent: Sharq NMAK, 2002. 336 p.

Nazarova Kh. Explanatory dictionary of works of Zahiriddin Muhammad Babur. –Tashkent, 187 p.

Ishakov F. (2008). A brief explanatory dictionary for “Boburnoma”. –Andijan publishing house, 236 p.

DTS – (1969). Drevnetyurksky slovar .– L.

NAL - Dictionary of Navoi’s works. Edited by Porso Shamsiev. (1972).–Tashkent, 784 p.

ESTY – Sevortyan E.V. (1974-1989). Etymological dictionary of Turkish language. – M.: Nauka.

OTIL – an explanatory dictionary of the Uzbek language. (2008). –Tashkent: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan, 2006. I -680 p.; II- 672 p.; III - 688 p.; IV - Tashkent, -608 p.; V - 592 p.

# AGUA: etymological journey throughout the cultures and rivers Guadalquivir and Guadiana

Dilrabo Bakhronova<sup>1</sup>  
Khurshid Mukhtarov<sup>2</sup>

## Abstract

This article explores the etymological origin of the word “agua” and terms for denoting “water” in various cultures, as well as the changes they have undergone throughout history. The methodology of the research includes the examination of two famous rivers in Spain – the Guadalquivir and the Guadiana – and their significance for the country in economic, historical, and ecological aspects. Additionally, the linguistic influence of other peoples on the names of these rivers is analyzed. The article also sheds light on the fascinating myths and legends associated with the Guadalquivir and Guadiana rivers.

**Key words:** *water, agua, etymological origins, Guadalquivir, Guadiana, Arab language, Latin language, myths, legends.*

## Introduction

Water is one of the oldest substances that has shaped civilizations and sustained all living beings. Its significance is demonstrated by the wide range of names it has in different languages, each word has a distinct origin and history in language. Out of all of them, “agua” stands out as a particularly beautiful way to represent the essence of this material that gives life.

Etymological origin of the word “agua” comes from the Latin phrase “aqua”, which had a profound influence on the Romance languages which are Italian: “acqua”, Portuguese: “água”, and French: “eau”. It is thought that the Proto-Indo-European root “akwa” which meant “water” gave rise to the Latin word “aqua”.

The different ways that diverse languages define “water” are caused by a combination of reasons which are borrowing: Language-

---

<sup>1</sup> Dilrabo Bakhronova – doctor of philological sciences, Professor of Uzbek State University of World Languages, Tashkent.  
ORCID.org/0000-0002-2012-7426.

<sup>2</sup> Khurshid Mukhtarov – Researcher at the Uzbek State University of World Languages, Tashkent.

**For reference:** Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov. AGUA: Etymological journey throughout the cultures and rivers Guadalquivir and Guadiana. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 19-26.

es frequently adopt words from other languages and modify them to fit into their own linguistic frameworks. The Finnish word “vesi”, for example, means “water”, and is thought to have come from the Proto-Baltic language.

**Linguistic Innovation:** Languages are always changing, either by adding new words or changing ones that already exist. It is believed that the Proto-Germanic root “watar”, a variant of the Proto-Indo-European root “akwa”, is where the German word for “water,” “Wasser”, originated.

**Cultural Influences:** The term for “water” in a language might reflect its cultural and environmental setting. For example, the Hawaiian term for “water”, “wai”, is deeply symbolic of life, purity, and spiritual association.

The diversity of names for “water” across languages is a testament to the rich tapestry of human communication. Here are a few examples:

Uzbek: Suv

Russian: Вода (Voda)

English: Water

Arabic: (Maa)

French: Eau

Italian: Acqua

Portuguese: Água

German: Wasser

Hindi: (Paani)

Chinese: (Shuǐ)

**Uzbek:** Suv

The Proto-Turkic word “su”, which indicated water, is the ancestor of the Uzbek word “suv”. It is further thought that this Proto-Turkic term came from an even older Proto-Altaiic word \*suq. The Proto-Mongolic word “sü” is the common ancestor of both these ancestral terms.

**Russian:** Вода (Voda)

The Russian term for water, “voda” exemplifies the grammatical effect of Slavic origins, reflecting the language’s historical and cultural background.

**English:** Water

The English word “water” has Germanic linguistic roots and is derived from Old English. It is a prime example of the English language’s Germanic impact.

**Arabic:** (Maa)

The word “ma” in Arabic means “water”. This term’s etymology can be traced back to classical Arabic and its linguistic roots.

**French:** Eau

The word for water in French is “eau”. This term, which comes from the Latin “aqua”, demonstrates how the Romance language has developed from its Latin foundations.

**Italian:** Acqua

The Italian term for water, like its Spanish counterpart, is “acqua”. Both languages have retained the Latin influence in their words.

**Portuguese:** Água

The word “água” is used to describe water in Portuguese. Because Portuguese, like many other Romance languages, arose from Latin, the word “água” is Latin in origin.

**German:** Wasser

The German word “Wasser”, which means “water”, has Germanic linguistic roots and is related to the English word.

**Hindi:** (Paani)

The Indo-Aryan languages are where the word “paani” first appeared. It is mainly used to refer to water in South Asian languages like Hindi and Urdu. The term “paani” has its origins in the ancient Indo-Aryan language Sanskrit.

**Chinese:** (Shuǐ)

The term “Shuǐ” derives from the Chinese language, where it refers to water; its derivation may be traced back to ancient Chinese characters and their pictographic beginnings.

### **Rivers Guadalquivir and Guadiana**

Rivers are a vital part of the Earth’s water cycle and play a huge role in every country’s economic, historical and ecological aspects. For example, the famous Egyptian river Nile which was the backbone of civilization in Egypt since the Stone Age or the river Amazon in South America whose rainforest is home to more than one-third of all known species on the globe. The same is for Spain which has rivers Guadalquivir and Guadiana.

Southern Spain’s main waterway is the Guadalquivir River. It originates in the province of Jaén’s mountains and flows for 408 miles (657 km) in a generally westerly direction before emptying into the Atlantic Ocean at Sanlúcar de Barrameda, on the Gulf of Cádiz. 22,318 square miles (57,803 square kilometers) are drained by it. In addition, Guadalquivir is the fifth-longest river in the Iberian Peninsula and the second-longest river in Spain in terms of total

length.

The etymology of Guadalquivir originates from the Arabic *al-wādī l-kabīr*, meaning “the big river” or “the great valley”. In Classical and pre-Classical eras, the Guadalquivir was known by a number of names. *Certis* (Kertis) and *Rherkēs* are the names by which the indigenous Tartessians or Turdetanians referred to the river, according to Titus Livius (Livy), *The History of Rome*, Book 28. It was occasionally referred to as “the river of Tartessos” by Greek geographers, after the corresponding city. It was known by the Roman name *Baetis*, which served as the inspiration for the name of the province of *Hispania Baetica*.

Guadalquivir plays a huge role in Spain. For ages, the Guadalquivir has been navigable, functioning as a major transportation route for goods and people. It is still utilized by commercial ships transporting agricultural supplies and minerals nowadays. The Guadalquivir Valley is one of Spain’s most fruitful regions, producing olive oil, oranges, and other agricultural products. The river is essential for irrigation of farms. The Guadalquivir River supports a wide variety of animals, including fish, birds, and reptiles. The Doñana National Park, located at the mouth of the river, is a UNESCO world heritage site known for its marshlands and migratory birds. In terms of historical significance, the Guadalquivir River has played an important role in Spanish history. The river valley was inhabited by ancient civilizations such as the Romans and the Moors, and it served as an important trade route during the Middle Ages. The riverside city of Seville was once a major port and economic center.

Guadalquivir is also famous for its fascinating myths and legends which are:

**The Guardian of the River:** A legend tells of a beautiful spirit known as *La Doncella del Guadalquivir* (The Maiden of the Guadalquivir) who guards and protects the river’s treasures. She is said to appear to fishermen and sailors, wishing them luck or warning them of forthcoming danger.

**The River of Gold:** According to another legend, the Guadalquivir river once flowed with gold. Roman soldiers sent to conquer the region were so taken with the river’s gleaming surface that they mistook it for gold and dove in, drowning.

**The Fountain of Youth:** Another legend claims of a miraculous fountain at the Guadalquivir’s source that grants eternal youth to people who drink its water. Many people have looked for this fountain, but none have succeeded.

**The Fortune of the Moors:** Before being driven out of Spain, the Moors hid a vast treasure somewhere along the banks of the Guadalquivir. Many people have tried to find this treasure, but it has never been discovered.

**The Enchanted Bridge:** It is said that the ghosts of Moors who were killed at Puente de Alcántara, a Roman bridge in Córdoba, haunt the site today. The Moors were massacred there during the Reconquista. Some people say that at night they can hear their cries.

The river Guadiana is one of the Iberian Peninsula's longest streams, it flows primarily westward through south-east Portugal and south-central Spain to the Atlantic Ocean's Gulf of Cádiz separating Extremadura and Andalusia (Spain) from Alentejo and Algarve (Portugal). The river is 483 miles (778 km) long, with roughly 30 significant tributaries, and a drainage area of 23,455 square miles (60,748 square km). Its basin drains the low-rainfall regions of the Toledo Mountains, the Sierra Morena, and the plains of La Mancha.

The name of the river Guadiana was created by combination of Roman, Latin and Arab linguistic influences. This river was known as the Flumen Anas, or the "River of Ducks" to the Romans. The name was expanded and became Wadi Ana (wādī is the Arabic word for "river") during the Moorish control and settlement. Later, Portuguese and Spanish inhabitants took over the name and called it Ouadiana, and finally, just Odiana. A cognitive version of the name, Guadiana, has been present since the 16th century. It originated from the numerous Moorish-Arab river place-names that use the prefix guad-, such the hydronyms Guadalquivir, Guadalete, and Guadarrama.

The river Guadiana is important for multiple reasons. Numerous plant and animal species, such as the Spanish imperial eagle, the Iberian lynx, and several fish species, depend on the Guadiana River for their important habitat. When it comes to economic significance, the river is an important agricultural area, the Guadiana valley is well-known for producing oranges, olives, and other fruits and vegetables. The river also supplies water for hydroelectric power generating and irrigation. In addition, since ancient times, the Guadiana River has served as an essential supply of water and a route for transportation. Along its banks, remnants of prehistoric settlements and Roman bridges remain.

Marvelous myths and legends about the river Guadiana:

**The Lady of Guadiana:** Legend claims that the Guadiana has a beautiful spirit known as "La Dama del Guadiana" (The Lady of the Guadiana), which is similar to the myth of the Guadalquivir. It is said

that she guards the river's secrets and keeps an eye on it.

The talking fish: In the Guadiana River is said to have the ability to speak in another mythology. There are rumors that this fish may foretell the future or warn people of danger.

The Treasure of the Visigoths: Before losing the Battle of Guadalete, legend has it that the Visigoth king Roderick concealed his riches somewhere near the Guadiana River. This missing treasure has been sought for by many, yet it has never been located.

The Guadiana's Disappearance: According to one myth, the Guadiana flows underground because it feels ashamed and hides from the sun. The Guadiana is said to have hidden from the sun ever since it made fun of it for being a little river.

Water is the elixir of life and a vital substance for every living creature. While the name for this magical liquid may differ throughout the centuries in the cultures across the globe, but the significance will always stay equally same.

### References

- Bahronova, D. & Mukhtarov, K. (2023). Water: a universal symbol of life, renewal, and cultural significance. why is water considered sacred across cultures. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (12).
- The Guadalquivir, (1912). its personality, its people and its associations, author: Paul Gwynne, London constable company.
- Jan Kromhout (2001). Afrikaans-English, English-Afrikaans Dictionary.
- Dicionário Aberto (1913). based on Novo Dicionário da Língua Portuguesa de Cândido de Figueiredo. Materiales para el estudio de la toponimia hispanoárabe nómima fluvial.
- El polémico (1917). Guadiana osé Díaz-Pintado Carretón Ayuntamiento de Argamasilla de Alba, total quantity.
- Oxford English and Spanish Dictionary.
- The Collins English Dictionary.
- Bahronova, D. & Djalilova, U. (2024). English language and uzbek students: a linguocultural point. spast Reports.

## AGUA: этимологическое путешествие по культурам и рекам гуадалквивир и гвадиана

Dilrabo Bakhronova<sup>1</sup>  
Khurshid Mukhtarov<sup>2</sup>

### Абстракт

В данной статье исследуется этимологическое происхождение слова “agua” и терминов для обозначения слова “вода” в различных культурах, а также изменения, которые они претерпели на протяжении истории. В качестве методологии исследования рассматриваются две знаменитые реки Испании – Гвадалквивир и Гвадиана, и их значимость для страны в экономическом, историческом и экологическом аспектах. Также проанализировано языковое влияние других народов на наименования данных рек. Освещены также удивительные мифы и легенды, связанные с реками Гвадалквивир и Гвадиана.

**Ключевые слова:** вода, *agua*, этимологическое происхождение, Гвадалквивир, Гвадиана, арабский язык, латинский язык, мифы, легенды.

### Литературы

- Bahronova, D. & Mukhtarov, K. (2023). Water: a universal symbol of life, renewal, and cultural significance. why is water considered sacred across cultures. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (12).
- The Guadalquivir (1912). its personality, its people and its associations, author: Paul Gwynne, London constable company.
- Jan Kromhout (2001). Afrikaans-English, English-Afrikaans Dictionary.
- Dicionário Aberto (1913). based on Novo Dicionário da Língua Portuguesa de Cândido de Figueiredo.
- Materiales para el estudio de la toponimia hispanoárabe nómima fluvial. El polémico (1917). Guadiana osé Díaz-Pintado Carretón Ayuntamiento de Argamasilla de Alba, total quantity.

---

<sup>1</sup> Dilrabo Bakhronova – доктор филологических наук, профессор Узбекского государственного университета мировых языков, г. Ташкент. ORCID.org/0000-0002-2012-7426.

<sup>2</sup> Khurshid Mukhtarov – научный сотрудник Узбекского государственного университета мировых языков, Ташкент.

**Для цитаты:** Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov. AGUA: этимологическое путешествие по культурам и рекам гуадалквивир и гвадиана. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-1: 19-26.

Oxford English and Spanish Dictionary.

The Collins English Dictionary.

Bahronova, D. & Djalilova, U. (2024). English language and uzbek students:  
a linguocultural point. spast Reports.

## “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asari turkologlar e‘tirofida

Nodira Alavutdinova<sup>1</sup>

Ergashev Laziz<sup>2</sup>

### Abstrakt

Maqolada “At-tuhfat-uz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asarining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilganligi, tadqiqotchilar mazkur asarning qaysi jihatiga e‘tibor berib, qay nuqtai nazardan tahlil qilganligi haqida ma‘lumot berish bilan birga tahlil qilinganlik darajasi va yo‘nalishiga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** *lug‘atshunoslik, turkiy tillar, leksikologiya, lug‘at turlari, qo‘lyozmalar, grammatik tahlil, fonetik tahlil, statsitik tahlil, turkologiya semantik tasnif, turkiy til tarmog‘i, turkiy tillar tipologiyasi, transliteratsiya.*

### Kirish

“At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asari XIV asrga tegishli lug‘at bo‘lib, mamluk-qipchoq tilida yozilgan. Chunki bu davrda qipchoq tili turkiy tillar orasida eng ommalashgan til edi. Mazkur lug‘at XIX asrdan buyon tilshunoslar va sharqshunoslar nigohidan tushmay kelmoqda (Bo‘ronov 2023, 2). Maqolada bu yodgorliklarni o‘rgangan olim va tadqiqotchilar ro‘yxati va ularning tadqiqot yo‘nalishi jadval tarzida taqdim etilgan.

### Asosiy qism

Hozirgi kunda asarning o‘rganilishi Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda juda faol. Filologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarga “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asaridan foydalanish bo‘yicha alohida kurslar ham tashkil qilingan. Misol uchun, Tabrizda nafaqat “At-tuhfa”, balki, qipchoq tiliga oid boshqa manbalarni ham topishingiz mumkin. Afsuski, O‘zbekistonda Sobiq Ittifoq davrida ham, mustaqillika erishgandan so‘ng ham asar maxsus ilmiy tadqiqot manbai sifatida deyarli

<sup>1</sup> Alavutdinova Nodira Ganiyevna – O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

pochta: alavutdinovanodira@gmail.com

<sup>2</sup> Ergashev Laziz – O‘zMU 2-bosqich magistranti.

**Iqtibos uchun:** Alavutdinova Nodira, Ergashev Laziz. “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asari turkologlar e‘tirofida. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-1: 27-34.

o'rganilmagan, S. Mutallibovning "Turkiy til haqida noyob tuhfa" tadqiqi bundan mustasno. Olim asarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan birga uni semantik tahlil ham qilgan. Grammatikasi va fonetikasiga o'zbek adabiy tili me'yorlari doirasida tushuntirib o'tgan. Asarning yagona qo'l yozmasi Istanbul shahrida Validuddin afandi kutubxonasida saqlanadi (Муталлибов 1968, 5). Asarning qo'lyozma nusxasini O'zbekistonda topish juda mushkul. (Men tadqiqotchi sifatida bu asarni topish maqsadida ikki marta Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar insitutiga, ikki marta Fanlar Akadimi-yasi qoshidagi Fundamental kutubxonaga va bir safar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat til va adabiyot universitetiga bordim. Af-suski, bu asar topishga muvaffaq bo'lmadim.) Solih Mutallibov tad-qiqoti (Муталлибов 1968) haqida A. Bo'ronov fikr bildirib, tarjima-da ham, sharhlarda ham kamchiliklar bor ekanligini aytib o'tgan. Ishda Solih Mutallibovning qipchoq tilida so'zlashuvchi informant-lardan foydalanmaganligi ko'zga tashlanadi (Bo'ronov 2023, 2).

Turkolog A. Bo'ronov o'zining "At-tuhfa": kitobi bo'yicha olimlar bahsi sakkiz asrdan buyon tugamadi?" nomli maqolasida bu asarni o'rgangan o'zbek va jahon olimlari haqida malumot beradi.

T/r	Olimlar	Yodgorlik oldidagi xi-zmatlari	Yil	Millati
1	Fuad Kuprilzoda	Fan ahliga mavjudligi ko'rsatgan.	1922	Turk
2	Shamsiddin Shomi	Turk tiliga tarjima qil-gan.	1940-yillar	Turk
3	A.Zayonchkovskiy	"Mamluklar davrida yozilgan arab-qipchoq lug'ati" maqolasini ushbu asarga bag'ish-lagan.	1960-yillar	Polyak
4	Tibor Xalashi-Kun	Yodgorlik faksimilesini nashr etdi.	1942	Venger
5	Besim Atalay	Turk tiliga tarjima qil-gan.	1945	Turk
6	Aleksand Dubinskiy	Qarayim tiliga yaqin ji-hatlarini o'rgangan.	1967	Qarayim
7	Solih Mutallibov	O'zbek tiliga tarjima qil-gan.	1968	O'zbek
8	E.Fozilov va M.Ziyayeva	"At-tuhfa"ni kirish, l e k s i k - g r a m m a t i k ocherk, grammatik ko'rsatkichlar bilan nashr ettirganlar.	1978	O'zbek

9	N.Baskakov	“Turkiy tillar tarixiy-tipologik fonologiyasi”da asar haqida fikrlarini bayon etgan.	1960-yillar	Tatar
10	Adham Tenishev	Asar tilini qirim va tatar tiliga yaqin xususiyatlarini o‘rgangan.	1978	Tatar
11	N.Konkaboyeva	Lug‘atdagi hayvon leksikasini o‘rgangan.	2015	Qozoq

Jadvalda nomlari keltirilgan olimlarning ba‘zilari tadqiqotlarida “At-tuhfa”da keltirilgan leksik qatlamdan o‘z tillariga yaqin yoki o‘xshash so‘zlarni aniqlashga harakat qilganlar va o‘z ularning yaqinligini asoslash maqsadida mulohazalarini bayon qilganlar.

N. Baskakov “Turkiy tillarning tarixiy-tipologik fonologiyasi” tadqiqotida mamluk-qipchoq tilini g‘arbiy-qipchoq tillari, aniqrog‘i qo‘miq, qarayim, qrimtatar, qorachoy va balqar tillariga o‘xshash deb bilgan (Baskakov 1989). A. Tenishev esa uning Shimoliy qipchoq tillari, xususan tatar va boshqird tillariga yaqinligini aytgan. Bu ikki olimda ham negadir “At-tuhfa”ni o‘ziniki qilishga intilish ko‘zga tashlanadi. Chunki N.Baskakovning turkologiyaga qiziqishi Qora dengizda boshlangan, Adham Tenishev esa tatar millatiga mansub (Bo‘ronov 2023, 2).

XIII-XV asrlar davomida mamluk-qipchoq tili lingvo frankaga aylangan. Aslida mamluk-qipchoq tili o‘guz va qipchoq tillarining aralashuvidan hosil bo‘lgan tildir. Shunga yaqin tadqiqni venger turkologi Tibor Xalashi-Kun mamluk-qipchoq tilidagi so‘zlarni dialektiga ko‘ra 3 guruhga bo‘ladi:

- 1) sof qipchoq so‘zlari;
- 2) sof o‘g‘uz so‘zlari;
- 3) qipchoq-o‘g‘uz aralash so‘zlar (Kun 1940, 80-83).

Shuningdek, A. Bo‘ronov bu asar fonetikasiga ham e‘tibor bergan. “Ch” harfi o‘rniga shipildoq “sh” yoki “sh” o‘rniga sirg‘aluvchi “s” tovushi qo‘llanilishini aytib, asar tilini qipchoq-no‘g‘ay tiliga yaqin ekanligini aytib o‘tadi. Misollar:

- shashti (sochli),
- qashabardi (qochaverdi),
- sheshak (chechak),
- qonshi (qo‘shni)
- kashdi (kechdi)
- bursh (burch – qarz)

N.Konkaboyeva ham ushbu yodgorlikning tadqiqi borasida samarali mehnat qilgan. Qozoq olimasi o'zining "At-tuhfa"da uy hayvonlarini qanday ataydi?" (Қонқабаева 2015, 219) maqolasida asardagi zoonimlar ustida ishlagan. Ma'lumki, turkiy xalqlarning asosiy mashg'ulotlaridan biri chorvachilik bo'lgan. Olima ham maqolada, asosan, asardagi uy hayvonlari leksikasini keltirgan. Hayvon leksikasini arabcha-qipchoqcha ko'rinishda qozoq tiliga tarjima qilib taqdim etadi. N.Konkaboyeva mazkur tadqiqot doirasida 56 ta zoonimni tahlil qilgan:

baasraak – erkak tuya

inkantavaa – urg'ochi tuya

inaak – sigir

taakaa – echki

saylīg – urg'ochi qo'y

uukuuz - ho'kiz

kaashaak – qari tuya

aanuuk – kuchuk

ešāk – eshak

ṭaanaa – bir yoshli sigir, buzoq, g'unajin

qışraaq – yosh toychoq

aaygīr – ot (ayg'ir)

hetuk — mushuk

Tadqiqotda bu leksemalar bilan bog'liq misollar ham keltirilgan:

tēvā silkensā ešākkā juk čiqar – tuya tebransa eshakda yuk paydo bo'ladi

ešākni berginčā bu jejmni jesün – sizga eshak berishdan oldin shu yemni yesin

qajada joriqlī bu ĩmga tēkā – echkilar toshga sakrab chiqmoqda (Қонқабаева 2019, 221)

Bundan tashqari, olima hayvon leksikasining omonim xususiyatlariga misollar keltirgan: *ayg'ir* – *ot* hayvon ma'nosi bilan birgalikda astronomik nom sifatida yana bir ma'noga ega- yulduzning nomi, ĩmga so'zining birinchi ma'nosi echki, ĩmga so'zining ikkinchi ma'nosi - soliq yig'uvchi, g'aznachi.

Quyida ot va itning turlari sanab o'tilgan:

jol atī – minadigan ot,

özlük ot – chopayotgan ot,

tīš at – peshonasida qoshli ot,

jandīq – ot sodda

ugar at – peshonasida oq qoshli ot

salga at – qo‘sh ot  
turu qalmış – otning old oyoqlari  
ṭaazi – tazı (ov uchun itning turi ),  
aakaar – it (poyga uchun it turi ),  
baaraaq – kichik it.

Tilshunos A. Nurmonovning “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kitobining bir qismini “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asariga bag‘ishlagan. Dastlab asar haqida muallif arab tilini juda mukammal bilgani, Mahmud Koshg‘ariy izidan borganligi singari umumiy ma‘lumotlarni beradi. Bu kitobda asarning qayerda yozilganligi haqida quyida qarama-qarshi fikrlar tahlil qilingan:

S. Mutallibov va Basim Atalay bu asar Misrda yozilgan deb hisoblashsa, boshqalar, masalan, A.Zayanchovskiy va E.Fozilov lug‘at Suriyada yaratilgan deb da‘vo qilishadi. Birinchi guruh, asarda Misr nomi borligi, o‘simliklar, xususan, paxta Misrda o‘sishi, bu o‘simlikning Suriyada o‘smasligi kabi misollar bilan isbotlashadi. Ikkinchi guruh vakillari esa asar tili arab tilining Suriya lahjasiga yaqinligini, xususan, dengizchilikka oid so‘zlarning mavjudligi bilan asoslaydilar (Гурмонов 2002, 58): *kama – kema, yilkan – yelkan, ilangir – yakor, ishkik – eshkak, kemachi – dengizchi* kabi.

S.Mutallibov o‘z tadqiqotida ushbu asarni arab alifbosidan krill alifbosiga translitiratsiya qildi. Grammatika bo‘limini ham juda yaxshi ochib bergan. Asar grammatikasi olmoshlar, marifa va naqra, ishorat ismlari, mavsul bo‘limi, masdar bo‘limi va shunga o‘xshash ko‘plab bo‘limlardan tashkil topgan. Lug‘at qismida so‘zlar arab alifbosi tartibida berilgan. Biroq, ba’zi istisno holatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun **t** harfli otlar bo‘limida arabcha **sh** *sharjo – jodugar*, **s** bilan boshlanuvchi *soqil – poydevor*, **g‘** harfi bilan boshlanuvchi bo‘limda **o‘** bilan boshlanuvchi *urumchuk – o‘rgimchak*, **b** harfli fe‘llar bo‘limida **ch** bilan boshlanuvchi *chaxil – qizg‘ondi*, **h** harfli fe‘llar bo‘limida **m** harfi bilan boshlanuvchi *marolxotir – sezdi* kabi so‘zlarga duch kelishimiz mumkin.

Hozirgi kunda sifat ma‘nosini anglatadigan so‘zlar, XIV asrda otlar tarkibida bo‘lgan ekan. Misol uchun **b** harfli otlar bo‘limida *jonboz, mun – befahm, abdal – ko‘rkam*, **s** harfli otlar bo‘limida *kar, och, qalin, o‘g‘ir*, **h** harfli otlar bo‘limida *yuvvosh, issiq, harom, o‘tkir, baxil, achchiq, totli*, **x** harfli otlar bo‘limida esa *qo‘rqoq, nopok, yangi, eski va qo‘pol* so‘zlariga duch keldik. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, biz hozir sifat deb hisoblaydigan so‘zlar XIV asrda otlar tarkibida bo‘lgan ekan. Ya‘ni, umumiy ismlar ichida bo‘lib, deyarli bir-biridan ajratilmagan. Lug‘atni mavzu jihatdan tasnif qilsak, eng ko‘p hayvon,

oziq-ovqat, o'simlik, kasb-nomlar, kiyim-kechak, tibbiyot bilan bo'g'liq so'zlar va boshqa maishiy va ijtimoiy leksikadan tashkil topgan.

Bevosita asarni tadqiq etishda A. Nurmonov asar grammatikasiga katta e'tibor beradi. Muallif lug'at tuzish me'yorlari va fonetik qoidalarni yaratishda arab tilshunosligiga tayanadi. Olim asardagi mentalingvistik, fonetik va grammatik qarashlarga alohida to'xtaladi. Grafika masalalari yuzasidan aralash ma'lumot berilgan. "Qipchoq tilining fonetik tizimida 23ta tovush va fonema mavjud va ular yozuvda 22ta harf bilan ifodalanadi. Mentalingvistik qarashda tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, fikrlash, nutq va sheriklik tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritadi. Nutq yaratish uchun, avvalo, so'zlovchida fikr shakllanishi va uni eshitadigan tinglovchi bo'lishi kerak. Insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biri uning nutq qobiliyatidir" (Hyp-монов 2002, 60).

Olim lug'atni fonetik jihatdan tahlil qilar ekan uning ko'proq fiziologik xususiyatiga urg'u beradi. Masalan, "n" harfidan sal farqlanuvchi yana bir nazallashgan "n" bor, u bo'g'iz yorug'idan burun orqali talaffuz qilinadi. Asarda fonetik hodisalar paydo bo'lishi haqida har qanday fonetik o'zgarish talaffuz qulayligi natijasida yuzaga kelgan degan nazariya ilgari suriladi. Tovushlarning tushushi va ortishiga misollar keltirilgan:

**d:** ichir – (aslida ichdir)

**b:** agar – (aslida abgar)

**r:** bilan – (aslida birlan).

Tovush ortishiga esa **q:** tashqari (aslida tashari) yoki ichkari (aslida ichari). Olim "At-tuhfa"ni solishtirma grammatikaning ilk namunasi deb hisoblaydi. Asardagi grammatik ma'lumotlarini turkiy tillarning ilk grammatikasi deyish mumkin.

O'zbek tilshunos olimi R.Rasulov ham A.Nurmonov ma'lumotlariga tayanib, o'zining "Umumiy tilshunoslik" kitobida "At-tuhfa"ga o'rin ajratdi. R.Rasulov asarning lug'at qismi haqida gapira turib, asar 3000 ta so'zdan iborat ekanligi va arab alifbosi asosida joylashtirilganligini aytib o'tadi. Morfologik nuqtai nazardan uch xil so'z turkumiga bo'linadi:

1) Ismun

2) Fe'lun

3) Harfun

Tadqiqotda, asosan, sonlar va so'roq gaplarning o'rganilishi yangilikdek ko'rinadi. Sonlar 4 darajada tasniflanadi: birliklar, o'nliklar, yuzliklar va mingliklar. Birliklar tarkibida fonetik farqlar bor.

O‘nlik tarkibida keluvchi birlik o‘nlikda oldin kelishi ham mumkin, masalan, to‘rt o‘ttiz, bir yigirma. Shuningdek, chama son ma‘nosini beruvchi – lar affiksi taxminni emas, balki, aniq shu miqdordan ko‘p ekanligini bildiradi. So‘roq gapni hosil qilishda so‘roq vositalar: yuklama va olmoshlarni sanab o‘tadi (Rasulov 2010, 43).

### **Xulosa**

A.Bo‘ronov, N.Konkaboyeva, A.Nurmonov va boshqa olimlar fikrlariga tayanib aytish mumkinki, “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” yodgorligi turkologiyaning bebaho boyligidir. Til bir qancha sathlardan iborat, lekin leksika, ya‘ni, so‘zlar bo‘lmasa, bu sathlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Lug‘atsiz tilni rivojlantirish, uning tarixini o‘rganish juda qiyin. Hozirda o‘zbek tilshunosligida lug‘at boyligini oshirish eng muhim vazifalardan biri ushbu asar turkologiyaning bebaho boyligi va turkiy tillar grammatikasi va leksikografiyasi yaratilishiga zamin bo‘lgan yodgorlikdir. Bu lug‘at uzoq vaqtdan beri tilshunoslarni qiziqtirib keladi va doimiy bahslarga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi ikkita bahs buning dalili. Birinchi bahsda ko‘rganimizdek, olimlar bu asar tilini o‘zining tiliga yaqinligi haqida da‘vo qilib tortishadilar, asarning qiymatini shu yerda ham ko‘rishimiz mumkin. Ilm cheksiz, ana shu cheksizliklar qa‘rida “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya”ning ham to‘liq o‘rganilmagan jihatlari mavjud. Mazkur asarning o‘rganilishi borasidagi eng og‘riqli nuqtalaridan biri uning o‘zbek tilshunosligida yetarlicha ishlanmaganligidir.

### **Adabiyotlar**

- Baskakov N.A. 1989. Historical-Typological Phonology of Turkic Languages. – Moscow: Nauka.
- Bo‘ronov A. 2023. “At-tuhfa”: kitobi bo‘yicha olimlar sakkiz asrdan buyon tugamadi? – Toshkent, Oyina jurnali.
- Rasulov R. (2010). Umumiy tilshunoslik. –Toshkent.
- Қонқабаета Н.Н. 2015. Ат-тухфа аз-закія фил-луғат ат-туркийя ескер ткішін дегі үй жануарлары ның атауы. ҚазҰУ хабаршысы. – Al-Farabi Kazakh National University.
- Муталлибов С. (1968). Ат-тухфатуз закиятү филлуғатит туркия. – Тошкент, Фан.
- Нурмонов А. (2002). Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент, Узбекистан.

## **The work “at-tuhfatuz zakiyati fil-lugatit turkey” is recognized by turcologists**

Nodira Alavutdinova <sup>1</sup>

Laziz Ergashev <sup>2</sup>

### **Abstrakt**

In the article, the study of the work “At-tuhfat-uz zakiyati fil-lugatit turkiya” in world and Uzbek linguistics, along with providing information about which aspect of this work the researchers paid attention to and from what point of view they analyzed it focused on the level and direction of analysis.

**Key words:** *lexicology, Turkic languages, lexicology, dictionary types, manuscripts, grammatical analysis, phonetic analysis, statistical analysis, Turkicology semantic classification, Turkish language network, typology of Turkic languages, transliteration.*

### **References**

- Anvar Bo‘ronov. (2023). “At-tuhfa” book scholars have not finished since eight centuries. – Tashkent, Oyina magazine.
- Konkabaeva N.N. (2015). At-tuhfa az-zakiya fil-lug‘at at-türkiyya esker tkíshín degi üy janvarlary nynn atauy. GazÛU khabarshysy. – Al-Farabi Kazakh National University.
- Abdukhamid Nurmonov. (2002). History of Uzbek linguistics. – Tashkent, Uzbekistan.
- Ravshankhoja Rasulov. (2010). General linguistics. –Tashkent.
- Baskakov N.A. (1989). Historical-Typological Phonology of Turkic Languages. – Moscow: Nauka.
- Mutallibov S. (1968). At-tuhfatuz zakiyatu fillugatit turkey. – Tashkent, “Fan” Publishing House.

---

<sup>1</sup> *Nodira G.Alavutdinova* – an associate professor of the Department of Uzbek Linguistics of the National University of Uzbekistan.

E-mail: alavutdinovanodira@gmail.com

<sup>2</sup> *Ergashev Laziz* – a graduate student of the 1 stage of UzMU.

**For reference:** Alavutdinova Nodira, Ergashev Laziz. The work “At-tuhfatuz zakiyati fil-lugatit turkey” is recognized by turcologists. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 27-34.

# Afaziyani tilshunoslikda o'rganishning ahamiyati

Iroda Azimova<sup>1</sup>

## Abstrakt

Ushbu maqolada afaziyaning tilshunoslikda o'rganilishining qanday ahamiyati bor degan savolga javob berishga harakat qilinadi. Maqolaning kirish qismida afaziyaning ta'rifi, uning o'rganilish tarixi, bugungi neyrolingvistik gipotezalar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Maqolaning asosiy qismida afaziyaning tasnifi, leksikondagi nuqsonlarga oid tadqiqotlar hamda grammatik tizimdagi nuqsonlarga oid tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi. Afaziya tasniflaridan uchtasiga to'xtalinadi. Vernike tasnifi, Luriya tasnifi hamda Boston tasnifida ajratilgan afaziya turlari haqida ma'lumot keltiriladi. Leksikonga oid buzilishlar o'rganilgan neyrolingvistik tadqiqotlarda so'zning qo'llanish chastotasiga doir, semantik ma'no guruhlariga doir qarashlar bayon etiladi. O'zbek tilidagi broka afaziyasida kuzatilgan shunday holatlar tushuntiriladi. Grammatik tizimga oid buzilishlarda so'z turkumining afaziyadagi ko'rsatkichlardagi ahamiyati, ot va fe'l dissotsiatsiyasi, fe'llarni qo'llashga ta'sir etuvchi argument strukturasi, fe'lning semantik xususiyatlari va gap qurilishidagi xatolarning asosi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** *afaziya, neyrolingvistika, broka afaziyasi, afaziya tasnifi, spontan nutq, agrammatizm, o'zbek tili.*

## Kirish

Afaziya – inson tilni o'zlashtirib bo'lganidan keyingi vaqtda miyaning alohida bir qismidagi jarohat natijasida yuzaga kelgan orttirilgan lisoniy nuqsondir (Penfield, Roberts 1959). U afaziya deb baholanishi uchun miyadagi jarohat alohida bir nuqtada bo'lishi kerak (odatda, bu miyadagi asosiy til markazlari bo'lgan Broka sohasi va Vernike sohasidagi jarohatlar bo'ladi). Miyaning keng ko'lamda jarohatlanishidan yuzaga kelgan lisoniy nuqson boshqa kognitiv vazifalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Miyadagi til markazlarining shikastlanishi insultning asorati

<sup>1</sup> *Azimova Iroda Alisherovna* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** azimova\_iroda@navoiy-uni.uz.

**ORCID:** 0000-0002-4081-7651.

**Iqtibos uchun:** Azimova I. Afaziyani tilshunoslikda o'rganishning ahamiyati. O'zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*. 2024-1: 35-52.

bo'ladi. Qon bosimining ortishi natijasida miyadagi qon tomirlar yorilib, qon tomirdan tashqariga oqib chiqadi va buning natijasida miya to'qimasini shikastlaydi. Qon tomirdagi tromb yoki biror yot jism qon tomirni qisman yo butunlay to'sib qo'yishi oqibatida hujayralarga qon yetib bormasligi ham miya to'qimalarining shikastlanishiga olib keladi. Shuningdek, miyaga tashqaridan jarohat yetkazilganda yoki miyada o'sma bo'lganda ham miya to'qimalari shikastlanadi. To'qimalar shikastlangach, ular o'z funksiyasini yo butunlay, yo qisman bajara olmay qoladi. Bosh miyadagi til sohalari shikastlangan bemorlarda ham ba'zan tilning butunlay yo'qolishi, ba'zan til tizimining ayrim elementlarining izdan chiqishi kuzatiladi.

Neyrolingvistikada afaziyaning bir necha turi farqlanadi. Bu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarda turli tillardagi afazik nutq tilning ichki strukturasi, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turfa xarakterdagi xatolarni o'zida namoyon etishi qayd etiladi. Afaziyaning turli ko'rinishlari tilshunoslik tomonidan o'rganilar ekan, ular orasida broka afaziyasi alohida o'rin tutishini aytib o'tish lozim. Bu turdagi afaziya chalingan bemorlar nutqni nisbatan yaxshi tushunadilar, odatda, nima demoqchiligini biladilar, ammo fikrni to'g'ri ifodalab bera olmaydilar. Ularning nutqida grammatik ko'rsatkichlarning tushib qolishi ko'p kuzatiladi. Shu bilan birga bu xatolar nisbiy xarakterga egadir, ya'ni bemor gapirayotganda ba'zi grammatik qoidalarga rioya qiladi, ba'zilariga esa amal qilmaydi. Shu kabi xususiyatlardan kelib chiqqan holda afaziyaning bu turini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish tilning ichki strukturasi, til elementlarining o'zaro munosabati haqida batafsil ma'lumot beradi, til, lison, nutq hamda til va tafakkur munosabatlarini, psixik jarayonlarni yoritishga xizmat qiladi.

Nutqiy jarayonning psixolingvistik tahliliga doir tadqiqotlar rus olimi A.R.Luriyaning neyrolingvistika yo'nalishidagi asarlarida aks etgan. XX asrda rus tilshunosligida A.R.Luriya afaziyaning tadqiq qilish bilan shug'ullangan bo'lsa (Лурья 1974; 1975; 1979) shu davrda AQShda H.Gudglas ham mazkur masalani o'rgangan (Goodglass, Hunt 1958; Goodglass 1968; Goodglass, Kaplan 1972).

Yevropada afaziyaning o'rganish bir muncha ilgariroq boshlangan. Tilning miyadagi markazlarining aniqlanishi 1824-1880 yillarda yashab o'tgan fransuz olimi Pol Broka nomi bilan bog'liq. Uning bir bemori bo'lib, hamma savolga "tan, tan..." deb javob bergan. Shuning uchun uni "janob Tan" deb atashgan. Janob Tan gapirilgan gapni tushunsa-da, javoban "tan, tan" dan boshqa narsa aytolmagan. Uning o'limidan so'ng miyasi ochib ko'rilganda miyaning old

qismidagi uchinchi burmacha va ikkinchi burmachaning bir qismi shikastlangani ma'lum bo'lgan. Miyaning mazkur sohalar lisoniy faoliyatga mas'ul sohalar sifatida Pol Broka tomonidan kashf etilgani uchun fanda Broka sohasi deb yuritiladi.

Pol Broka bilan deyarli zamondosh bo'lgan nemis olimi Karl Vernike (1848-1905) nutq tezligi risoladagiday bo'lgan, ammo nutqi davomida ko'plab lisoniy xatolarga yo'l qo'yadigan, shuningdek, gapni tushunishga qiynaladigan bemorlarni kuzatgan. U bemorlarning miyasi o'limidan so'ng tekshirilganda miyaning chakka qismidagi birinchi burmacha va ikkinchi burmachaning bir qismi shikastlangani aniqlangan. Miyaning mazkur sohasi tilga mas'ul yana bir markaz sifatida fanda Vernike sohasi deb ataladi.

Afaziologiyaning rivojlanishidagi muhim bosqich Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liqdir. Urush davrida miyasidan jarohat olgan askarlar afaziyaning turli ko'rinishlarini namoyon qilganlar. Askarlarni reabilitatsiya qilish markazlarida afazik nutq namunalari yozib olingan, turli tajribalar yordamida askarlarning nutqiy imkoniyatlari tekshirilgan. Mazkur tadqiqotlar SSSRda Aleksandr Romanovich Luriya tomonidan olib borilgan borsa, AQSHda Harold Gudglas shu ish bilan shug'ullangan.

Hozirda Yevropada afaziyaning o'rganilishi keng ko'lamda davom etayotgan bo'lib, "Afaziologiya" deb nomlangan xalqaro jurnalda yiliga yuzlab maqolalarning chop etilishi buning isbotidir. G.Dell, A.Kim, M.Goldrick, B.Rapp kabi olimlar inson ongida leksikonning tuzilishi (Dell 1986; Goldrick, Rapp 2007), Franklin, Ye.Kapitani, B.Maxon, A.Karamasa, X.Byord, D.Xovard kabi olimlar semantikani (Capitani, Laiacona, Mahon, Caramazza 2003; Caramazza, Hillis 1990; Bird, Howard, Franklin 2001), D.Kaplan, M.V.Dikey, S.Tompson kabilar morfosintaksisni afazik bemorlar nutqi asosida tadqiq qilganlar (Caplan, Waters, Kennedy, Alpert, Makris, Dede, Michaud, Reddy 2007; Dickey, Choy, Thompson 2007). Shuningdek, fe'llarning o'timli-o'timsizligi, otlarning jonli yoki jonsiz predmetlarni anglatishi, gapning odatdagi tartibi va o'zgargan tartibi, fe'llardagi zamon va aspekt, shaxs va son kabi lingvistik kategoriyalar X.Gudglas, J.Xant, N.Fridman, Y.Grodzinski, S.Luzzatti, V.Nanousi, S.Tompson, R.Bastiansi, T.Duman, R.Yonkers, F.Burshert, R. De Bleser, O.Dragoy kabi olimlar tomonidan ingliz, italyan, nemis, golland, turk, rus va boshqa tillar misolida o'rganilgan (Goodglass 1968; Friedmann, Grodzinsky 1997; Luzzatti, Toraldo, Guasti, Ghirardi, Lorenzi, Guarnaschelli 2001; Nanousi, Masterson, Druks, Atkinson, 2006; Thompson 2003; Bastiaanse, Jonkers 1998; Bastiaanse, van Zonne-

veld 2005; Dragoy, Bastiaanse 2013; Burchert, Swoboda-Moll, De Bleser 2005; Duman, Bastiaanse 2009). Mazkur tadqiqotlar asosida universal grammatikaga oid TPH (Tree-Pruning-Hypothesis “Kesik daraxt nazariyasi”) (Friedmann, Grodzinsky 1997), TDH (Trace-Deletion-Hypothesis “Izning yo‘qolishi nazariyasi”) (Grodzinsky 1995), DOP-H (Derived-Order-Problem-Hypothesis “O‘zgartirilgan tartib muammosi nazariyasi”) (Bastiaanse, Van Zonneveld 2005) kabi nazariy yondashuvlar ilmiy taomilga kiritilgan. Bu nazariyalar hamma tillar uchun umumiy deb da‘vo qilinsa-da, doim ham o‘z isbotini topavermagan.

Ma‘lumki, o‘zbek tilidagi afaziya tilshunoslik nuqtayi nazari-dan tadqiq etilmagan. Umuman, neyrolingvistika bo‘yicha o‘zbek tilida ma‘lumot deyarli yo‘q. Maqolamizning maqsadi neyrolingvisti-kadagi tadqiqotlarning umumiy yo‘nalishini qisqacha yoritib berish-dan iborat. Mohiyatan afaziyaning tilshunoslikda o‘rganish ilm-fanga nima beradi degan savolga javob izlaymiz. Mazkur savolga javob ber-ish uchun neyrolingvistikada xalqaro miqyosda tan olingan muhim nazariy qarashlarga to‘xtalamiz, ularning o‘zbek tilidagi tadqiqi haqida ma‘lumot berib o‘tamiz.

### **Asosiy qism**

Afaziyaning tasnifi. Avvalboshidayoq afaziyaning aniqlanishi turli simptomlar asosida bo‘lgan edi: Broka o‘rgangan holatda gapirishning izdan chiqishi, Vernike o‘rganganida tushunishning izdan chiqishi. Bular nutq patologiyasida eng birinchi ko‘zga tashlanuvchi farqdir: tushunish va gapirish. Undan tashqari til tizimiga tegishli ma‘lum qismlarining alohida-alohida holdagi nuqsonlari ham qayd etilgan.

Afaziyaning tadqiq qilish inson ongidagi til bilan ishlovchi ney-rokognitiv mexanizm haqida tasavvur qilish, uning modelini ishlab chiqish imkonini berdi. Afaziologlar bunda bemorlarning nutqidagi nuqsonlarga asoslanib, u mexanizmning tarkibiy qismlarini belgilag-anlar. Xususan, har bir modelda fonemalarni qabul qilishda ularni ongda aks ettiruvchi markaz, ularni talaffuz qilishda alohida markaz borligi qayd etiladi. Shuningdek, konsept (ma‘no) markazi alohida ajratiladi. Har bir markazni bir-biri bilan bog‘lab turuvchi yo‘llar bel-gilanadi. Afaziyaning turli ko‘rinishlarida o‘sha modelning qaysidir qismida izdan chiqqan bo‘ladi. Afaziyaning tasniflari o‘shanday mod-ellar asosida amalga oshirilgan. Afaziologiyaning dastlabki davrida qilingan tasniflardan biri Karl Vernikega tegishli. U o‘z tadqiqotlari asosida afaziyaning quyidagi turlarini farqlagan:

1. Kortikal hissiy afaziya. Ushbu turdagi afaziya tushunish

muammolariva takrorlash bilan bog'liq muammolar bilan tavsiflanadi. Unda spontan nutq kamroq buzilgan, ammo parafaziyalar kuzatiladi.

2. Subkortikal hissiy afaziya. Bunda takrorlash va tushunish ham buziladi, lekin spontan nutq izdan chiqmagan bo'ladi.

3. Transkortikal sensorli afaziya. Afaziyaning mazkur turida spontan nutqdagi parafaziyalar, tushunishdagi muammolar kuzatiladi, ammo takror izdan chiqmagan bo'ladi.

4. Kortikal motor afaziyada esa spontan nutq cheklangan, takrorlash buzilgan, tushunish yaxshi saqlangan bo'ladi.

5. Subkortikal motor afaziyada so'zlar (masalan, bo'g'inlar soni) haqida fonologik ma'lumot berishi mumkin, chunki nutqqa tegishli motor tasvirlar buzilmagan bo'ladi.

6. Transkortikal motor afaziya. Ushbu afaziyada spontan nutq parafazik, ammo tushunish va takrorlash buzilmagan bo'ladi.

7. Konduktiv afaziya. Afaziyaning bu turi Broka sohasi va Vernike sohasini bog'lab turuvchi yo'l izdan chiqishi bilan xarakterlanadi. Unda spontan nutq va takrorlash parafazik, ammo tushunish saqlanib qoladi.

8. Amnestik afaziya. Bu turdagi afaziyada nutqiy xotira izdan chiqqan bo'ladi, deb hisoblaydi Vernike [Tesak, Code, 2008, 91].

A.R.Luriya o'z tajribaviy kuzatishlarini umumlashtirgan holda afaziyani quyidagicha tasniflaydi:

1. Dinamik afaziya. Afaziyaning bu turida bemorda gapirishga xohish yo'qligi, ichki nutqning buzilishi kabi simptomlar kuzatiladi.

2. Sensor afaziya. Bunda fonemalarni tanish va farqlashdagi qiyinchilik; fonemik parafaziyalar; nutq sintaktik hamda ohang jihatdan to'g'ri; tushunish qisman yaxshi

3. Audial-mnestik afaziya. Bu turdagi afaziyada nutqiy operativ xotiraning izdan chiqishi natijasida gapning sintaktik strukturasi persepsiyada saqlana olmasligi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida spontan nutqda va obyektning nomini aytishda parafaziyalarga olib keladi

4. Vizual-mnestik afaziyada aytilgan so'z asosida vizual tasavvur qilish qobiliyati izdan chiqadi.

5. Semantik afaziyada so'zlarning semantik tarmog'i izdan chiqadi turli murakkab birikmalarning tushunilishi qiyinlashadi.

6. Afferent motor afaziya. Bunda bemor tovushlarni chalkashtirib, ya'ni bir-biridan farqlanadigan, ammo qaysidir jihatlari bilan bir guruhga mansub tovushlarni almashtirib qo'llaydi. Bunda afaziyaga chalinganlar tovushlarni talaffuz qilish qobiliyatini yo'qotadi.

7. Efferent motor afaziyada esa alohida-alohida tovushlarni oson talaffuz qiladi, lekin soʻz va iboralarni talaffuz qilayotganda biroz qiyinchiliklarga uchraydi, soʻz va iboralarni talaffuz qilishda tutilib –tutilib talaffuz qiladi (Лурня, 1975б 183).

K.Vernike va A.Luriyaning tasnifi haqida soʻz borar ekan, ularning afaziyaning turlarga ajratishda miyaning ishlashi haqidagi nazariy qarashlari bilan bogʻliqligini yodda tutishimiz kerak. Vernike assotsianistik qarash tarafdori boʻlgan, yaʼni miya funksiyalari miyaning turli sohalari oʻrtasidagi aloqaga bogʻliq deb hisoblagan. Bu yondashuvga koʻra, til qobiliyati tasvir (obraz) va soʻz oʻrtasidagi aloqa demak. Afaziya esa lisoniy vazifalarni bajaruvchi sohalar oʻrtasidagi aloqaning uzilishi sifatida baholanadi (Ahlsen 2006, 10). A.Luriya esa funksional-dinamik lokalizatsiya yondashuvi tarafdori boʻlgan. Bu yondashuvga koʻra turli kichik vazifalar miyaning turli qismlarida bajariladi; katta va murakkab vazifalarni bajarish uchun mazkur kichik vazifalar umumlashishi kerak.

Bugungi kunda keng ishlatilayotgan tasnif Boston tasnifi deb ataladi. Unga koʻra afaziyaning 8 turi farqlanadi.

1. Broka afaziyasi. Unda tushunish nisbatan yaxshi saqlanadi. Nutq ifodasi qiyinchilik bilan amalga oshiriladi, baʼzilarida butunlay yoʻqlishi mumkin. Shu sababdan umumiy nutq tezligi past boʻladi. Gaplar qisqa, koʻpincha grammatik xatolar boʻladi.

2. Vernike afaziyasida tushunish izdan chiqqan boʻladi. Nutq ravon, qiyinchiliksiz amalga oshsa-da, parafaziyalarga boy boʻladi.

3. Konduktiv afaziya. Bu afaziya Broka sohasi va Vernike sohasini bogʻlovchi yoʻldagi buzilish sababli roʻy beradi. Afaziyaning bu turida bemorlar tushunib gapirish talab qilingan vazifalarni juda yomon uddalaydi.

4. Aralash transkortikal afaziya. Ushbu afaziya turi miya poʻst-logʻining bir necha qismlari zararlanishi bilan xarakterlanib, eshitib tushunish ham, ogʻzaki nutq ham izdan chiqqan boʻladi. Rasmga qarab soʻzni aytishda ham juda past darajada boʻladi.

5. Transkortikal motor afaziyada nutqni takrorlash va eshitib tushunish nisbatan yaxshi saqlangan boʻladi. Til qobiliyatining qolgan parametrlari rasmni nomlash, spontan nutq izdan chiqqan boʻladi.

6. Transkortikal sensor afaziya eshitib tushunish izdan chiqqan boʻlib, qolgan parametrlar nisbatan yaxshi saqlangan boʻladi.

7. Global afaziya til bilan bogʻliq markazlarning barchasi zararlanishidan kelib chiqadi. Shunga mos ravishda til bilan bogʻliq

barcha parametrlar izdan chiqqan bo'ladi.

8. Anomik afaziyada asosan nomlash izdan chiqqan bo'ladi. Bunda bemor asosan, narsaning nomini aytishga qiynaladi. U narsaning xususiyatlari haqida esa bemalol ayta oladi. Tilning qolgan parametrlari nisbatan yaxshi saqlangan bo'ladi (Sheppard, Sebastian 2021, 221-234).

Bugungi kunda respublikamizda nevropatologlar Luriyaning tasnifi bo'yicha tashxis qo'yadilar. G'arb olimlarining tasnifidagi broka afaziyasi Luriyadagi efferent-motor afaziyaga to'g'ri keladi.

Afaziya til tizimi xususiyatlarining namoyon bo'lishi. Afaziyaga chalingan bemorning nutqiy imkoniyatlarini tekshirish erkin nutq, so'zni takrorlash, rasmni nomlash, rasmni ko'rsatish, matn tinglash va savollarga javob berish kabi bir qator topshiriqlar vositasida amalga oshiriladi. Bu topshiriqlar nutqning to'rt turli voqelanishini, xususan, gapirish, tushunish, o'qish va yozishni tekshirishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, erkin nutq, rasmni nomlash kabi topshiriqlar gapirishni, aytilgan so'zning rasmni ko'rsatish, matn asosidagi savollarga javob berish tushunishni, matn ko'chirish va diktant yozish, rasmni yozma nomlash kabilar yozma nutqni, harf va matnlarni o'qish esa o'qish qobiliyatining izdan chiqqan-chiqmaganligini baholash uchun qo'llanadi.

*Afaziya leksikon bilan bog'liq buzilishlar.* Xart, Berndt va Karamasa MD nomli bemor meva va sabzavotlarni nomini aytishda qiynalganini qayd etganlar (Hart, Berndt, Caramazza 1985). U bemor qadimgi hisoblash uskunasi abakning yoki Sfinksning rasmni ko'rib, nomini ayta olgan, ammo nok yoki apelsinning rasmiga qarab ularning nomini ayta olmagan. Shuningdek, u bu nomlarni boshqa odam aytganda tushungan, yozma shaklda berilgan meva va sabzavot nomlarini qiynalmasdan sinflarga ajrata olgan, lekin rasmga qarab tasniflash so'ralganda, MD buni uddalay olmagan. MDning mazkur ko'rsatkichlari inson miyasida so'zlarning semantik kategoriyaga ko'ra guruhlanishini isbotlaydi. MDning yozma nutqida va tushunishida bu kamchilik kuzatilmagani mazkur semantik guruhning ongdagi in'ikosiga zarar yetmagani, balki rasm orqali semantikaga borish yo'li izdan chiqqanligini bildiradi.

O'zbek tilidagi broka afaziyasida biz semantik guruh ta'sirini rasmga qarab predmet nomini aytish bo'yicha tajribamizda kuzatganmiz. Tajribada ishtirok etgan MHning javoblarida asbob semantik guruhi hamda hayvonlar semantik guruhida boshqa guruhdagi otlarga nisbatan ko'proq xato kuzatilgan. Xususan, asbob nomlaridan bolg'a, nasos, cho'tka nomini aytishda xato qilgan,

o'rniga boshqa so'z aytgan: bolg'a - bolta, nasos - nasok, cho'tka - sotka. Shuningdek, ruchka, xaskash, qarmoq so'zlarini kechikish bilan aytgan, ya'ni bu so'zlarni ongda faollashtirib olishiga nisbatan ko'proq vaqt sarflagan. Xuddi shunday hayvon nomlaridan uloqcha, buzoq, ilon, toshbaqa, mushuk nomlarini aytish ham nisbatan ko'proq vaqt olgan.

Xuddi shu tajribada ishtirok etgan RMning javoblarida aytilishi kerak bo'lgan so'z o'rniga shu semantik guruhga mansub boshqa so'zlarning aytilishi kuzatilgan: quloq so'zining o'rniga burun, qulfnig o'rniga kalit, choygum o'rniga chelak, kuchuk o'rniga mushuk, bolg'a o'rniga ombur kabi (Azimova 2020, 32-36).

Ushbu tajribada ishtirok etgan ZR ananas va kenguru rasmi ko'rsatilganda anomiyaga xos simptomni namoyon qilgan:

Ananas: *bu nima edi, kaktusmi yo'q. Uygayam obkelishaardi. (nima bu mevami sabzavotmi) meva. (bizda o'sadimi?) yo'q. (Qanaqa qilib yeydi?). Buni pichoq bilan qirqib yeydi. (Mazasi qanaqa?) Yo'q, man yemiyman, bolalar obkeluvdi.(sizga yoqmadimi?). Bunaqalani yemiyman, yomon ko'raman. Nordon. Puli ham qimmat ekan bozorda. Yangi yilda obkelishuvdi.*

Kenguru: *bu... otini bilomiy turibman... kinosiyam boriydi. (bizdayam yashaydimi) yo'q, (qaysi davlatda) chet davlatda. Bolasini oldiga solib yuradi. Tilimni uchida turibdi, etolmiy turibman.*

Kenguru va ananas so'zlari o'zbek tilida chastotasi past so'zlardir. Demak, bemorning leksikonida chastotasi past so'zlarning neyrokognitiv mexanizmiga zarar yetgan.

Og'zaki va yozma nutq ifodasida qaysi turdagi til birligi (harf yo tovush) vosita bo'layotgani ahamiyatli ekanligini B.Rapp va A. Karamatsaning quyidagi tadqiqoti aniq ko'rsatib bergan. Ular kuzatgan PV nomli bemor rasmni yozma va og'zaki nomlashda ikki xil natija ko'rsatganligini qayd etganlar (Rapp, Caramazza 1997). Jumladan, bemorga cho'tkaning rasmi ko'rsatilganida bemor yozma javobda "cho'tka" deb yozgan bo'lsa-da, og'zaki javobda "taroq" degan. Shuningdek, piyoz rasmi ko'rsatilganda yozma "piyoz", og'zaki "banan", boyo'g'li rasmi ko'rsatilganda yozma "boyo'g'li" og'zaki "toshbaqa" javoblarini bergan. Mazkur bemor og'zaki to'g'ri, yozma xato javob bergan holatlar hamda ham yozma, ham og'zaki xato javob bergan holatlar kuzatilgan. Masalan, yostiq rasmi ko'rsatilganda yozma "krovat", og'zaki "yostiq", til rasmi ko'rsatilganda yozma "tish", og'zaki "til" deya javob bergan. Pichoq rasmi ko'rsatilganda esa yozma "qoshiq", og'zaki "sanchqi" javobini bergan.

Ko'rinib turibdiki, xato javoblar tasodifiy so'zdan iborat emas,

balki aytilishi kerak bo'lgan so'z bilan bir semantik guruhga mansub. Bemorning mazkur ko'rsatkichi rasm orqali semantikaga borish yo'li sog'lom, ammo semantikadan og'zaki yo yozma nutqqa chiqish yo'li zararlanganini bildiradi. O'z o'rnida bu inson tilni tushunishi va gapirishi bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, nisbatan mustaqil bo'lgan alohida tizimlarni tashkil etishini isbotlaydi. Gap bu yerda og'zaki nutq va yozma nutqni ifodalovchi neyrokognitiv mexanizmlar farqli ekanidadir.

Aynan yuqorida tilga olingan kabi holatlar miyadagi til mexanizmida to'rt leksikonni ajratishga sabab bo'lgan. Bu leksikonlar insonning umri davomida tilni o'zlashtirishi, qo'llashi bilan bog'liq ravishda shakllanib, takomillashib boradi. Mazkur leksikonlar audio-kirish leksikoni, vizual kirish leksikoni, fonemik chiqish leksikoni va grafemik chiqish leksikonidan iborat bo'lib, ularning barchasi bir semantik tizimga birlashadi (Ellis, Young 1988). Mazkur leksikonlarning shakllanishi insonning til bilan ishlash jarayoni fiziologik jihatdan to'rt xil amal bajarishi hisobiga ro'y berishi bilan bog'liqdir. Inson og'zaki nutqni eshitganda havodagi turli chastotali to'lqinlarni quloq pardasi orqali qabul qiladi. Bu to'lqinlar quloq pardasida tebranishlarni yuzaga keltiradi. Mazkur tebranishlar ichki quloqqa uzatiladi, unda impulsarga aylantirilib, miyaning chakka qismiga uzatiladi. Yozma nutq esa ko'z orqali qabul qilinadi, miyaning vizual signallari qayta ishlovchi markazida so'zlar tanib olinadi. Og'zaki nutqda biz nutq apparatidagi a'zolari ishlatsak, yozma nutqda qo'l va barmoqlarimizni ishlatamiz. Ular esa miyaning boshqa-boshqa qismlari orqali boshqariladi.

*Afaziya grammatik tizimga oid buzilishlar.* So'z yuritish lozim bo'lgan dastlabki holat bu so'z turkumi, aniqroq aytilsa, ot va fe'llarning ifodalanishidir. J.Xolms, J.Marshall va F.Nyukomblar disleksiyasi bor bemorning ot turkumiga oid so'zlarni fe'l turkumiga oid so'zlarga nisbatan yaxshiroq o'qiganligiga e'tibor qaratganlar (Holmes, Marshall, and Newcombe 1971). Bu tadqiqot ot va fe'l turkumlarining ifodalanishida farq mavjudligi tilning boshqa turdagi voqelanishlarida ham tadqiq qilinishiga sabab bo'lgan. Xususan, B.Rapp va A.Karamatsa kuzatgan bir afazik bemor diktant yozganida otlarni fe'llarga nisbatan yaxshiroq yozgan (Rapp & Caramazza 1998). Shuningdek, mazkur hodisa rasmdagi narsaning nomini og'zaki va yozma ifodalashda kuzatilgan (Zingeser & Berndt, 1990; Caramazza & Hillis 1991). R.Bastiansi va R.Jonkers niderland tilida so'zlashuvchi afazik bemorlarning spontan nutqida otlarning qo'llanishi fe'llarga nisbatan ancha yaxshi ekanligini qayd etganlar (Bas-

tiaanse, Jonkers 1998).

Fe'llarning afaziyaga chalingan kishilar uchun qiyinchilik tug'dirishi fe'llarning lisoniy xususiyatlari, jumladan, argument strukturasi (ya'ni fe'lning nechta argument olishi), o'timli-o'timsizligi, otdan yasalgan-yasalmaganligi bilan ham bog'liqligi tajribaviy tadqiqotlarda isbotlangan. Masalan, fe'l kamroq argument olsa, uni qo'llash afazik bemor uchun osonroq kechadi, ikki yoki undan ortiq argumentli fe'llar afaziklar uchun qiyin bo'ladi (Thompson 2003). Bastiansi va Yonkers o'z tajribalarida afaziklar harakatni nomlash topshirig'ini bajarishda fe'lning o'timli-o'timsizligi natijaga ta'sir qilganini kuzatishgan (Jonkers & Bastiaanse 1996). Bemorlar o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga nisbatan tezroq ayta olganlar. Bastiansi va van Zonneveld gap aytish topshirig'ida ham o'timli, ham o'timsiz bo'la oladigan fe'llar (Pete breaks the glass – Pit stakanni sindiradi, the glass breaks – stakan sinadi kabi) qo'llaganda agrammatik afaziklar uchun fe'l o'timli bo'lgan kontekstda gapni osonroq ayta olganlarini qayd etganlar. Olimlar buni o'timsiz fe'llarning argumentlar soni kam bo'lsa-da, argument strukturasi murakkabligi bilan izohlashgan. Xususan, o'timsiz fe'llarda harakat subyekti ham, obyekt ham bitta predmet ekanligi afaziklar uchun qiyinchilik tug'diradi, deb xulosa qilganlar (Bastiaanse & van Zonneveld 2005).

R.Bastiansi va R.Yonkers o'z tadqiqotlari davomida fe'lning biror asbob bilan bog'liqligi (instrumentality) anomik afaziyaga chalingan kishilar uchun muhim ekanligini kuzatganlar. Harakat ifodalangan rasmlarni nomlashda anomik afaziyaga chalingan tajriba ishtirokchilari asbob nomi bilan bog'liq fe'llarni (masalan, arralamoq, dazmollamoq) asbob nomi bilan bog'liq bo'lmagan fe'llarga nisbatan (masalan, yurmoq, o'qimoq) osonroq ayta olganlar. Ammo bu holat afaziyaning agrammatik turiga chalingan ishtirokchilarda kuzatilmagan (Jonkers & Bastiaanse 1996). Anomik afaziyaga chalinganlar uchun fe'llarning ot turkumidagi so'z bilan aloqador ekanligi fe'llar bilan bog'liq nutqiy jarayonlarni osonlashtirgan. Agrammatik afaziyaga chalingan kishilarda asosiy lisoniy yetishmovchilik fe'llar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularga mazkur holat yordam bermagan.

Fe'llarning tushunilishi bo'yicha o'tkazilgan tajribada esa agrammatik afaziyaga chalingan ishtirokchilar asbob bilan bajariladigan, ammo asbob nomi bilan bog'liq bo'lmagan fe'llarni nisbatan yaxshiroq tushunganlar (Jonkers & Bastiaanse 2006). Masalan, tuyish, kesish kabi fe'llar hovoncha, pichoq yo qaychi kabi asboblar yordamida amalga oshiriladigan harakatlarni ifodalaydi, biroq ular-

da arralash fe'lidagi kabi asbob nomi bilan bevosita bog'liqlik yo'q. R.Yonkers va R.Bastiaansi tadqiqotida arralash kabi fe'llar anomik afaziya va Vernike afaziyasiga chalinganlar uchun tushunish eng qiyin fe'llar ekanligi aniqlangan. Mazkur holatlar insonning boshqa kognitiv faoliyatlarining tilni qo'llashdagi bevosita ta'sirini aks ettiradi, deyish mumkin. Xususan, agrammatik afaziklarda asbob bilan bajariladigan fe'llarda ongda asbob haqidagi tushunchaning faollashishi fe'lining faollashishiga ham yordam bergan. Anomik va Vernike afaziyasiga chalinganlarda esa arralash kabi ot bilan bog'liq fe'llarda arra otining faollashishi arralash fe'lining faollashishiga xalal bergan.

O'zbek tilidagi broka afaziyasida rasmga qarab haratning nomi aytish orqali fe'llarning ifodalanishi tadqiq qilinganida fe'llarga oid ma'lum grammatik kategoriyaning ta'siri kuzatimagan. Qiyinchilik asosan bir argumentli fe'llarda bo'lgan, biroq ularning hammasida ham emas. Tajribada 16ta bir argumentli fe'l qo'llangan bo'lsa, ulardan 6tasini aytish afaziklar uchun qiyinlik qilgan: aksirish, yo'talish, chapak chalish, esnash, yo'talish, sho'ng'ish, yig'lash. Boshqa bir argumentli fe'llar - uxlash, yugurish, kulish, sakrash, cho'milish, o'tirish, kuylash kabi fe'llarni afaziyaga chalingan ishtirokchilar yuz foiz to'g'ri ayta olganlar (Azimova, 2020 31-36).

Garchi ot va fe'l dissotsiatsiyasi o'zbek tilidagi broka afaziyasiga oid spontan nutqda kuzatilmagan bo'lsa-da, fe'llar bilan bog'liq qiyinchilik bog'lama, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, fe'lining funksional shakllarini qo'llashda namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda bog'lamaning qo'llanishi izdan chiqqan bo'lib, uning asosida qanday neyrokognitiv nuqson yotganini aniqlash uchun qo'shimcha tajribalar zarur. Fe'ning funksional shakllaridan ravishdosh va sifatdoshning qo'llanish mexanizmi izdan chiqqan bo'lib, buni ravishdosh shaklining gapda qo'llanishi baravar ikkita fe'lni ifodalashni taqozo qilishi, sifatdoshning gapda qo'llanishi esa uning semantik va grammatik xususiyatlari bir vaqtning o'zida uchta so'z turkumi – fe'l, ot, sifat so'z turkumlariga oidligi bilan izohlash mumkin (Azimova 2023, 41-61).

Grammatik tizim borasidagi buzilishlar haqida so'z ketar ekan, sintaktik strukturalar haqida to'xtalmay bo'lmaydi. Afaziyadagi spontan nutq ingliz, niderland, italyan, nemis, suaxili kabi qator tillarda tahlil qilingan (Abuom, Bastiaanse 2012; Bastiaanse, Jonkers 1998; Crepaldi, Ingignoli, Verga, Contardi, Semenza, & Luzzatti 2011; Rossi, Bastiaanse 2008). Ushbu tadqiqotlar turli tillardagi afaziyadagi spontan nutqning umumiy jihatlari bilan birga xususiy, tilning

strukturasiga bog'liq bo'lgan jihatlarini ham qayd etganlar. L.Menn va L.Obler yozishicha, morfologik jihatdan sodda tillarda so'z oxiridagi qo'shimchalarning tushirib qoldirilishi kuzatilsa, morfologik jihatdan murakkabroq tillarda qo'shimchalar tushirib qoldirilmay, o'rniga boshqasi ishlatilishini ko'rish mumkin. Bunda qo'shimchasiz o'zak mustaqil ma'no anglati olishi ahamiyatga ega (Menn, Obler 1990). Broka afaziyasidagi asosiy belgilardan biri bu nutqda grammatik vositalarning tushirib qoldirilishidir. Buni o'zbek tilidan olingan quyidagi misolda ko'rish mumkin:

*O'qshi...i. til, til, til...angliysikiy, nemetskiy, fransuz, arab...*

*Dunyo shu. Dunyo... Amerika bo'ldim, Yegipet bo'ldim, Yamanda bo'ldim, Turk bo'ldim, yigirma besh, yigirma besh... Indiya bo'ldim, Angliya bo'ldim, Germaniya bo'ldim, Shveysariya bo'ldim, Fransiya bo'ldim, shu. Maskov besh yil ... yashadim, yashadim.*

*Ustoz ustoz ustoz xorij men direktor...*

Mazkur misolda birinchi gapning kesimi, keyingi gaplarda kelishik qo'shimchalari, oxirgi gapda bog'lama va kesim tushirib qoldirilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu xatolar gaplarning sintaktik tuzilishiga putur yetkazadi (ushbu nutq yozib olingan tajriba haqida qarang; Azimova 2023). O'zbek tilidagi broka afaziyasiga oid spontan nutq tadqiq qilinganda undagi grammatik jihatdan xato gaplar umumiy hisobda 35%ni tashkil etgan va bu sog'lom kishilarning spontan nutqidagi holatdan 17 baravar ortiq demakdir (Azimova 2023a). Bu xatolar, asosan, fe'ning tushirib qoldirilishi, kelishik qo'shimchalarining tushirib qoldirilishi hamda kamdan-kam holatda vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi otning tushirib qoldirilishi bilan bog'liq. O'zbek tili morfologik jihatdan boy til bo'lishiga qaramay, unda Menn va Oblerning tadqiqotida aytilgani kabi qo'shimchani almashtirish kuzatilmaydi. O'zbek tilidagi broka afaziyasida gap tuzilishidagi nuqsonlarni umumiy holatda afaziyada tilga oid jarayonlar uchun zarur resurslar cheklangani bilan izohlash mumkin. Albatta, unga oid tafsilotlarni aniqlash kelgusi tadqiqotlarning vazifasi bo'lib qoladi.

### **Xulosa**

Biz ushbu maqolada afaziyaning tilshunoslik tomonidan o'rganilishi muhimligini asoslashga harakat qildik. Shu maqsadda afaziyani o'rganishning qisqacha tarixi, uning tasniflari va zamonaviy tadqiqotlarning natijalariga, shuningdek, o'zbek tili misolidagi boshlang'ich tadqiqotlarga qisqacha to'xtaldik. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, neyrolingvistika bugungi kunda tilshunoslikning eng rivojlangan yo'nalishlaridan biridir va bu bejiz emas. Til

hodisalarini ularning asosi bo'lgan inson miyasidagi neyrokognitiv mexanizmlar bilan tushuntirishga urinar ekan, til tizimiga oid asosli ma'lumotlarni bera oladi.

Neyrolingvistik tadqiqotlar eng ko'p ingliz, olmon, niderland, fransuz kabi tillar misolida keng o'rganilgan. Til hodisalarini bir oilaga mansub tillar misolida o'rganish ma'lum neyrolingvistik gipotezalarning bir yoqlama bo'lib qolishiga sabab bo'lgan. Shu sabab o'zbek tilidagi neyrolingvistik tadqiqotlar nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki xalqaro miqyosdagi neyrolingvistika uchun muhimdir. Shu vaqtgacha o'zbek tili misolida olib borilgan tadqiqotlar o'zbek tilidagi broka afaziyasida ot va fe'l dissotsiatsiyasi yo'qligini, spontan nutqda fe'llarning tuslangan shakli nuqsonsiz qo'llanishini, fe'llarning o'tgan zamonida ko'plab tillarda kuzatilgan yetishmovchilik yo'qligini ko'rsatgan. Ushbu natijalar neyrolingvistikaning umumiy nazariyalarini boyitadi. o'zbek tilshunosligi uchun esa o'zbek tilining tabiatini yanada yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

- Abuom, T. O., & Bastiaanse, R. (2012). Characteristics of Swahili-English bilingual agrammatic spontaneous speech and the consequences for understanding agrammatic aphasia, *Journal of Neurolinguistics*, doi:10.1016/j.jneuroling.2012.02.003.
- Ahlsen, E. (2006). Introduction to Neurolinguistics. Guteborg University.
- Azimova I. (2020). O'zbek tilidagi agrammatik afaziyada ot va fe'llarning ifodalanishi. So'z san'ati. #1. 31-36. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1-4>.
- Azimova, I. (2023). "O'zbek tilidagi Broka afaziyasiga xos spontan nutqda ot va fe'llarning qo'llanishi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2023-3: 41-60.
- Azimova I. (2023a). O'zbek tilidagi broka afaziyasida gap shakllari. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2023. B.50-55.
- Bastiaanse, R. & Jonkers, R. (1998). Verb retrieval in action naming and spontaneous speech in agrammatic and anomie aphasia. *Aphasiology*, 12, 951-969.
- Bastiaanse, R., & van Zonneveld, R. (2005). Sentence production with verbs of alternating transitivity in agrammatic Broca's aphasia. *Journal of Neurolinguistics*, 18, 57-66.
- Bird, H., Howard, D., & Franklin, S. (2001). Noun-Verb Differences? A Question of Semantics: A Response to Shapiro and Caramazza. *Brain and Language*, 76, 213-222.
- Burchert, F., Swoboda-Moll, M., & De Bleser, R. (2005). Tense and Agreement dissociations in German agrammatic speakers: Under-specification vs. hierarchy. *Brain and Language*, 94, 188-199.

- Capitani, E., Laiacona, M., Mahon, B., & Caramazza, A. (2003). What are the facts of semantic category-specific deficits? A critical review of the clinical evidence. *Cognitive Neuropsychology*, 20, 213-261.
- Caplan D., Waters G., Kennedy D., Alpert N., Makris N., Dede G., Michaud J., Reddy A. (2007). A study of syntactic processing in aphasia II: neurological aspects. *Brain Lang.* 101, 151-177.10.1016/j.bandl.2006.06.226;
- Caramazza, A., & Hillis, A. (1991). Lexical organization of nouns and verbs in the brain. *Nature*, 349.
- Crepaldi, D., Ingnoli, C., Verga, R., Contardi, A., Semenza, C., & Luzzatti, C. (2011). On nouns, verbs, lexemes, and lemmas: evidence from the spontaneous speech of seven aphasic patients. *Aphasiology*, 25.
- Dell, G. S. (1986). A spreading-activation theory of retrieval in sentence production. *Psychological Review*, 93, 283-321; Goldrick, M., & Rapp, B. (2007). Lexical and post-lexical phonological representations in spoken production. *Cognition*, 102.
- Dickey, M.W., Choy, J.W.J., Thompson, C.K. (2007) Real-time comprehension of wh-movement in aphasia: Evidence from eyetracking while listening. *Brain and Language*. 100, 1.
- Dragoy, O. and Bastiaanse, R. (2013.) Aspects of time: Time reference and aspect production in Russian aphasic speakers. *Journal of Neurolinguistics* 26.
- Duman, T.Y., & Bastiaanse, R. (2009). Time reference through verb inflection in Turkish agrammatic aphasia. *Brain & Language*, 108.
- Ellis, A. W. & Young, A. W. (1988) *Human cognitive neuropsychology*. – London: Erlbaum.
- Friedmann, N. & Grodzinsky, Y. (1997). Tense and agreement in agrammatic production: Pruning the syntactic tree. *Brain and Language*, 56.
- Goodglass, H. (1968). Studies in the grammar of aphasics. In S. Rosenberg & J. Koplín (eds.), *Developments in Applied Psycholinguistic Research* (pp. 177-208). – New York: Macmillan.
- Goodglass, H., & Hunt, J. (1958). Grammatical complexity and aphasic speech. *Word*, 14, 197-207; Goodglass, H. (1968). Studies on the grammar of aphasics. In S. Rosenberg & J. Koplín (Eds.), *Developments in applied psycholinguistics research* (pp. 177-208). – New York: Macmillan.
- Goodglass, H., & Kaplan, E. (1972). *The assessment of aphasia and related disorders*. Philadelphia: Lea & Febiger.
- Grodzinsky Y. (1995). A restrictive theory of trace deletion in agrammatism. *Brain and Language*, 50.
- Hart, J., Berndt, R.S., & Caramazza, A. (1985). Category-specific naming deficit following cerebral infarction. *Nature*, 316.
- Holmes, J. M., Marshall, J. C., & Newcombe, F. (1971). Syntactic class as a determinant of word-retrieval in normal and dyslexic subjects. *Nature*, 234, 418.
- Luzzatti, C., Toraldo, A., Guasti, MT., Ghirardi, G., Lorenzi, L., & Guarnaschel-

- li, C. (2001). Comprehension of reversible active and passive sentences in agrammatism. *Aphasiology*, 15.
- Menn, L., & Obler, L. (1990). Cross-language data and theories of agrammatism. In L. Menn, & L. K. Obler (Eds.), *Agrammatic aphasia: A cross-language narrative sourcebook*, Vol. 2 (pp. 1369–1389). Amsterdam: John Benjamins.
- Nanousi, V., Masterson, J., Druks, J., & Atkinson, M. (2006). Interpretable vs. Uninterpretable features: Evidence from six Greek-speaking agrammatic patients. *Journal of Neurolinguistics*, 19.
- Penfield, W., & Roberts, L. (1959). *Speech and Brain Mechanisms*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
- Rapp, B. C., & Caramazza, A. (1997). The modality specific organizations of lexical categories. *Brain and Language*, 56, 246-286.
- Rapp, B., & Caramazza, A. (1998). A case of selective difficulty in writing verbs. *Neurocase*, 4.
- Rossi, E., & Bastiaanse, R. (2008). Spontaneous speech in Italian agrammatic aphasia: a focus on verb production. *Aphasiology*, 22.
- Sheppard, Sh.M., Sebastian, R. (2021). Diagnosing and managing post-stroke aphasia. *Expert Rev Neurother*. 2021 Feb; 21(2): doi: 10.1080/14737175.2020.1855976.
- Tesak J. & Code C. (2008). Milestones in the history of aphasia. Theories and protagonists.
- Thompson, C.K. (2003). Unaccusative verb production in agrammatic aphasia: the argument structure complexity hypothesis. *Journal of Neurolinguistics* 16 .
- Zingeser, L. B., & Berndt, R. S. (1990). Retrieval of nouns and verbs in agrammatism and anomia. *Brain and Language*, 39.
- Лурия А.П. (1979). Мозг и психика человека. – М.
- Лурия А.П. (1974). Об историческом развитии познавательных процессов. – М.
- Лурия А.П. (1975). Основные проблемы нейролингвистики. – М.
- Лурия А.П. (1979). Язык и сознание. М.

# On the contribution of studies in aphasia to linguistics

Iroda Azimova<sup>1</sup>

## Abstract

This article tries to answer the question of what is the importance of studying aphasia in linguistics. The introduction of the article gives brief information about the definition of aphasia, the history of its study, and modern neurolinguistic hypotheses. The main part of the article deals with the classification of aphasia, studies of lexical impairments, and studies of grammatical system impairments. Three classifications of aphasia are discussed: Wernicke's classification, Luria's classification, and Boston's classification. Some examples of lexical impairments in western languages are provided and the examples from research in Uzbek aphasia discussed. In the section of grammatical impairments we talked about the impact of word class and ungrammaticality of the sentences giving examples from both cross-linguistic studies and studies in Uzbek.

**Key words:** *aphasia, neurolinguistics, Broca's aphasia, classification of aphasia, spontaneous speech, agrammatism, Uzbek language.*

## References

- Abuom, T. O., & Bastiaanse, R., Characteristics of Swahili–English bilingual agrammatic spontaneous speech and the consequences for understanding agrammatic aphasia, *Journal of Neurolinguistics* (2012), doi:10.1016/j.jneuroling.2012.02.003.
- Ahlsen, E. Introduction to Neurolinguistics. Guteborg University. 2006.
- Azimova I.(2020) Noun and verb production in uzbek non-fluent aphasia. Vol. 3 No. 1 (2020): International journal of word art. P.31-36. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1-4>
- Azimova, I.A. "Production of nouns and verbs in spontaneous speech in Uzbek Broca's aphasia". Uzbekistan: language and culture. *Linguistics*. 2023-3: 41-60.
- Azimova I. (2023a). Production of sentence structures in broca's aphasia in uzbek. In "Development of the Uzbek language and issues of international cooperation" Materials of international scientific-practical conference. Responsible editor: Sh. Sirojiddinov.

---

<sup>1</sup> *Iroda A. Azimova* – Candidate of philological sciences, associate professor. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** azimova\_iroda@navoiy-uni.uz.

**ORCID:** 0000-0002-4081-7651.

**For reference:** Azimova I. On the contribution of studies in aphasia to linguistics. Uzbekistan: language and culture. *Linguistics*. 2024-1: 35-52.

–Tashkent, 2023. P. 50-55.

- Bastiaanse, R. & Jonkers, R. (1998) Verb retrieval in action naming and spontaneous speech in agrammatic and anomia aphasia. *Aphasiology*, 12, 951-969.
- Bastiaanse, R., & van Zonneveld, R. (2005). Sentence production with verbs of alternating transitivity in agrammatic Broca's aphasia. *Journal of Neurolinguistics*, 18, 57-66.
- Bird, H., Howard, D., & Franklin, S. (2001). Noun-Verb Differences? A Question of Semantics: A Response to Shapiro and Caramazza. *Brain and Language*, 76, 213-222.
- Burchert, F., Swoboda-Moll, M., & De Bleser, R. (2005). Tense and Agreement dissociations in German agrammatic speakers: Under-specification vs. hierarchy. *Brain and Language*, 94, 188-199.
- Capitani, E., Laiacina, M., Mahon, B., & Caramazza, A. (2003). What are the facts of semantic category-specific deficits? A critical review of the clinical evidence. *Cognitive Neuropsychology*, 20, 213-261.
- Caplan D., Waters G., Kennedy D., Alpert N., Makris N., Dede G., Michaud J., Reddy A. (2007). A study of syntactic processing in aphasia II: neurological aspects. *Brain Lang.* 101, 151-177.10.1016/j.bandl.2006.06.226;
- Caramazza, A., & Hillis, A. (1991). Lexical organization of nouns and verbs in the brain. *Nature*, 349, 788-790
- Crepaldi, D., Inghinoli, C., Verga, R., Contardi, A., Semenza, C., & Luzzatti, C. (2011). On nouns, verbs, lexemes, and lemmas: evidence from the spontaneous speech of seven aphasic patients. *Aphasiology*, 25, 71-92.
- Dell, G. S. (1986). A spreading-activation theory of retrieval in sentence production. *Psychological Review*, 93, 283-321; Goldrick, M., & Rapp, B. (2007). Lexical and post-lexical phonological representations in spoken production. *Cognition*, 102, 219-260.
- Dickey, M.W., Choy, J.W.J., Thompson, C.K. (2007) Real-time comprehension of wh-movement in aphasia: Evidence from eyetracking while listening. *Brain and Language*. 100, 1, 1-22
- Dragoy, O. and Bastiaanse, R. (2013.) Aspects of time: Time reference and aspect production in Russian aphasic speakers. *Journal of Neurolinguistics* 26, 113-128.
- Duman, T.Y., & Bastiaanse, R. (2009). Time reference through verb inflection in Turkish agrammatic aphasia. *Brain & Language*, 108, 30-39.
- Ellis, A. W. & Young, A. W. (1988) Human cognitive neuropsychology. London: Erlbaum.
- Friedmann, N. & Grodzinsky, Y. (1997). Tense and agreement in agrammatic production: Pruning the syntactic tree. *Brain and Language*, 56, 397-425.
- Goodglass, H. (1968). Studies in the grammar of aphasics. In S. Rosenberg & J. Koplin (eds.), *Developments in Applied Psycholinguistic Research* (pp. 177-208). New York: Macmillan.
- Goodglass, H., & Hunt, J. (1958). Grammatical complexity and aphasic

- speech. *Word*, 14, 197–207; Goodglass, H. (1968). Studies on the grammar of aphasics. In S. Rosenberg & J. Koplin (Eds.), *Developments in applied psycholinguistics research* (pp. 177–208). New York: Macmillan;
- Goodglass, H., & Kaplan, E. (1972). *The assessment of aphasia and related disorders*. Philadelphia: Lea & Febiger.
- Grodzinsky Y. (1995). A restrictive theory of trace deletion in agrammatism. *Brain and Language*, 50, 27–51.
- Hart, J., Berndt, R.S., & Caramazza, A. (1985). Category-specific naming deficit following cerebral infarction. *Nature*, 316, 439–440.
- Holmes, J. M., Marshall, J. C., & Newcombe, F. (1971). Syntactic class as a determinant of word-retrieval in normal and dyslexic subjects. *Nature*, 234, 418.
- Luzzatti, C., Toraldo, A., Guasti, MT., Ghirardi, G., Lorenzi, L., & Guarnaschelli, C. (2001). Comprehension of reversible active and passive sentences in agrammatism. *Aphasiology*, 15, 419–441.
- Menn, L., & Obler, L. (1990). Cross-language data and theories of agrammatism. In L. Menn, & L. K. Obler (Eds.), *Agrammatic aphasia: A cross-language narrative sourcebook*, Vol. 2 (pp. 1369–1389). Amsterdam: John Benjamins
- Nanousi, V., Masterson, J., Druks, J., & Atkinson, M. (2006). Interpretable vs. Uninterpretable features: Evidence from six Greek-speaking agrammatic patients. *Journal of Neurolinguistics*, 19, 209–238.
- Penfield, W., & Roberts, L. (1959). *Speech and Brain Mechanisms*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
- Rapp, B. C., & Caramazza, A. (1997). The modality specific organizations of lexical categories. *Brain and Language*, 56, 246–286.
- Rapp, B., & Caramazza, A. (1998). A case of selective difficulty in writing verbs. *Neurocase*, 4, 127–140.
- Rossi, E., & Bastiaanse, R. (2008). Spontaneous speech in Italian agrammatic aphasia: a focus on verb production. *Aphasiology*, 22, 347–362.
- Sheppard, Sh.M., Sebastian, R. (2021). Diagnosing and managing post-stroke aphasia. *Expert Rev Neurother*. 2021 Feb; 21(2): 221–234 doi: [10.1080/14737175.2020.1855976](https://doi.org/10.1080/14737175.2020.1855976)
- Tesak J. & Code C. Milestones in the history of aphasia. Theories and protagonists. 2008, P. 153.
- Thompson, C.K. (2003). Unaccusative verb production in agrammatic aphasia: the argument structure complexity hypothesis. *Journal of Neurolinguistics* 16 151–167.
- Zingeser, L. B., & Berndt, R. S. (1990). Retrieval of nouns and verbs in agrammatism and anomia. *Brain and Language*, 39, 14–32.
- Luria, A.R. (1979). *Human brain and psyche*. Moscow.
- Luria, A.R. (1974). *On the historical development of cognitive processes*. Moscow.
- Luria, A.R. (1975). *Basic problems of neurolinguistics*. Moscow.
- Luria, A.R. (1979). *Language and consciousness*. Moscow.

## Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar

Muhabbat Madaminova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada pragmalingvistika turli sathlarga oid til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi tadqiqiga yangicha yondashuv zaruriyatini keltirib chiqarishi hamda kommunikantlar nutqiy muloqot jarayonida bir-birlarini anglashda o'z ongidagi umumiy bilimlar tizimidan voqelikka xos xususiy belgilarni tanlashii va ular orqali kommunikativ niyatiga erishishi, so'z birikmasi so'zning sintaktik valentligi asosida yuzaga kelgan nominativ sintaktik birlik, grammatik jihatdan lisoniy qolipga va semantik ma'noga ega sintaktik qurilma hisoblanishi, so'z birikmasi mustaqil kommunikativ birlik emas, lekin gap tarkibiga kirishi va kommunikativ o'zgarishlarga sabab bo'lishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sintaktik qurilma, gap, grammatik shakl, lisonoy sath, shakl, mazmun, til, nutq, belgi, pragmatika.

### Kirish

Gap kishilar orasidagi asosiy muloqot vositasi kommunikativ nutqiy butunlik sifatida axborot almashinuv jarayonida sintaktik qurilma shaklida namoyon bo'ladi. Insonlar o'zaro fikr almashish, bayon qilish va anglashda gapdan foydalanadilar. Muayyan tilning virtual bazasi nutqiy gap (jumla)larda aktuallashadi. Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash, bayon qilish, tinglovchi uchun esa uzatilayotgan ma'lumotni qabul qilish, fikr anglash vositasidir. "... gap inson nutqining nisbiy tugal fikrni ifodalaydigan voqelikni aks ettiradigan va shunga munosabatni bildiradigan, grammatik jihatdan shakllangan eng kichik bo'lagidir. U ham fikriy, ham grammatik jihatdan bir butunlikka egadir" (G'ulomov 1955, 9).

Tilshunoslik fanining keyingi yuz yillik davrida jahon miqyosidagi taraqqiyoti natijasida gapning ifoda, mazmun va ma'no qatlamlariga ega sintaktik yaxlitlik sifatidagi mavqei borasidagi serqirra paradigmatic tadqiq doirasi shakllandi va shu asosda matn

<sup>1</sup> Madaminova Muhabbat Sotvoldiyevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. E-pochta: muhabbat\_madaminova@mail.ru.

Iqtibos uchun: Muhabbat Madaminova. Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar. O'zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*. 2024-1: 53-68.

tarkibidagi imkoniyatlari o'rganila boshlandi.

“Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo'ladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobig'i, bu uni tashkil etuvchi so'z va grammatik shakllar. Masalan, aksariyat gapda kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (kesim)ning bo'lishi shart. Ikkinchi jihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr – axborot. Uchinchi jihat esa so'zlovchining voqelikka munosabati, nutq vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni – sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi” (Sayfullayeva 2009, 306).

Antroposentrik tamoyillar negizida “gap lisoniy sathda” va “gap nutqiy sathda” tushunchalari ajratila boshlandi. Mana shu tamoyil asosida “O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis” va “O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi” darslik va qo'llanmalari yaratildi (Qurbonova, Sayfullayeva va b. 2004, 48; Sayfullayeva, Mengliyev, Boqiyeva va b. 2009, 416).

“Ifoda maqsadiga ko'ra gapning turlanishi sof nutqiy hodisa. So'zlovchi nutq jarayonida fikr ifodalash bilan birga, ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi ham” (Sayfullayeva, Mengliyev 2009, 359). Shu tariqa, gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq va istak gaplarga bo'linadi.

Fikrimizcha, Sh.Rahmatullayev ifoda maqsadiga ko'ra bo'linish nutqiy hodisa ekanligini nazarda tutgan holda bu turlarga nisbatan gap emas, jumla atamasini qo'llaydi: “Jumlalarning ifoda maqsadiga ko'ra ma'no turlari ifodalanayotgan axborot, so'roq, buyruq kabi umumiy grammatik ma'nolar asosida ajratiladi” (Rahmatullayev 2006, 387).

Har qanday gapda nutq egasining kommunikativ maqsadi aks etar ekan, nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan gap turlarining har biri pragmatik tahlilga muhtoj bo'ladi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ko'proq gapning mazmuniy jihati va ana shu mazmuni yuzaga chiqaruvchi omillarga e'tibor qaratila boshlandi. Bu esa lingvistik nazariya rivojiga turtki berib, kontekstning mazmuniy doirasida inson omili, sintaktik qurilma ifodasi va jumla mazmuni o'rtasidagi mantiqiy muvofiqlik/nomuvofiqlik muammosi masalasi o'rtaga qo'yildi. Shu tariqa, shakl va mazmun munosabatini o'rganishning “yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning ma'no tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus ma'nosi bo'lgan til belgisi sifatida qarashning vujudga kelishi hamda

gaplarning mazmuniy ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi" (Mahmudov; Nurmonov 1992, 26) davri boshlandi.

Darak gaplar

Ma'lum voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar beruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. Darak gaplar uslubiy jihatdan neytral bo'lib, barcha uslublarda ifoda maqsadining asosiy turi sifatida faol qo'llanadi.

Darak gaplar darak-xabar birlashtiruvchi semasi bilan mazmuniy bir butunlikni hosil qilsa ham, lekin bu butunlik o'zaro farqlanuvchi bir necha semalarni o'z ichiga birlashtiradi. N.Mahmudov va A.Nurmonovlar darak gap mazmunini quyidagi semik variantlar orqali namoyon bo'ladi deb hisoblaydilar:

- 1) xabar semasi: *Toshkentda Xalqaro kinofestival ish boshladi.*
- 2) orzu-umid semasi: *Bu yil o'g'limni uylantirmoqchiman;*
- 3) ishonch semasi: *Akam yordam beradi;*
- 4) maslahat semasi: *Avval davolanib olishingizni maslahat beraman;*
- 5) istak semasi: *Filolog bo'lishingni xohlayman;*
- 6) tashviq semasi: *To'garagimiz sizga yoqadi;*
- 7) mavjudlik semasi: *Anhorda suv to'lib oqmoqda;*
- 8) atash semasi: *Bular bari seniki;*
- 9) ko'rsatish, ishora (deyktik) semasi: *Maktabimiz – shu va boshqalar* (Mahmudov, Nurmonov 1995, 28).

Bizningcha, ushbu tasnifdagi orzu-umid (2) va istak (5) semalari istak gaplar turiga kiritilishi kerak edi. Bu holat darak va istak gaplar mantiqan bir-biriga yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Darak gapda, odatda, muayyan so'z tartibiga rioya qilinsa-da, uslubiy talab bilan gap bo'laklarining o'rni almashishi (inversiya) yoki tushirib qoldirilishi (ellipsis) mumkin.

A.G'ulomov va M.Asqarova darak gaplarda intonasion va sintaktik belgilar kuchli ekanligini alohida ta'kidlaganlar:

1. Gapning bosh qismida ohang ko'tarilib, oxirida pasayadi. Bu darak gap intonatsiyasi deyiladi. Darak gaplar bir-biridan to'la pauza bilan ajralib turadi.

2. Gap bo'laklari, odatda, normal tartibda o'rinlashgan bo'ladi.

3. Darak gapning kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanmaydi, so'roq, undov va buyruq belgilaridan holi bo'ladi.

4. Darak gaplar, albatta, tasdiq yoki inkor shaklida bo'ladi (G'ulomov; Asqarova 1965, 54-61).

So'roq gaplar

So'zlovchining o'ziga noma'lum bo'lgan biror narsa, voqea-hodisa haqida ma'lumot olish istagini, zaruriyatini ifodalovchi gap so'roq gap deyiladi. So'roq gaplar, asosan, dialogik nutqqa xos.

- *Siz marhum Shomatov Rustamning xotini ekanligingizni tasdiqlaysizmi?*

- *Hozir turgan uylaringga qachon ko'chib kelgansizlar?*

- *Sentyabrning oxirida.*

- *Ungacha qayerda turgansizlar?*

- *Qaynonamnikida. Pskentda.*

- *Hovlinglar kattamidi?*

- *Nima desam ekan... El qatori hovli...*

- *Grajdanka Shomatova, ayting-chi, nima uchun Pskentdagi hovlida turmay, Toshkentga ko'chib keldingizlar? Qaynonangiz bilan orangiz buzildimi?*

- *Oyimlar bilan ahil edik.*

- *Ovsiningiz bilan-chi?*

- *U kishi bilan ham (Hoshimov).*

Xususan, sud-mahkama diskursida aybdor yoki guvohlar bilan suhbat (tergov jarayoni)da ko'rilayotgan masalaning har bir detalini aniqlashtirish maqsadida shu tarzda davomli savol-javob olib boriladi.

*To'yinglar qachon bo'lgan?*

- *Shu yili yozda.*

- *Aniqrog'i?*

- *Sakkizinchi avgust kuni (Hoshimov).*

Bunday hollarda savol kontekstdan ma'lum bo'lgani sababli to'liqsiz so'roq gaplar ham qo'llaniladi.

- *Hoy opa, unaqa dema. Nizom pochchamiz-ku.*

- *Hali shunaqami? Unaqa bo'lsa hu anavi bog'dan shaftoli o'g'irlab kelsang, pochcha qilamiz.*

*Adolat uni jo'rttaga ermak qildi.*

- *Pochchaning yuraklari sal quyonchasigaroq.*

*Nizomjonning jahli chiqib ketdi.*

- *Opchiqolmaymanmi? Opchiqolmaymanmi? Mana ko'rasanlar. U shunday dedi-yu, g'irillagancha bog' tarafga qarab chopdi (Ahmad).*

Diskursiv vaziyat taqozosi bilan hayajonlangan bola so'roq gap shaklida "olib chiqa olaman" mazmuni ifodalangan bir tasdiqlovchi jumlaning takror qo'llanilishi.

Badiiy matnda qahramonlar ruhiyatini ochib berish maqsadida ichki monolog berilgan o'rinlarda so'roq gaplar ketma-ketligi

o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi.

*O'z oyog'i bilan uydan chiqib ketib eri yog'och oyoqqa suyanib kirib keldi. O'g'li nima bo'ladi? Omonmikan? Butun qaytarmikan? Shu uylarda to'y-tomosh bo'larmikan? Bolasini kuyovlik sarposida ko'rarmikan?* (Ahmad). Matndagi so'roq gaplar kimgadir, qandaydir adresatga qaratilmagan bo'lib, onaning sog'inch iztiroblari, o'g'li haqidagi tashvishli o'ylari, orzu-niyatlari o'z-o'ziga so'roq tarzida ifodalangan.

Buyruq gaplar

Buyruq gaplar ham nutq egasining pragmatik maqsadini ifodalashiga ko'ra pragmalingvistikaning o'rganish ob'yekti bo'la oladi. Ma'lumki, buyruq gaplar buyruq, do'q, yalinish, iltimos, maslahat, nasihat kabi ma'nolarni ifodalovchi alohida gap turidir. R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi qo'llanmada buyruq gaplarning 6 xil, G'.Abdurahmonov (Abdurahmonov 1996:18)da o'nga yaqin ma'no turlari ajratiladi. Buyruq gaplarning grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil etilgan bo'lsa-da, ularning semantik-sintaktik stukturasi, pragmatik jihatlari maxsus o'rganilmagan.

Buyruq gapning adresatga yetkazmoqchi bo'lgan axborotining mohiyatiga ko'ra jumlaning semantik mazmuni o'zgaradi. Odatda, duo iboralarida fe'lning buyruq mayli qo'llanadi, lekin mazmunan so'raladi, iltijo qilinadi: *Joynamoz ustida yuziga fotiha tortayotib, baralla tavallo qiladi: - Ey poki parvardigor!.. Yakka-yu yagona bolam haqqi, iltijo qilaman. Otasining gunohidan o't. Mahshar kunida do'zax azobidan o'zing xalos et!* (Hoshimov, 17).

Gaplarni qisqartirish hodisasi, ko'pincha jonli so'zlashuvda, dialoglarda uchraydi. Dialoglar so'roq-javobdan iborat bo'lganda, javob to'liqsiz gapdan iborat bo'lib, unda shu so'roqqa javob bo'luvchi – fikriy jihatdan birinchi o'rinda turuvchi so'zgina aytiladi. Mavjudlik bildiruvchi kesimlar, kesimi buyruq fe'ldan bo'lgan gapdagi egalar ko'pincha yashirinadi (G'ulomov 1965, 87). Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, badiiy uslubda so'zlashuv uslubiga xos ana shu usuldan personajlar nutqida keng foydalaniladi. Xususan, ikkinchi shaxsga qaratilgan buyruq maylidagi fe'l-kesimdan iborat to'liqsiz gaplar, ko'pincha, takror holda qo'llanib, ifodadagi emosionallikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

*- Zararsizlantir! - BTR panasida yotgan kapitan bo'ynini ichiga tortib buyurdi: - Zararsizlantir!* (Hoshimov, 50)

*Torini g'ilofga tiqa boshlagan sozandaning oldiga yugurib bordi.*

*- Chal! - dedi g'ayritabiiy tantana bilan. - Chal deyman! "Lazgi"ni chal!* (Hoshimov, 11)

Birinchi vaziyatda fe'l-kesim yolg'iz takrorlangan bo'lsa, ikkinchi vaziyatda kesim o'z kengaytiruvchilari bilan birga takrorlangan.

### Istak gaplar

Sintaktik sathga oid til birliklari borasidagi nazariy tushunchalarning rivojlanishi natijasida birinchi marta N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)" nomli o'quv qo'llanmasida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari qatorida istak gaplar ham mavjudligi xususida fikr yuritildi. Istak gaplar so'zlovchining istak-xohishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday gaplar so'zlovchining axborot berishi belgisiga ko'ra darak gaplar bilan umumiylikni hosil qiladi. Lekin til sathida o'zining alohida modeli mavjudligi va nutqda konnotativ ma'no ma'lum axborot berish bilan birga, so'zlovchining istagi, xohishining ifodalanishiga ega bo'ladi. Istak gaplar so'zlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida bo'lishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi (Mahmudov; Nurmonov 1995, 31).

Shuni aytib o'tish kerakki, an'anaviy tilshunoslikda istak gaplar ham buyruq gap tarkibida o'rganilgan, tasniflash ham mana shu asosda shakllantirilgan. O.Dadajonova istak gaplar o'z davrida Abdurauf Fitrat tomonidan tilak gaplar sifatida ajratilib, izohlanganini ta'kidlaydi (Dadajonova 2017, 61-65). D.Qo'lboyeva darak, so'roq, buyruq va istak gaplarni farqlashda so'zlovchining ifoda maqsadini namoyish etishga yordam beruvchi bosh mezon semantik tamoyil ekan, istak semasi asosida birlashuvchi barcha gap ko'rinishlarini bir turga – istak gaplarga birlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi (Qo'lboyeva 2013, 131-133).

Pragmalingvistika turli sathlarga oid til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi tadqiqiga yangicha munosabatni talab qilmoqda. Kommunikantlar nutqiy muloqot jarayonida ongli tafakkur orqali bir-birlarini anglaydilar. So'zlovchi nutqiy vaziyatda o'z ongidagi umumiy bilimlar tizimidan voqelikka xos xususiy belgilarni tanlaydi va ular orqali kommunikativ niyatini bayon qiladi.

Nutq adresant maqsadini adresatga tanishtiruvchi asosiy omil sifatida nutqiy ifodani shakllantiruvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) o'rtasidagi muloqot vositasi, ya'ni murakkab va o'ziga xos tashkil etilgan ongli faoliyat shaklidir. Muloqot jarayonidan, albatta, ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Maqsad esa pragmatik omillarning lisoniy hodisalar bilan uyg'unlashuvi natijasida ro'yobga chiqadi. Shu ma'noda "lingvistik pragmatika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutq sub'yektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashi-

rin propozitsiyalarni o'rganadi" (Hakimov 2013, 47).

"...gap tahlilida tor ma'nodagi sintaktik doiradan chiqish va ushbu hodisaning diskursiv-pragmatik tabiatini o'rganish lingvistik tadqiqotlarni yangi pog'onaga olib chiqdi" (Safarov 2016, 48-51). Shu tariqa sintaktik qurilmalarning matn pragmatikasidagi o'rni va rolini tadqiq qilishga ehtiyoj kuchaydi.

Ma'lumki, tarkibida undalma, kirish va kiritmalar, ajratilgan bo'laklar, undovlar qatnashgan gaplar murakkablashgan sodda gaplar hisoblanadi. Bunday gaplar ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashadi. Undalma, kirish va undovlar ifodalagan munosabat gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyat bilan so'zlovchi o'rtasidagi munosabatdir. Bunday munosabat "sub'yektiv munosabatni ifodalaydi" (Mahmudov; Nurmonov 1995, 98).

Murakkablashgan sodda gaplardagi bunday munosabat gapning mazmunini kengaytiradi. Undalmalar undash munosabatini, kirishlar modal munosabatlarni ifodalasa (Mahmudov; Nurmonov 1995, 99), undovlar sezish va ta'sirlanish munosabatini ifodalaydi (Qosimova 2008, 23).

M.Qosimova undovlarni ham sub'yektiv munosabat bildiruvchi introduktiv aloqa (Mahmudov; Nurmonov 1995, 98-99)ga kirishuvchi, ya'ni sintaktik aloqaga kirishmaydigan, faqat mazmuniy tomondan bog'lanadigan birliklar qatorida tadqiq qiladi. A.Nurmonov va A.R.Sayfullayevlarning bu boradagi ishlarida masalaga to'g'ri yondashilganini e'tirof etgan holda, yana bir lisoniy birlik – undovlar e'tibordan chetda qoldirilganini ta'kidlaydi. Bu o'rinda undov so'zlarning undalma tarkibida kelishi nazarda tutilmaydi. Undov so'zlar, ko'pincha, gapda kirish so'zga o'xshash vazifa bajarib, undov bo'lib keladi. Bunday undovlar gap mazmuniga emosional bo'yoq berib, uning pragmatik holatini o'zgartirishi mumkin (Qosimova 2008, 15). Undalmalar o'zining leksik-grammatik tabiati bilan nutqiy vaziyat mazmuniga ta'sir eta oladigan kuchli til birligi hisoblanadi. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi. A.R.Sayfullayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma" risolasida undalmaning umumiy xarakteristikasi, leksik-semantik xususiyati, morfologik-sintaktik ifodalanishi, strukturasi batafsil bayon etiladi, shuningdek, undalmaning gapdagi o'rni, intonatsiyasi, tarixiy taraqqiyoti, uslubiy tabiati, ajratilgan va uyushgan undalmalar haqida ham so'z yuritiladi. Risolaning e'tiborli jihati shundaki, undalma gap bo'laklari – ega, kesim, to'ldiruvchi, hol va aniqlovchining ekvivalenti bo'lib kelishi bilan grammatik xususiyatga ham ega ekanligi ta'kidlanadi (Sayfullayeva 1968, 70-71).

Undalmaning gap ichida mavjudligi, ya'ni sistemaning ajralmas bir uzvi sifatida, A.Sayfullayev va M.Qosimovalarning fikrlarini umumlashtirgan holda undalma, kirish va undovlarni "gapning uchinchi darajali bo'laklari" tarzida tasniflanishi tarafdorimiz.

Undalma gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, lekin so'zlovchining undash munosabatini, tinglovchi sub'yektni, badiiy matnda esa tinglovchi e'tibori qaratilmoqchi bo'lgan predmet va tushunchalarni ham ifodalaydi. Undalmaning qanday ob'yektiv vaziyatni ifodalash maqsadida qo'llanganini esa faqat nutqiy vaziyatning diskursiv mazmuni belgilaydi. Shu jihatdan undalmalar ijobiy, salbiy, neytral qobiqlarda hurmat, erkalash, kesatiq, do'q-po'pisa, qarg'ish, mensimaslik, xushomad kabi qator semalarni ifodalashi mumkin.

Undalmalar og'zaki so'zlashuvda, badiiy va publisistik matnlarda faol qo'llanadi. Ularni qo'llash ekspressivlikni sintaktik usul bilan ifodalash imkoniyatini ham beradi.

M.Yo'ldoshev undalmalarni murojaat birliklari deb ataydi: "Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch, masofa (subordinatsiya), hurmasizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo'ladi. Undalmaning leksik-grammatik xususiyatlaridan biri o'zi ifodalayotgan shaxs yoki predmetni tavsiflashi ham mumkin (Yo'ldoshev 2006, 21).

I. Rasulov undalmalarni 2 guruhga ajratadi:

1. Stilistik neytral undalmalar.

2. Baho xarakteristikasini ifodalovchi undalmalar (Shomaqsudov; Rasulov; Qo'ng'urov; Rustamov 1983, 189).

Ko'pincha shaxsning ismi, familiyasi, unvoni, qarindoshlik munosabatini bildiruvchi so'zlar neytral ma'no ifodalab kelishi mumkin.

- Qiziqmisan, Rashid, nimasidan xijolat tortasan? Undan ko'ra, o'zingdan gapir (Hamdam).

- Amma, Robi opam qachon keladila? (Hoshimov)

- Dada, menga nima olib keldingiz? (Og'zaki so'zlashuvdan)

Rasmiy matnlarda, asosan, neytral undalmalardan foydalaniladi:

*Hurmatli senatorlar! Yuqori palata ishining samaradorligi-*

*ini oshirish maqsadida yaqin va uzoq istiqbolda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman* (O'zbekiston Prezidenti nutqidan).

Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar emosional– ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni xarakterlaydi, unga munosabat bildiradi.

Bunday undalmalar tabiatan salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'zlar, metaforik leksemalar, sub'yektiv baholi so'zshakllar, vulgarizmlar, varvarizmlar, undalmalarning takrorlanishi kabi til birliklari orqali hosil bo'ladi.

Metaforik undalma:

- *Men senga biron yomon gap gapirdimmi, **it** !!!* (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom")

*Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.*

- *Nega tishlaysan, kuchukvoy? – dedi boshimni silab* (Hoshimov).

Birinchi jumlada "it" so'zi metafora asosida salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, tinglovchiga nisbatan nafratni ifodalasa, ikkinchi jumladagi "kuchukvoy" so'zi bolaga nisbatan qo'llanib, erkalash ma'nosini ifodalagan.

Vulgarizm asosidagi undalma:

*"Piqillama-ye-ye, enag'ar! Nima, men yeb, sen quruq qoldingmi?"*(Tog'ay Murod)

Varvarizm asosidagi undalma:

*"Menga qara, churban! Tiling bormi? Bo'lsa, gapir?"* (Tog'ay Murod)

- *Muborak bo'lsin, giroy!*

- *Iya, poson bo'p ketibsiz-ku! Do'ppingizni bizga soting, **giroy!*** (Hoshimov)

Bu misollarda ham "churban" so'zi pastga urish, mensimaslik, haqorat ma'nosidagi salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lsa, "giroy" varvarizmi "geroy"(qahramon) so'zining so'zlashuv nutqiga xos buzilgan varianti bo'lib, yosh bolaga nisbatan erkalash ma'nosida qo'llangan.

Qisqartirilgan ism shaklidagi undalma:

Og'zaki so'zlashuv nutqida ismlarni qisqartirib, chala aytish usuli mavjud bo'lib, erkalash, o'zaro yaqinlik, o'ziga yaqin olish ma'nolarini ifodalaydi. Ijodkorlar badiiy matnda bu holdan personaj nutqida uslubiy vosita sifatida foydalanadilar.

- *Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.*

- *Bugun man tug'ildim, - dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib*

*jilmayarkan* (Hoshimov).

- *Iye, qani, Robi, o'qi!* - *dedi bobom qorong'i ayvonga turtinib chiqarkan* (Hoshimov).

- *Oyi, akam yomon-a?*

- *Nega, jinnivoy?*

- *Hali yasagan qorbobomni tepib buzib tashladi-ku!* (Xoshimov).

“*Jinni*” so‘zi aslida aqldan ozgan, ruhiy xastalikka chalingan ma’nosini bildiradi, lekin so‘zlashuv nutqida “*jinnivoy*” shakli o‘ziga yaqin olish, erkalash ma’nosida qo‘llanadi.

Yuqorida Ermon buvaning ingichka tovushi keladi:

- *Shoshmanglar, popuklar, shoshmanglar, qoravoylar, yana besh-o'n marta qoqay, hammalaringga yetadi* (Hoshimov).

- *Tut yurakni o'rtab yuboradi, ko'paygurlar. Yuringlar, choy ichamiz* (Hoshimov).

Ermon buva hech kimning ismini aytib chaqirmaydi: uning uchun hamma qizlar – popuk, hamma o‘g‘il bolalar – qoravoylar. Personaj nutqi individualligini ta‘minlash uchun yozuvchi uning nutqida o‘ziga xos undalmalarni qo‘llaydiki, beg‘ubor, oqko‘ngil bir inson xarakteri gavdalanadi, uning bolajonligini, sodda xatti-harakatlarini to‘ldirishga xizmat qiladi.

- *Voy, poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku!* (Hoshimov)

Ushbu jumladagi undalmaning ma’no bo‘yoqdorligi “a” unlisini cho‘zib talaffuz qilish (yozuvda esa bir necha harf bilan ifolalash) usuli orqali hosil bo‘lgan. Bu usul ham, asosan, og‘zaki so‘zlashuv nutqida hamda badiiy matnda uslubiy vosita sifatida qo‘llanadi.

Muloqot jarayonida kommunikantlar o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishi – gradatsiya hodisasini undalmalar orqali ifodalash ham nutqiy vaziyatni qabariq holda idrok etish imkonini berishi kuzatiladi.

- *Husanxo'ja! Husanxo'ja!*

- *Nima? - degan ingichka ovoz keldi.*

- *O'rik olib tush. Hov, yuqori shoxdan. Tez bo'!!*

- *Yiqilib tushaman-da.*

- *Yiqilmaysan.*

*Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.*

- *Kesak otaqolay?*

- *Mayli, - dedi Soat loqaydlik bilan.*

*O'rik balandda edi. Husanxo'ja mo'ljallab nuqul kesak otar, kesagi tepa shoxga yetmas edi. Terlab ketdi. Boshqa bolalar indamay to-*

*mosha qilib yotibdi. Oxiri, bitta kesak o'rikli shoxga tegdi. Uchta o'rik to'pillab tuproqqa tushdi. Husanxo'ja yugurgilab olib keldi.*

*- Mang, Soat aka!*

*- Yuvmay-sanmi, axmoq! - Soat ko'zini ola-kula qildi. - Tuproqqa qo'shib yemayman-ku!*

*Husanxo'ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o'rikni chayib keldi.*

*- Mang, aka!*

*- Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak! - Soat o'riklarni anhorga uloqtirdi. - Chiq shoxga! - dedi o'dag'aylab. - Butunidan uzib tush! (Hoshimov)*

O'smir bolalar – Husanxo'ja va Soat o'rtasidagi muloqot jarayonida so'zlovchining tinglovchiga nisbatan sub'yektiv salbiy baho ottenkasi *Husanxo'ja > axmoq > eshshak* tarzidagi kuchaytiruv darajalanishi orqali yuzaga kelmoqda. Asardagi voqelik sobiq ittifoq davrida kechganligini e'tiborga olsak, ushbu diskursiv vaziyatda yozuvchining maqsadi – allyuziya hodisasi orqali “bo'lib tashla va hukmronlik qil” tamoyili yetakchi bo'lgan sun'iy mafkuraga asoslangan tuzum kirdikorlarini fosh qilishdir. (Allyuziya – (lot. allusio – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora kilishga asoslangan stilistik usul) (Quronov; Mamajonov 2010, 28). Soat obrazi timsolida sinfiylik asosida bir millat vakillari orasiga nifoq solish maqsadi, hatto, yosh bolalar ruhiyatini shakllantirish jarayoniga ham singdirib yuborilganini kuzatish mumkin. Salbiy baho ottenkasini maksimal darajada kuchaytirish maqsadi bola (shaxs)ga nisbatan “eshshak” undalmasining qo'llanishi bir tomondan so'zdagi metaforik ma'no orqali yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'zdagi “sh” undoshini qavatlantirish orqali qo'shimcha fonopragmatik vositadan ham foydalanilgan. Natijada, *Soatning “qarama-qarshi sinf vakili” bo'lgan Husanxo'jaga nisbatan nafrati juda kuchli* propozitsiyasi bo'rtib ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'ziga xos sintaktik qurilma – undalmalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tilshunoslikdagi yangi-cha qarashlar, yangi tahlil metodlari asosida o'rganish fanimiz uchun boy material manbai bo'la oladi.

Kirish kengaytiruvchilarining barchasini o'ziga xos yagona “so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildirish” umumiy ma'nosini birlashtiradi (Qurbonova; Sayfullayeva 2004, 107). Bu munosabat suhbatdoshga qaratilgan va unga gapiruvchining fikri, irodasi va his-tuyg'ularini to'g'ri idrok etishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Ularning funksiyalari ko'p qirrali bo'lib, xabarning ishonchligi,

uning manbasini ko'rsatish, qabul qiluvchiga e'tibor, hissiy baholash va boshqalarni o'z ichiga oladi. "Kirish komponentlar gap struktur-asiga kirmaydi, gap bo'lagi hisoblanmaydi, gapdagi boshqa bo'laklar bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Biroq muloqot ishtirokchilari uchun ular funksional va pragmatik vosita sifatida juda muhimdir (Лекант 2004, 214)".

Kirish komponentlarning ma'nosi mavhum grammatik xarakterga ega. Ular gap ichida o'zining leksik ma'nosini yo'qotadi va mavhum semantik ma'no tashuvchisi sifatida qatnashadi. Gapda ifodalanayotgan mazmunning ishonchli, taxminiy yoki shubhali ekanini so'zlovchining o'zi baholaydi.

П.А.Лекант semantik jihatdan kirishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

1) ishonch, tasdiq, gumon kabi modal ma'nolarni ifodalovchi: *albatta, darhaqiqat, balki, ehtimol* kabi.

- Saltanatxonni chaqirtiray, deb edim. Bir kelib o'ynab ketsa, yaxshi bo'laridi.

- Mayli, bugun kechgacha otang kelmasa, ertaga chaqirtirarsan (Cho'lpon).

2) hissiy – emosional ma'no ifodalovchi: *afsuski, baxtinga, baxtingga, baxtga qarshi, dahshat* kabi.

3) fikr muallifini ko'rsatuvchi: *menimcha, bizningcha, qo'shnilarning fikricha, mutaxassislar aytadiki, gazetada yozilishicha* kabi.

Olimning fikricha, tanqidchining vazifasi birinchi navbatda asarning salohiyatini ko'ra bilish va unga to'g'ri baho berish bo'lgan (O'z.A).

4) bayon qilingan fikrlarni umumlashtiruvchi: *odatdagidek, har doimgidek, o'z odaticha, qoida tariqasida, umuman olganda* kabi.

Umuman olganda, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida yashash jarayonida turganlar o'z an'anaviy madaniyati majmuini sezilarli darajada saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi (Internetdan).

5) muloqotga yo'naltiruvchi: *eshiting, bilasizmi, o'ylab ko'ring, ishonasizmi, tan oling* kabi.

Tan oling, xuddi shunday bo'lganmidi? (So'zlashuvdan)

6) avvalgi fikr bilan bog'lovchi (bu o'rinda gaplarni shakliy jihatdan bog'lovchi grammatik vosita emas, fikrlarni mantiqan bog'lovchi semantik vosita sifatida talqin qilinadi): *demak, shunday qilib, aksincha, biroq* kabi.

*Bilasanmi, o'g'lim, insonga familiya zeb bermaydi, aksincha*, inson familiyaga zeb beradi (Gazetadan).

Kirishlar tarkibiga ko'ra kirish so'z, kirish birikma, kirish gap shakllarida qo'llanadi.

Kirish so'z: Darhaqiqat, inson uchun kerakli barcha shifo vositalarini tabiat ne'matlari orasidan topish mumkin. (Ma'ruzadan)

Kirish birikma: Muallifning yozishicha, (Imom al-Buxoriy) *Bag'dodda istiqomat qilgan paytda, ko'pincha, o'zining nurida ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar ekan* (<https://saviya.uz>).

Kirish gap: Xabaringiz bor, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida men boshqa ko'pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid O'zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdim* (O'zbekiston Prezidenti nutqidan).

Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, kirish gap bilan kiritma gapni farqlash zarur. O'zbek tilshunosligida grammatikaga oid ko'pgina darslik va qo'llanmalarda kirish gap va kiritma gap orasidagi farq yaxshi ochib berilmagan.

R.Sayfullayeva va boshqa hammualliflarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasi (2009)da ham M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldoshevalarning "Ona tili" darsligi (2017)da ham gapni murakkablashtiruvchi vositalar tarkibida kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar tavsiflangan holda kirish gaplar e'tibordan chetda qoldirilgan (Sayfullayeva; Mengliyev 2009, 313).

Bu jihatdan B.O'rinboyev tasnifi ancha mukammal shakllantirilgan. Olim kirishlar *kirish so'z, kirish birikma, kirish gap*, kiritmalar ham *kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gap* shakllarida mavjudligini to'g'ri tasniflagan (O'rinboyev 2001, 99).

Quyidagi faktik materiallar bunga dalil bo'la oladi:

a) kiritma so'z: *Turkiy (o'zbek) va forsiy tillarni chog'ishtirishga bag'ishlangan maxsus asar – "Muhokamat ul-lug'atayn"ning maydonga kelishi (1499) bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi: tilshunoslikning hozirgi kunda chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo'nalishiga asos solindi* (Nurmonov).

b) kiritma birikma: *Turkiyshunoslikning maxsus fan sifatida shakllanishida Mahmud Koshg'ariyning (XI asr) xizmatlari katta* (Darslikdan).

v) kiritma gap: *Bu qarash esa ijodda individuallik rolini pasaytirish (avtor o'limi), asardagi obrazlarning voqelik bilan aloqasini inkor etishga (ya'ni, belgi voqelikka ishora kilmaydi, u o'zining if-*

*odalaydi*) olib keladi (Quronov).

Kiritmalar, ko'pincha ilmiy va publisistik matnlarda qo'llanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kirishlar asosiy gapda ifodalayotgan fikrga sub'yektiv munosabatni ifodalasa, kiritmalar asosiy gapdagi ma'noga qo'shimcha ma'lumot, izoh tariqasida kiritiladi.

### **Adabiyotlar**

Dadajonova O. (2017). Istak gaplarning pragmatik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti.

G'ulomov A.G'. (1955). Sodda gap (hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar). O'zFA, -T.

Hakimov M. (2013). O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. -T.: Akademnashr.

Mahmudov N., Nurmonov A. (1995). O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis) - T.: O'qituvchi.

Qo'lboyeva D. (2013). O'zbek tilida istak gaplarning ifodalanishi xususida // O'zbek tilshunosligi: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolar, istiqboldagi vazifalar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.

Qosimova M. (2008). Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. - T.

Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. (2004). O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'quv qo'llanma. - T.: Universitet.

Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. (2010). Adabiyotshunoslik lug'ati. - T.: Akademnashr.

Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi adabiy o'zbek tili. - T.: Universitet.

Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. (2009). Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.

Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. (1983). O'zbek tili stilistikasi. - T.: O'qituvchi.

Yo'ldoshev M. (2006). Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T.: Fan.

## **In the grammatical position of simple sentences linguopragmatic signs**

Muhabbat Madaminova<sup>1</sup>

### **Abstract**

In this article, pragmalinguistics creates the need for a new approach to the study of language units of different levels in the process of speech communication, as well as the fact that communicators, when understanding each other in the process of speech communication, choose specific signs specific to reality from the general knowledge system in their minds and achieve their communicative intention through them, the combination of words. It is thought that the nominative syntactic unit formed on the basis of the syntactic valence of "z" is considered a syntactic device with a grammatical linguistic pattern and semantic meaning, the word combination is not an independent communicative unit, but it enters into the sentence and causes communicative changes.

**Key words:** *syntactic device, sentence, grammatical form, linguistic level, form, content, language, speech, sign, pragmatics.*

### **References**

- Ghulomov A.G. (1955). Simple speech (materials from the modern Uzbek language course). UzFA, – T.
- Mahmudov N. (1995). Nurmonov A. Theoretical grammar (syntax) of the Uzbek language – T.: Teacher.
- Sayfullayeva R., Mengliyev B., Bakiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. (2009). Modern Uzbek literary language. – T.
- Qurbonova M., Sayfullayeva R., Bakiyeva G., Mengliyev B. (2004). Structural syntax of the Uzbek language. Study guide. – T.: University.
- Rahmatullayev Sh. (2006). Modern literary Uzbek language. – T.: University.
- Dadajonova O. (2017). Pragmatic features of wish statements//Uzbek language and literature, – No.
- Kolboyeva D. (2013). On the expression of wishes in the Uzbek language // Proceedings of the Republican scientific-practical conference on Uzbek linguistics: principles of development, scientific problems, future tasks. – T.

---

<sup>1</sup> *Madaminova Muhabbat Sotvoldiyevna* – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: muhabbat\_madaminova@mail.ru.

**For reference:** Muhabbat Madaminova. In the grammatical position of simple sentences linguopragmatic signs. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 53-68.

- Hakimov M. (2013). Fundamentals of Uzbek pragmalinguistics. – T.: Akademnashr.
- Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. (2010). Dictionary of literary studies. – T.: Akademnashr.
- Kasimova M. (2008). Linguistic features of the individuality of artistic speech (based on the works of Uncle Murad): Philol. science. name ... diss. autoref. – T.
- Yoldoshev M. (2006). Basics of literary text and its linguopoetic analysis. – T.: Science.
- Shomaksudov A., Rasulov I., Kongurov R., Rustamov H. (1983). Stylistics of the Uzbek language. – T.: Teacher.

## XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi leksemalar tahlili

Mushtariy Xolmuradova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi leksemalar “Qutadg‘u bilig” asari misolida izohlangan. Pandnoma matnida keltirilgan ijtimoiy-siyosiy manzara ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxsni ifodalovchi leksemalar hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatda faol qo‘llangan tushuncha nomlari asosida tahlil qilingan. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxsni ifodalovchi leksemalar lavozim, mansab-martaba nomlari shaxs fe‘l-atvori, nutqiy imkoniyatlari va nutqni o‘zlashtirish talablari nuqtayi nazaridan tavsiflangan. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda nuqtning sifati, mazmuni, ifoda ko‘rinishari muhim qiymatga ega bo‘lishi, nutqning inson tabiati bilan aloqadorligi masalalariga e‘tibor qaratilgan. Ijtimoiy-siyosiy doirada, odiiy kishilar o‘rtasidagi muvoqotning muhim belgilari va unga qo‘yilgan talablar izohlangan.

XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasidagi fe‘l-atvor, nutq madaniyatiga oid masalalarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, ayrim muammolarning zamonaviy kesimda dolzarb ahamiyat kasb etayotgani qayd etilgan. Buyuk mutafakkirlarning, xususan Yusuf Xos Hojibning tafakkur mahsullari umuminsoniy va umumzamon qiymatga ega ekanligi, bugungi kunda ham dasturulamal vazifasini o‘tayotgani ta‘kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** *ijtimoiy-siyosiy manzara, ijtimoiy munosabat, lavozim, mansab-martaba, tushuncha, leksema, bek, elchi, kotib, zakovat, bilim, shoir, yalawač, davot, tamg‘a, qumaru.*

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Beklarga atalgan bilim”) asari turkiy tilda bitilgan ilk badiiy dostonidir. Bu asar o‘z davrida turkiy tilning mavqeyini yuqori darajaga ko‘targan pandnoma hisoblanadi. Asar turkiy tilda nomlangani, turkiy tilda bitilgani bilan bir qatorda turkiy til imkoniyatlari, tasviriy vositalaridan foydalanishning yuksak darajadagi namunasidir.

<sup>1</sup> *Mushtariy Xolmuradova* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**E-pochta:** mushtariy-uzmu@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-5039-1909

**Iqtibos uchun:** Xolmuradova M.F. XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi leksemalar tahlili. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024-1: 69-80.

Asarda XI asr ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi bir qator lekesemalar qoʻllangan. Pandnoma turli lavozim, mansab-martaba sohiblarini nutqi, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy faoliyatga oid narsa-buyum nomlari haqida muhim maʼlumotlar beruvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir.

“Qutadgʻu bilig”da ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxsni ifodalovchi *bek, vazir, elchi, kotib, lashkarboshi, shoir* leksemalari qoʻllangan. Adib mazkur leksemalar atrofida shu lavozimdagi shaxslarning feʼl-atvori, fazilatleri, qusurlari, nuqsonlari haqida soʻz yuritgan.

Yusuf Xos Hojib ijtimoiy tabaqalar oʻrtasida muomala madaniyatining oʻziga xos qonun-qoidalari haqida toʻxtalgan. Ijtimoiy kommunikatsiyaning zarariy shartlari borsida fikr-mulohazalar bildirgan. Kishilar oʻrtasidagi munosabatlarda, oʻzaro muloqot jarayonida mantiqiylikka eʼtibor berish, mehr-oqibatli, kechirimli boʻlish lozimligi haqida uqtirib oʻtadi. Saltanat xizmatidagi masʼul shaxslar bir qancha qoidalarga amal qilishi lozimligi, jumladan, beklar bilan boʻladigan munosabatlarda doimo ehtiyotkorlikka rioya etish kerakligi haqida fikr bildiradi.

Muallif ijtimoiy faoliyatning yetuk shaxsiyati, mutafakkir sifatida beklarning oʻziga xos fazilatlarini tavsiflaydi, ularga muomala qilishda eʼtiborliroq boʻlish lozimligini, xalq yurt hukmdoriga ishonishi uchun bekning soʻzlari toʻgʻri va amaldagi ishlari ana shu soʻzlariga mos boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi: *Sözi čin keräk beg ne qilqi qutun, inansa anar xalq tirilsä qutun* /Beg soʻzi chin va qiladigan ishlari toʻgʻri boʻlishi kerak, (toki) xalq unga ishonsin va baxtiyor yashasin (8, 2004-bayt). Bu baytlarida buyuk mutafakkir soʻz va ish, lafz va faoliyat birligi masalasini oʻrtaga tashlagan.

“Qutadgʻu bilig” asarida masʼul shaxslarning nutqi masalalariga doir bir qancha fikrlar keltirilgan. Jumladan, asarda maʼlum bir lavozim vakillarining ogʻzaki va yozma nutqiga alohida toʻxtab oʻtilgan. Xususan, elchilar, lashkarboshilar, shoirlar, kotiblarning nutqi va unga doir xususiyatlarning tavsiflangani asarning lingvistik qiymatini oshirgan. Yusuf Xos Hojib ijtimoiy tabaqa va saroy xizmatiga masʼul shaxslar nutqining qanday koʻrinishda boʻlishi lozimligi, lavozim sohiblari nutqining ijtimoiy ahamiyati haqida muhim fikrlar bildirilgan. Mazkur qarashlar umumzamon xarakteriga ega boʻlib, keyingi davrlar, xususan, bugungi kun uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

Davlatning asosiy xizmatchilaridan biri sifatida elchilar tilga olingan. Elchilar qadimda ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarni

yaxshilashda asosiy o'rin tutgan shaxslardan hisoblangan. Shu sababli elchilikning o'ziga xos mas'uliyati ham bo'lgan. Elchilar birgina noto'g'ri aytilgan so'zi yoki xatti-harakati bilan ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkinligi, shuning uchun ham nutq madaniyati qoidalariga rioya qilishlari kerakligi aytib o'tilgan.

Eng avvalo, elchi badiiy so'z san'atini puxta egallagan, zakovatli, xotirjam va ishbilarmon bo'lishi lozimligi ta'kidlangan: *Yalawač tabuzmiš sözün sözläsä, ačig ber anı ög söz aydim kesä*/ Elchi topshirilgan so'zlarni (aynan) so'zlasa, in'om ber, uni maqta, kesib so'z aytdim (8, 3820-bayt).

Elchining hazilni tushunadigan, so'z uqqan, hozirjavob bo'lishi maqsadga muvofiqdir. U turli xil ziddiyatlarni muloyimlik bilan hal qila bilishi, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini yaxshi anglay olishi zarur. Chunki elchining uddaburonligi va so'zamolligi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yaxshilanishiga va jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Asarda ijtimoiy tabaqa vakillarining nutqidan tashqari ular qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligi ham ta'kidlab o'tilgan. Masalan, elchilikka da'vogar bo'lgan kishilarning ko'zi to'q bo'lishi kerakligi, ko'zi och kishi boshqa insonlarga zarar yetkazib qo'yishi mumkinligi aytib o'tilgan. Ko'zi och kishi o'ziga nisbatan ham irodasiz bo'lishi, irodalilik esa elchilikning muhim shartlaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Shuning uchun ham ko'zi och va irodasiz kishilar elchilik lavozimiga noloyiq bo'lishi qayd etilgan.

Elchilar ikki davlat o'rtasida vositachi hisoblanadi. Shuning uchun ham elchilar o'z nutqlariga alohida e'tiborda bo'lishlari talab etiladi. Ularning so'zamolligi, qiyin vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olishlari muhimdir. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatning qay darajada bo'lishi elchilarning so'zlariga bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ulardan tadbirkor va ishbilarmon bo'lish bilan birga, so'zamol va muloyim bo'lishi lozimligi talab etilgan. Yusuf Xos Hojibning qarashlariga ko'ra, elchilarning so'zi shakardek shirin bo'lishi darkor: *Sözi bolsa yumşaq şakar-teg sučig, sučig sözkä yumşar uluğ ham kičig* / So'zi yumshoq, shakardek shirin bo'lsa, shirin so'zga ulug' ham, kichik ham yumshaydi (8, 2626-bayt). "Shirinso'z" qo'shma birlik sifatida hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladi, yoqimli, muloyim, tinglovchiga xush yoqadigan nutq ifodasini anglatadi.

Elshilarning asosiy xususiyatlaridan yana biri ularning ko'p tillarni bilishidir. Elchilar o'z tilidan tashqari boshqa mamlakat tillarini ham bilishi lozimligi aytib o'tilgan. Chunki elchi ikki davlat o'rtasidagi vositachi bo'lgani uchun qo'shni davlat tilini ham puxta

egallashi lozim bo'lgan: *Qamuğ til bilir ersä ačsa tilig, qamuğ xatni bilsä bitsä elig* / Barcha tillarni biladigan bo'lsa, tilini (so'zga) ochsa, turli xatlarni bilsa, qo'li (bilan) yozsa [ya'ni qo'li xatga ravon yursa] (8, 2597-bayt). Mamlakatning boshqa davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarida elchilar tarjimonlik vazifasini ham bajargan.

Xalqimizda "Elchiga o'lim yo'q" degan maqol uchraydi. Maqollar ham aslida aforizm xarakterida bo'lib, dastavval, kimlardir tomonidan aytiladi. Lekin aytgan shaxsning noma'lumligi sabab og'izdan og'izga o'tib, anonimlashadi. Ushbu maqolning shakllanishini Yusuf Xos Hojibning quyidagi hikmatli so'ziga bog'lash mumkin:

*Yalawačqa bolmas ölüm tut yaqin, Ešitmiš sözin čin tegursä tilin* / Elchiga o'lim bo'lmaydi, muqarrar bilgin, Eshitgan so'zlarini tili bilan chin yetkazsa (8, 3818-bayt).

Hokimiyat boshqaruvida ishtirok etadigan shaxslardan yana biri kotiblardir. Pandnomada qayd etilishicha, bek qancha sir saqlasa ham ikki kishiga sir aytmalikning iloji bo'lmaydi. Bulardan biri – kotib, ikkinchisi – vazir. Shuning uchun ham ularga yaxshi munosabatda bo'lish lozimligi aytib o'tiladi.

Kotiblar davlat ishlarini hujjatlashtiruvchi kishilar bo'lib, bek farmonlari ular tomonidan yozilgan. Kotiblar uchun ham bir qancha qoidalar belgilangan. Zarur va "ich so'zlar" faqat kotiblariga aytilgan. Shuning uchun ular sirlarni ehtiyotkorlik bilan saqlashlari kerak bo'lgan. Kotibning xotirasi yaxshi, yozma nutqi chiroyli bo'lishi lozimligi aytilgan. Chunki yaxshi xotiraga egalik bek farmonlarining yaxshi tushunilishini va har bir so'zni izchillik bilan eslab qolinishini ta'minlaydi, husnixat bilan bitilgan yozuvni o'qigan kishining esa bahri dili ochiladi. Yusuf Xos Hojib davrida kotiblarning chiroyli yozuvga ega bo'lishi asosiy shartlardan biri bo'lgan. Asarda yozuvga alohida e'tibor berilgan. Chunki yozuv ajdodlarning ma'naviy merosini avlodlarga to'liq yetkazishda asosiy vositalardan biri hisoblangan. Shuning uchun ham kotiblardan chiroyli yozuv va savodxonlik talab etilgan. O'zbek madaniyati tarixida xattotlikning san'at darajasiga ko'tarilishida Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlarning qarashlari muhim o'rin tutgan.

Asarda kotiblar beklarning eng ishonchli vakillaridan biri ekanligi alohida aytib o'tilgan. Shuning uchun kotiblikka ishonchli insonlarni tanlash lozimligi ta'kidlangan. Kotiblikning asosiy shartlaridan biri esa hukmdorining va saltanatning sirlarini saqlay olishi va sadoqatli bo'lishi deb belgilangan:

*Bitigčī bu yanliğ keräk ey elig, inansa aňar bersä bolgay elig*

/ Kotib (mirza) bu yanglig' (bo'lishi lozim ey elig, unga inonsa, qo'l bersa (ya'ni ish topshirsa) bo'ladi (8, 2697-bayt).

Adib yomon xulqli kotiblarning yozuvni buzishi, aniqrog'i ma'lumotni noto'g'ri ifodalashi, ko'rimsiz yozishini qayd etgan: *Suq ersä bitig'ci tilig artatur, bitir umdi birlä bitig artatur* / Kotib suq bo'lsa, tilni buzadi, tama bilan yozadi, yozuvni buzadi (8, 2725-bayt). Yusuf Xos Hojib bu qarashlari orqali birinchilardan bo'lib fe'l-atvorning yozuv bilan aloqadorligi masalasini ko'targan. Fe'l-atvorning, inson xarakterining yozuviga bog'liq bo'lishi zamonaviy psixologiya tomonidan ilgari surilayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu holat Yusuf Xos Hojib qarashlarining bugungi kun masalalariga ham aloqador bo'lgan qudratli tafakkuriga yana bir dalildir.

Ko'rinadiki, elchi va kotiblarga bir qator talablar qo'yilgan. Ayniqsa, ularning yozma va og'zaki nutqiga katta e'tibor berish lozimligi uqtirilgan. Bu esa mas'ul shaxslardan o'z ishining ustasi bo'lish bilan birgalikda nutq madaniyatiga rioya etish talab etilganini ko'rsatadi.

Kotiblar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan **kayaz, davat** kabi arabcha o'zlashmalar rasmiy hujjatlar matnida keng iste'molda bo'lgan. "Siyohdon" ma'nosidagi *davat* so'zi ilk bor «Qutadg'u bilig» asarida uchraydi: *Davat qoldi kayaz bitidi bitig, bitig birlä etti işiñä etig* – Davot va qog'oz so'radi, maktub yozdi, maktub bilan ishiga zamin hozirladi (QBN, 3148; 118b1). Hozirda bu so'z iste'moldan chiqqan. Alisher Navoiy asarlarida "siyohdon, davot" ma'nosi davot qatori (ANATIL, I, 430) *mihbara* o'zlashmasi bilan anglashilgan: *bir kun qalamni mihbaradin chiqardim* (ANATIL, II, 312). Davlat institutlariga tegishli ish yozmalarining mazmuni va so'z tanlanishiga devonda ana shu soha bilan shug'ullanuvchi mansabdorlar "*alimya*", "*jažyuči*" va "*bitig'ci*" mas'ul hisoblangan. Shoh maktublarini turk xati bilan yozuvchi kotib alimğa deb atalgan (DLT, I, 161). "Qutadg'u bilig" da bu so'z ilimğa shaklida uchraydi: *Qayusi sü baši qayusi hažib, qayusi ilimğa bolur* – Qaysisi lashkarboshi, qaysi biri hojib, qaysisi sarkotib bo'lur (QBN 2936). Davlat hujjatlari ularning qo'lidan chiqqan. Kundalik so'zlashuvda ishlatiladigan ayrim leksik birlik va birikmalar rasmiy matnga o'tganda terminlik xususiyatini ham bajaradi.

"Qutadg'u bilig" da *tamya* so'zi negizida yasalgan **tamyaçi** termini keltirilgan. *Tamyaçi* alohida saroy lavozimlaridan biri bo'lib, "muhrdor" ma'nosini anglatadi: *Atim ersig ersä bolur oq yaçi, köni bolsa qilqi bolur tamyaçi* / Mergan, dovyurak bo'lsa, o'q-yoychi bo'ladi, xulqi to'g'ri bo'lsa, muhrdor bo'ladi (QBN, 3951; 147a4). Eski

o'zbek adabiy tilida bu so'zning o'rnini *muhrdor* termini egallaydi. *Tamya* turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutadi. *Tamya* nafaqat davlat ramzi, balki ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'liq muhim belgi sifatida ham ahamiyatga ega bo'lgan. Chorvachilik bilan shug'ullangan turkiy xalq vakillari hayvonlarni maxsus tamg'alar (uy-ro'zg'or buyumlari, hayvonlar shakli) bilan muhrlashgan. Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlarning yigirma ikki urug'i xususida so'z yuritib, ularning har biri maxsus belgilar, hayvonlarga xos tamg'alarga egaligi, urug'larni shu tamg'alarga qarab farqlashlarini ta'kidlagan (DLT, I, 89-90).

“Qutadg'u bilig” matnida keltirilgan *tamya* termini eski turkiy til manbalarida faol qo'llangan: *Bilig birlä yaqyil bayat tapyïnga, bilig tamya bolur tamuq qapyïnga* – Xudoning toat-ibodatiga bilim bilan (yaqinlashishga) o'rgan, jahannamning eshigiga bilim tamg'a bo'ladi (QBN, 3184; 119b7). Asar tabdilida baytning ikkinchi misrasi “hammaning eshigiga bilim tamg'a bo'ladi” tarzida izohlangan. Biz asarning Namangan nusxasi faksimilesiga ko'ra (119b7) baytning ikkinchi misrasining mazmuni “jahannamning eshigiga bilim tamg'a bo'ladi” izohiga to'g'ri kelishini aniqladik. *Tamya* “berkituvchi”, “to'suvchi” ma'nolarini ifodalagan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida ikki xil ma'nodagi, ya'ni omonimik munosabatdagi *tamya* so'zi keltirilgan: I.Shoh va boshqalarning tamg'asi, muhri; II. Dengiz, ko'l va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog'i. Daryoda qayiq to'xtaydigan joy ham *tamg'a* deyilgan (DLT, I, 400).

“Qisasi Rabg'uziy”da *tamya* istilohi “muhr”ni ifodalagan: *Ey savçılar tamğası munuhtek karāmat birlä bizlārdin artuq boldıñ (2, 101)*. “At-tuhfa”da “muhr, nishon” ma'nosini bildirgan *tamya* nafaqat eski o'zbek tili, balki hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol qo'llanuvchi birlik hisoblanadi. *Tamya* istilohiga sinonim hisoblangan *nişan* o'zlashmasi “Qutadg'u bilig”da “belgi” ma'nosini ifodalagan: *Nişani bulur men körüglisi yoq. Nişan XIII asrga xos turk (uyg'ur) xatida bitilgan hujjatlar tilida “muhr” ma'nosida qo'llangan.*

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida bir kishiga yozilgan maxsus dasturxon tamg'aliq deb atalgan. Asli tamg'aliq so'zi “muharli” degan ma'noni anglatadi. Odatda podsho o'ziga xos dasturxon va ko'zachani muhrlab qo'yadi, unda bir kishiga loyiq sharob va ovqat bo'ladi. So'ngra har bir kichik ko'zacha va dasturxon shunday ataladigan bo'ldi. Buning ma'nosi podshodan boshqa odam undan ovqat yemasligi uchun tamg'a urilgan dasturxon demakdir (DLT, I, 429).

“Qutadg'u bilig”da askarlar va lashkarboshilar haqida ham

bir qancha fikrlar bildirilgan. Jumladan, askarlarning mard va jasur, baquvvat va zakovatli bo'lishlariga alohida ahamiyat berilgan. Lashkarboshining kuchliligi arslonga, doimiy hushyorligi zag'izg'on-ga, baquvvatligi qoplonga, hujumkorligi va dushmanga hamlasi to'ng'izga, mardonavorligi bo'riga, jangda mohirligi, hiyla va tadbirkorligi tulkiga, shiddati ayiqqa, qasoskorligi qo'tos va tuya erkagiga o'xshatilgan. Askarlarni doimo rag'batlantirib turish lozimligi, askar va lashkarboshilar mamlakatning qalqoni va tayanchi ekanligi haqida bir qancha fikrlar keltirilgan. To'g'riso'zlik mazkur shaxslardagi asosiy fazilat sifatida ulug'langan: *Sözi çin keräk bolsa qavli qiliq, etilsä iş(i) ötrü tüzsä yörüq-* (8, 2288-bayt).

Asarda shoirlarga alohida e'tibor berilgan. Shoirlar, Yusuf Xos Hojib nazdida, kishilarga tanbeh beruvchilar yoki maqtoovchilardir. Shoirlar– *söz terğüçi* “so'z terguvchi” parafrazasi bilan nomlangan.

Shoirlarning quroli so'zdir. Yusuf Xos Hojib qayd etganidek, shoirlar so'z yordamida insonni ko'kka chiqaradilar, so'z yordamida beklarning obro'sini yerga uradilar. Muallif shoirlar bilan ehtiyot bo'lib muomalada bo'lish kerakligini ta'kidlagan. Aks holda ularning so'zlovchi sirini barchaga yoyishlari mumkinligini aytgan. Shuning uchun ham beklar shoirlarga yaxshi e'tibor ko'rsatishlari lozimligi ta'kidlab o'tilgan: *Basa keldi ša'ir bu söz terğüçi, Kišig özgučilar yemä yerguči*/Yana shoirlar keldilar, bular so'z terguvchilardir, Kishini maqtoovchi hamda koyuvchilardir (8, 4288-bayt). Bu o'rinda Yusuf Xos Hojibning inson psixologiyasini yaxshi bilgan tafakkur sohibi sifatida maydonga chiqqanini kuzatamiz.

“Qutadg'u bilig” asarida mas'ul shaxslar nutqiga doir masalalardan tashqari, bilimli, ziyoli kishining nutqidagi asosiy xususiyatlar, johil va nodon kishilarning nutqidagi kamchiliklar alohida tavsiflangan. Xususan, bilimli insonning so'zlari suvga qiyos qilingan:

*Biliglig sözi yerkä suw-teg turur, aqitsa suwug yerdä ne'mat ünür*-Bilimning so'zlari yer uchun suv kabidir, suv oqizilsa, yerda anvoyi ne'matlar unadi (8, 958-bayt). Suv tabiat va inson, jamiki jon-zotlar uchun obi-hayot manbayidir. Bilimli kishi ham jamiyat, davlat uchun suv va havodek zarur. “Qutadg'u bilig” – hadislardan ilhomlanib yozilgan asar. Undagi purma'no fikrlar, teran mulohazalar hadislarning ta'siri o'laroq yuzaga kelgan. Bilimli kishining so'zi yerga hayot bag'ishlovchi suvga o'xshatilganida ham hadislarning ta'siri seziladi. Jumladan, “Ilm o'rganmoq” haqidagi hadisda ilm yomg'ir suviga o'xshatiladi. Ilm o'rganuvchilar esa yerga qiyoslanadi. Shunday yerlar borki, yomg'ir suvini shimib, butun o'simliklar dunyosiga hayot bag'ishlaydi. Xuddi shuningdek, insonlar borki, ilm o'rganadi-

lar, boshqalarga ham o'rgatadilar – ular mo'minlardir. Ayrim yerlar yomg'ir suvini o'ziga singdirmaydi, ammo jonzotlar uchun suv manbasi sifatida to'plab beradi. Shunga o'xshash odamlar borki, o'rganadilar, ammo o'zlari amal qilmaydilar – ular fosiqlardir. Ba'zi yerlar yomg'ir suvini na o'ziga singdiradi, na to'plab bera oladi. Shunga o'xshash, o'zi ham o'rganmaydigan, birovga ham o'rgatmaydigan kishilar bor – ular fosiqdirlar.

Yusuf Xos Hojib mulohazalariga ko'ra, birgina oqil va dono kishi minglab nodon va aqlsiz odamlardan afzalroqdir. Nodon kishi jamiyat uchun xatarlidir. Chunki nodonning aqli bo'lmaydi, uni turli g'arazli niyatli kishilar o'z oqimlariga og'dirib olishlari mumkin. Dono va oqil kishi esa o'z qarashlarida sodiq turadi. Hech qanday kuch uni o'z maqsadidan va maslagidan chalg'ita olmaydi.

*Qara qarni todsa kor ud-teg yatur, yava sozkä awnur özin sem-ritur /* Johil qorni to'ysa, ho'kizdek yotadi, ko'r, behuda so'zga g'arq bo'lib o'zini semirtiradi (8, 974-bayt). Bu misralarda johil kishi ho'kizga o'xshatilgan. Uning dardi faqat qorin to'ydirish va behuda umr o'tkazish. Johil so'zdan so'zning farqini bilmaydi. Behuda va keraksiz so'zlarga ham quloq tutib yotaveradi. Natijada johil kishining ongi behuda va keraksiz so'zlar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Ho'kiz gapga tushunmaganidek, nodon va johil kishi ham ezgu so'zlarni tinglamaydi. Chunki uning ongi zararli va keraksiz so'zlar bilan to'yintirilgan bo'ladi. Dono va oqil kishi esa ezgu va zarar keltiruvchi so'zlarni bir-biridan farqlay oladi. Zararli so'zlarni aytishdan va eshitishdan qochadi. Uning ko'ngli ezgu so'zlarga to'la bo'ladi. Boshqa kishilarga ham o'zining ezgu so'zlaridan ulashadi.

Bu fikr-mulohazalar XXI asr – taraqqiyot asri, axborot asrida nihoyatda muhim qiymat kasb etadi. Mafkuraviy immunitet, axborotni sintezlash, axborot xavfsizligi tushunchalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir davrda komil insonni tarbiyalash, ma'naviyatni shakllantirish, ma'naviy oziqlantirish va ma'naviyatni boyitish masalalarida Yusuf Xos Hojibning qarashlari asrlar osha o'z dolzarbligini saqlab qolganini ko'rish mumkin.

Vilajät so'zi "Qutadg'u bilig" ma'muriy-hududiy bo'linishni ifoda etgan. Bu ma'no "Qadimgi turkiy lug'at"da ham qayd etilgan. Alimlari va hakimlari qamuy ittifaq boldilar kim mäshriq vilajätindä Türkistän ellärindä Buyra xan tilinčä bu kitabdin jaxšïraq härgiz kim ersä tasnif qilmadi – Olimlari va hakimlari ittifoq bo'ldilar, viloyatlarda, Turkiston elida Bug'ra xon tilida bu kitobdan yaxshiroq kitobni hech kim yozgan emas (DTS, 634). "Boshqardi" ma'nosini anglatuvchi vilajät so'zi asli "markaz boshqaruvdagi uzoq o'lka"

ma'nosini bildirgan, keyinchalik ma'noda umumlashish yuz berib, "mamlakatning(davlatning) yirik ma'muriy bo'lagi" ma'nosini anglata boshlagan (O'TEL, II, 94). Alisher Navoiy asarlarida "valilik; hokimlik, hukmdorlik" ma'nosidagi valoyat leksemasi qo'llangan (ANATIL, I, 357).

XI asr ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi tushunchalardan biri yodgorlik, esdalik, meros" ma'nolarini bildirgan **qumaru** so'zi hozirgi kunga kelib iste'moldan chiqqan: *Ölüğdin tirigkä qumaru söz-ul, qumaru sözi tutsa asyi yüz-ul / O'lgan(lar)dan tirik(larga) meros* so'zdir, meros so'zi tutilsa [ya'ni otalar s o'zini tutilsa], nafi yuz-yuzdir (QBN, 267; 17a2). "Devonu lug'otit turk"da ushbu leksema *xumaru* shaklida keltirilgan va quyidagicha izohlangan: "Kattalardan biror kishi o'lsa, uning molidan bir nafis narsa shohga taqdim etiladi, ana shu narsani *xumaru* deyiladi. Undan esdalik demakdir. Safarga ketayotgan kishining qarindosh va tanishlariga qoldirayotgan narsasi ham *xumaru* deyiladi. Bu so'z erkak va ayollar nomi sifatida ham ishlatiladi" (DLT, I, 416). Mahmud Koshg'ariy "xon muhri" ma'nosidagi *tuğrağ* terminining o'g'uz tiliga xosligini aytib o'tadi. "Qadimgi turkiy til" lug'atida xonga sovg'a qilinadigan ot *tuğrağ* deb atalgani qayd etilgan (DTS, 584). *Qumaru* qoraxoniylar davridagi madaniy munosabatlarni aks ettirgan, xalqning o'ziga xos qadriyati, urf-odatini ifodalangan leksik birlikdir. Q.Sodiqov "Qutadg'u bilig"ni "Mangu qumaru" deb ataydi (Sodiqov 2010). *Qumaru* so'zi arabcha *meros* so'zining turkiy tillardagi muqobilidir. "Qisasi Rabg'uziy" matnida leksema *qumartyu* shaklida "meros, armug'on" ma'nosini bildirgan (QR, 51 v 3).

"Shahar, qishloq, viloyat" ma'nosidagi kend so'zi "Qutadg'u bilig" asarida känd uluř tarzida kelib "shahar-qishloq" ma'nolarini anglatgan:ölüm buzdi ordu telim känd uluř –O'lim saroylarni, ko'plab qishloq va shaharlarni vayron qildi (DTS, 290). Devonu lug'otit turk"-da **kend, kent** shaklida keltirilgan bo'lib, dastlab bir yoki bir necha oila yashaydigan, atrofi devor bilan o'ralgan hovlini anglatgan. Keyinchalik qishloq, shahar nomlarining tarkibiy qismiga aylangan: känd – o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. Shuning uchun Farg'onani Özkänd – o'z shahrimiz deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Semizkänd – semiz shahar deydilar. Buni forsiylar Samarqand tarzida qo'llaydilar (DLT, I, 330). Mahalliy hamda arab tarixchi va geograflarining asarlarida kend birikmasiga ega joy nomlari keltirilgan. Jumladan, Ibn Havqalning "Masolik ul-mamolik" asarida 40 dan ortiq joy nomlari keltirilgan. Alisher Navoiy asarlarida "qishloq", "shahar" ma'nolarida ifoda-

langan: *Mavlono Muhammad Badaxshiy Qunduzning Ashkmish otlig' kentidindur* (ANATIL, II,108). "Boburnoma"da, asosan, "shahardan katta hududiy birlik"ni ifodalagan: ...bir yig'och yo'l yo'qturkim, kent va ma'mura bo'lmag'ay (BN, 108).

"Qutadg'u bilig" didaktik asar bo'lishi bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi manba hamdir. Unda XI asr ijtimoiy-siyosiy manzarasining muhim jihatlari, xususan, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabat subyektlarining fe'l-atvori, muloqot xulqi haqida fikr-mulohazalar qayd etilgan. Ijtimoiy munosabatlardagi nutq, uning ahamiyati, ifoda shakli va mazmuniga alohida e'tibor qaratilgan. Asarda mas'ul shaxslar nutqining ta'sirchan, badiiy ifodalarga boy bo'lishi kerakligi uqtirilgan. Fikrni ta'sirchan ifodalashda obrazlilikning o'rni, badiiylikning kuchi ta'kidlangan. Zero, fikrni go'zal qolipga o'rab berish, tinglovchiga ta'sirchan ifodalar orqali yetkazish so'zlovchining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pandnomada tinglovchiga fikrni yetkazishda bir qancha badiiy vositalardan, jumladan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish va kinoyalardan unumli foydalanilgan. Bu esa asarning ta'sirchanligini va badiiy qiymatini oshirgan. "Qutadg'u bilig"da keltirilgan mas'ul shaxslar nutqiga oid mulohazalar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy jamiyatining ruhiyati, ularning nutqi borasidagi tushunchalarning shakllanishiga yordam beradi. Bu mulohazalar va muallif tomonidan bildirilgan fikrlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan beklar, elchilar, kotiblar, shoirlar, lashkarboshilar hamda boshqa lavozim hamda ijtimoiy tabaqa vakillari shaxsiyatiga va nutqiga qo'yilgan talablar davrimiz ijtimoiy-siyosiy munosabatlari-da ham o'z qiymatini saqlab qoladi.

### Adabiyotlar

- Abdurahmonov G'. (2011) To'xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg'u bilig. I,II,III,IV,V jildlar. – Toshkent: Jahon print.
- Абдушукуров Б. (2008) "Қисаси Рабғузий" лексикаси. – Тошкент: Akademnashr.
- Маҳмуд Кошғарий. (1963) Девону луғотит турк (нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). –Тошкент.
- ДТС – Древнетюркский словарь. (1969) –Л.:Наука.
- Маллаев Н.М. (1976) Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи.
- Reshid Rahmeti Arat. (1979) Kutadgu bilig (index). –Istanbul.
- To'xliyev B. (2000) O'zbek adabiyoti. –Toshkent: O'qituvchi.
- Юсуф Хос Ҳожиб. (1972) "Қутадғу билиг". Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов. –Тошкент: Фан.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006-2008) I-V жилдлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

## **Analysis of lexemes reflecting the socio-political picture of the 11<sup>th</sup> century**

Mushtariy Kholmuradova<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article uses the example of the work “Kutadgu Bilig” to explain lexemes that reflect the socio-political picture of the 11th century. The socio-political picture presented in the text of “Pandnomas” is analyzed on the basis of lexemes denoting a person engaged in socio-political activities, and the names of concepts actively used in socio-political relations. Lexemes representing a person carrying out socio-political activities are described in terms of position, position, personality, speech abilities and requirements for speech proficiency

In socio-political relations, attention is paid to issues of quality, content and expression of speech, the relationship between speech and human nature. In the socio-political context, the important features of communication between ordinary people and the requirements placed on them are explained. It is noted that issues related to the nature and culture of speech in the socio-political picture of the 11th century have not lost their significance today, and some issues are gaining relevance in the present time. It was noted that the products of thinking of great thinkers, especially Yusuf Khos Hajib, have universal and universal value and serve as a program even today.

**Key words:** *socio-political picture, social attitude, position, concept, lexeme, bek, ambassador, secretary, intelligence, knowledge, poet, dawlat, tamga, heritage.*

### **References**

- Abdurakhmonov, G. Tuxhliyev, B., Rustamov, A., Dadabayev, H. 2011. *Kutadgu bilig*. Tashkent: Jahon print.
- Abdushukurov, B. 2008. *Lexicon of “Kissasi Rabguzi”*. Tashkent: Academy.
- Mahmud Kashgari. 1960-1963. *Dictionary of Turkish*. I-III. Tashkent.
- Ancient Turkish dictionary*. 1969. Leningrad: Science.
- Mallayev, N. Маллаев Н.М. 1976. *History of Uzbek literature*. Tashkent: Teacher.
- Resid Rahmeti Arat. 1979. *Kutadgu bilig (index)*. Istanbul.

---

<sup>1</sup> Mushtariy Kholmuradova – associate professor of Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi, PhD.

**E-pochta:** mushtariy-uzmu@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-5039-1909

**For reference:** Kholmuradova M.F. Analysis of lexemes reflecting the socio-political picture of the 11th century. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-1: 69-80.

Tukhliyev B.2000. Uzbek literature. Tashkent: Teacher.

Yusuf Khas Hajib. 1972. *Kutadgu bilig*. Narrator and author of the foreword to modern Uzbek K.Karimov.Tashkent:Star.

An explanatory dictionary of the Uzbek language.I-V. 2006-2008.Tashkent: National encyclopedia of Uzbekistan.

## Shaxsiy yozishmalarda lisoniy va nolisoniy vositalarning lingvistik ekspertizasi

Dildora To'rayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Fan-texnika taraqqiyoti turli fanlar integratsiyasini taqozo etmoqda. Sud-huquq tizimi va tilshunoslik kesishuvi natijasida amaliy tilshunoslikning lingvistik ekspertologiya sohasi yuzaga keldi. Ushbu tadqiqotda verbal va noverbal vositalarning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, ularning nutqdagi ahamiyati va turli aspektlarda tahlil etilishi xususida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, ushbu belgilarning lingvistik, fonoskopik ekspertizadagi tadqiqi, sud-huquq tizimidagi ahamiyati bir nechta nazariy ma'lumotlar hamda amaliy ifodalar bilan taqdim etilgan. Paralingvistik belgilarning tasnifiy xususiyatlari va shaxsiy yozishmalardagi o'rni xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *lisoniy va nolisoniy vositalar, paralingvistik, ekstralingvistik, mimika, jest, kinesika, vokalika, fonoskopik ekspertiza, fonatsiya, audit, akustika, artikulyatsiya.*

### Kirish

Yozma nutq – insonning biror fikrni puxta o'ylab, mazmunan va til birliklarining strukturasi jihatidan qayta ishlangan fikr mahsulidir. Lingvistik ekspertiza, sud ekspertizasi, xatshunoslik, muallifshunoslik ekspertizalarining obyekt bo'lmish shaxsiy yozishmalar shakli va tuzilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi: qo'lyozma, elektron bosma, audioyozuv, videoyozuv shaklidagi yozishmalardir. Ular mazmunan mutanosiblikni kasb etsa, shaklan har biri o'ziga xos sanaladi. Ya'ni muayyan ashyolar: tosh, daraxt po'stlog'i, sopol idishlarda aks ettirilgan qo'lyozma matnlar qadim-qadimdan shakllanib, insonlar orasida aloqa-munosabat vositasi bo'lib xizmat qilyapti. Ushbu yozuvlarning taraqqiyot natijasi sifatida elektron bosma shakldagi turlari yuzaga keldi. Bu fan-texnologiyaning mahsuli sifatida namoyon bo'ldi. Endilikda ushbu yozishma turi ancha ixcham va qulay sanaladi. Yozishmalar tahlili turli fan sohalariga aloqador bo'lishi

<sup>1</sup> *To'rayeva Dildora Anvarovna* – ToshDO'TAU doktoranti (DSc).

**E-mail:** dildoratorayeva9@gmail.com.

**ORCID:** 0000-0002-2595-3516.

**Iqtibos uchun:** To'rayeva Dildora. Shaxsiy yozishmalarda lisoniy va nolisoniy vositalarning lingvistik ekspertizasi. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-1: 81-93.

mumkin, masalan, tarix, arxeologiya, psixologiya, neyrolingvistika, pragmalingvistika, sotsiologiya, lingvokulturologiya, lingvistik ekspertologiya kabi. Bu har bir yo'nalish uchun o'ziga xos ahamiyatga ega. Xususan, ekspertologiya yo'nalishida qo'lyozma va elektron bosma shakldagi yozishmalarning o'rganilishi turlichadir. Ya'ni muallifshunoslik, xatshunoslik ekspertizasi uchun qo'lyozma matnlar tahlil manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu matnlardagi yozuvning shakliy jihatlari: harflarning uchburchak, oval, aylana tarzida, shuningdek, qalin, mayin bo'rttirilgan ranglarda yozilishi, yozuvning yotiqsimon, tik, qiya holatda amalga oshirilishi kabilar yuqoridagi ekspertizalarda yozishma muallifini aniqlash uchun ahamiyatlidir. Elektron bosma shakldagi yozishmalarda esa yuqoridagidek yozuvning shakliy jihatlari yaqqol ko'zga tashlanavermaydi. Shuning uchun ham, bunday yozuv turlari xatshunoslik ekspertizasi bilan bir qatorda lingvistik ekspertologiyaning ham tahlil manbasi bo'la oladi. Ushbu tahlilda matndagi yozuv yoki harflarning shakliy jihatlari bilan bir qatorda ularning mazmuniy tomonlariga e'tibor qaratiladi. Masalan, elektron bosma shakldagi matnda "ijro etilsin" qo'shma fe'li ishlatilgan bo'lsa, ushbu birlikning stilistik jihati, grammatik shakllanganligi, matndagi kontekstual vazifasi va biror ijtimoiy qatlam, yosh, jins, sheva vakilining nutqiga aloqadorligi kabi masalalar tahlili lingvistik ekspertologiyaga tegishli sanaladi.

### **Asosiy qism**

Nutqda verbal va noverbal vositalarning aks etishi XX asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida turli aspektlar bilan aloqadorlikda o'rganilgan bo'lib, bu masalada N.I.Panina, S.V.Mosheva, G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.Vilson, Y.M.Vereshagin, Y.D.Bayeva kabi olimlar qator ilmiy yangiliklar qilishgan. O'zbek tilshunosligida esa ushbu muammo xususida A. Nurmonov, A. Sobirov, M. Saidxonov, D. Abduazizova, Sh.Safarov kabi olimlar ko'pgina tadqiqotlarni amalga oshirishgan (Нурмонов 2012, 414; Саидхонов 2008, 83; Usmonova, Yusupova 2021, 94-99). Rus olimi I.Yakovlev noverbal vositalarni quyidagi turlarga ajratgan: kinesika (tana harakati), vokalika (paralingvistika, ovozning akustik xususiyatlari), fizik xarakteristika (gavda qismi shakli, o'lchami, soch rangi), xaptika (tana qismiga teginish), proksemika (joylashuv manzili), xronomika (vaqt), artefakt (kiyinish, bezanish, kosmetika), olfaktika (hid bilish), estetika (musiqqa, rang). Nolisoniy vositalarning o'rganilishi sud-huquq tizimi bilan ham aloqador bo'lib, bu bevosita lingvistik, psixolingvistik, fonoskopik ekspertizalar uchun tadqiq manbai bo'la oladi. Yuqorida sanab o'tilgan tasnifdan kinesika va vokalika ekspertologiya uchun

obyekt sanaladi. Ma'lumki, qo'lyozma va elektron bosma shakldagi yozishmalarda lisoniy birliklar o'z ifodasini topadi. Ya'ni lisoniy birliklar sirasidagi grafema, leksema, morfema, frazema kabilar yozishmaning yuqoridagi to'rt turi uchun ham xosdir. Ammo nolisoniy birliklar, noverbal vositalar ularning hammasida ham aks etavermaydi. Nolisoniy vositalar paralingvistik vositalar bo'lib, ular inson tana a'zolarining harakati, mimikasi va ovozning fizik-fiziologik holatiga nisbatan ishlatilishi mumkin. Aloqa-munosabat jarayonida bunday vositalar nutqiy maqsadning to'la-to'kis namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Xususan, bunday vositalar nutqning jozibador, ta'sirchan va tushunarli tarzda namoyon bo'lishi, so'zlovchining ijtimoiy-biologik holati, vaziyati haqida axborot berishi kabi vazifalarni bajaradi. Inson tana a'zolarining harakatiga ko'ra paralingvistik vositalarga bosh irg'ash, qosh qoqish, qo'l siltash, yelka qisish, barmoqlar harakati, lab burish kabilar bo'lib, ular so'zlovchining nutqiy maqsadini aniq va tushunarli tarzda ochib berishda nutqni to'ldirib, izohlab, jonli tarzda ifodalab kelishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, gapirayotgan paytda boshni past va tepaga irg'ab qo'yish – rozilik alomati, boshni sal egish va ta'zimdek munosabatni yuzaga keltirish – minnatdorlik belgisi sanaladi. Bu masalada millatlararo o'ziga xoslik ham mavjud. Har bir millat o'zining paralingvistik vositalariga ega. Jumladan, qo'lini musht qilib bosh barmoqni yuqoriga ko'tarib ko'rsatish o'zbek, usmonli turk, rus va inglizlarda yaxshi va zo'r ma'nosini ifodalasa, o'z navbatida amerikada mashina to'sish, inglizlarda besh raqami, ayrim yevropa davlatlarida haqoratni ifodalaydi (Mirzayeva, Xolmatova 2022). Shuningdek, o'zbek, ingliz, ruslarda ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini ochib ko'rsatish ikki raqamini, o'z navbatida inglizlarda g'alabani ham ifodalaydi. Lekin ayni shu harakatni bajarishda kaftni ichkariga qilib ko'rsatish inglizlarda og'izni yop degan ishorani anglatsa, turklarda qattiq haqoratni bildiradi (Nurmonov 2012). Salomlashish o'zbeklarda qo'lni ko'ksiga qo'yib, sal gavdani egish bo'lsa, koreyslarda ikki qo'lini yon tomonga qo'yib gavdani xiyol oldinga egishdir. Demak, "Assalomu alaykum" birikmasi lingvistik, lisoniy birlik bo'lsa, gavda, tana a'zolari harakati esa nolisoniy vositaning nutqda namoyon bo'lishini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, fan-texnika, texnologiyaning taraqqiyoti ko'pgina fanlarning integratsiyalashuvini yuzaga keltirdi. Noverbal vositalarning nutqiy faoliyatda aks etishi sud-huquq tizimida lingvistik, psixolingvistik ekspertizalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xo'sh, yuqorida noverbal vositalar sifatida tilga olingan fonatsion, jest va mimikalar orqali yuzaga kelgan nutqiy hosilalar shaxsiy yozish-

malarning qaysi shakllari uchun xos? Videoyozuvli yozishmalarda har ikkisi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi aloqa-munosabat jarayonida videotasvir orqali so'zlovchining mimika, imo-ishoralari bilan bir qatorda ovozning akustik-artikulatsion ifoda xususiyatlari ham saqlanib qoladi. Audioyozuvda esa jestlar emas, balki ovozli nutqning artikulatsion belgilari inobatga olinadi. Asosan, audio va video yozishmalarda nolisoniy birliklar namoyon bo'ladi. Bunday yozuvlarda lingvistik ekspertizaning amalga oshirilishi va nolisoniy vositalarga e'tiborning qaratilishi ko'plab muammolarga yechimni yuzaga keltiradi. Masalan, so'zlovchining do'q, kinoya-kesatiq, behurmatlik, obro'sizlantirish, izzat-navsga tegish kabi emotsional munosabatlari uning harakati va ovoz tembrida, albatta, namoyon bo'ladi: *Akang juda tentak, juda bo'limsiz yigit, — dedi nihoyat po'ng'illab boy. (Oybek "Tanlangan asarlar")*. Bunda *po'ng'illab* so'zi tinglovchiga nisbatan norozilik kayfiyatini ifoda etadi. Shuningdek, nolisoniy vositalar orqali so'zlovchining biologik, psixologik holati ham nutqida namoyon bo'ladi. Masalan,

*- Yolg'on so'z bul! Yolg'on! – Mansur mesh go'dakning boshiday yum-yumaloq, yumshoq mushti bilan xontaxani gurs etib urdi. **Dir-dir titragan qo'llarini** dasturxonidagi guldor ro'molchaga cho'zgani-cha buning hammasi uyushtirilgan, tashkil qilingan! Esa, ... shu kolxozda o'ttiz yil boshliq bo'lib ... kimga yomonlik qildi kamina? (O.Yoqubov "Adolat manzili").*

Yuqoridagi misolda *qo'llari dir-dir titragan* jumlasida so'zlovchi asabiy, psixik affekt holatini ifoda etyapti. Demak, nolisoniy vositalarning yozishmada aniqlanishi lingvistik ekspertizadan tashqari psixolingvistik ekspertiza uchun ham ahamiyatlidir. Zotan, insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati uning nutqi va harakatlari aks etadi.

Fonatsion paralingvistik vositalar nutq ohangi bilan aloqador bo'lib, bunga nutq sur'ati, tovushlarning fizik-fiziologik xususiyatlari kiradi. Fonatsion aloqa vositalari insonning holati, uning tuyg'ulari, ichki holati va hatto temperamenti va xususiyatlari to'g'risida yetarli darajada aniq ma'lumot beradi (Allaberdiyeva 2023). So'zlovchining suhbatdoshiga nisbatan ijobiy, salbiy munosabatda ekanligi fikr ifodalalanayotgan paytda so'zlarning qanday talaffuz etilishi, ovoz ohangidan ayon bo'ladi. Intonatsiyaning pasayishi yoki kuchayishi, ifoda sur'ati, pauza, yo'g'on, ingichka ovozda gapirish, so'zlash jarayonidagi ohang xususiyatlari aloqa-munosabatdagi qo'shimcha omillar sanaladi (Muratova 2021). Zotan, bunday vositalar so'zlarning talaffuz etilishi, intonatsion xususiyatlari bilan bog'liqdir. Demak, so'zlov-

chi ovoz ohangining, fonetik birliklarning akustik xususiyatlari: baland-pastligi, tembri, to'liqlik-to'liqsizligi, keskin, dag'alligi orqali nutqida salbiy va ijobiy emotsiyalarni aks ettirar ekan, bu ovozning fizik-fiziologik jihatiga aloqador bo'lib, so'zlovchining nutqiy maqsadini belgilab beruvchi vositadir.

Fonatsiya yunonchadan "ovoz, tovush" degan ma'noni anglatadi va bunday vositalar 2 turga ega:

1. Lingvistik fonatsiya;
2. Paralingvistik fonatsiya.

Lingvistik fonatsiya - so'zlarni yuzaga keltiruvchi nutq tovushlari, intonatsiya, so'z va mantiqiy urg'u, pauzalar orqali hosil bo'ladi. Paralingvistik fonatsiyada (Панина 2003, 35) esa ovozning vokal sifatleri, diapazoni, tembri va ovoz kuchi kabi vositalar (tovush), diktsiya, ohang (ohang harakati), xarakteristikalari (yoki ekstralingvistik fonatsiya), pauza joylovchilari, til imo-ishoralari, tovushlarning artikulyatsiyasini o'z ichiga oladi, ya'ni bu nutqning individual aqliy va fiziologik xususiyatlari hisoblanadi. Fonatsiyaning har ikkala turi ham ekspertizada tadqiq etiluvchi manbalar sanaladi. Audioyozuvdagi lingvistik fonatsiyani ekspertiza qilish orqali ko'pgina masalalar oydinlashadi. Masalan, biror so'zning urg'usiga xos xususiyatini aniqlash so'zlovchining millati, milliy tilini belgilashda; gapdagi mantiqiy urg'uning tahlili nutq vakilining ko'zlagan maqsadini anglashda; pauza va to'xtamlar orqali uning psixologik-fiziologik holatini bilishda ahamiyatli sanaladi.

Paralingvistik fonatsiya orqali esa audiyozuvning vokal sifati, instrumental obyekt, nutqning ifoda xarakteristikasi, ovoz tempi, toni, temri, artikulyatsiyasi kabi fiziologik xususiyatlari oydinlashadi. Bu so'zlovchi haqidagi daliliy ashyolardan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ekstralingvistika, ovoz tembri, kuchi kabilar. Ekstralingvistik vositalar so'zlovchining nutq paytidagi emotsional holatini ovoz orqali namoyon etishidir: to'xtam uchun yo'talib qo'yish, yig'i, kulgu, xo'rsinish, pichirlash, duduqlanish kabilar. Nutq tembri esa ovozning individual - tovushning jozibador yoki aks xarakterda ekanligi, bu nutqni o'ziga xos ovoz va hissiy jihatdan ekspressiv qiladi. Insonlarni ovozining tembri orqali uni ko'rmasdan taniy olasiz, chunki bu identifikatsiya belgisining bir turi. Individual tembrga to'liq tavsif berish juda qiyin, ammo uni belgilari yordamida xarakterlash mumkin: jarangdor ovoz, baland, qari va boshqalar. Yetarlicha tajriba va e'tiborga ega bo'lsak, suhbatdosh haqida kerakli ma'lumotni uning ovoz tembrini tahlil qilib olish mumkin (Панина 2003, 35). Shuningdek, ritm ham insonning individual xususiyati bilan aloqador bo'lib, u in-

sonning nafas olishi bilan aloqador. Nutqiy nafas olish tovushlarning shakllanishi manbai sanaladi. U orqali nutq ritmi shakllanadi. Nutqning ravonligi, assimilatsion belgilari nutqiy nafas orqali yaqqol aks ettiriladi. Rus olimi A.A.Kazanechok ovozning tempi xususida quyidagini ta'kidlaydi: "Nutqning tezligi va sekinligi patologik holat bilan aloqador bo'lib, u quyidagilardir: taxilaliya va bradilaliya. Taxilaliya – tezlashirilgan nutq bo'lib, u bir xil so'zlarning takrorlanishi, duduqlanish bilan tavsiflanadi. Bradilaliya esa nutqning patologik sekinlashish holati bo'lib, bu noaniq artikulatsion jarayon orqali amalga oshadi. Bu, ko'pincha, unli tovushlarni cho'zish bilan xarakterlanadi (Казаченок 2020, 18)". Shuningdek, nutq tezlashishi ayrim qisqartmalarni yuzaga keltiradi. Bu yozuvda ham aks etishi mumkin: - lar shakli " / ", - dan kelishigi " = ", keyin so'zi "k-n" tarzida. Bu yozuvdan tashqari holatda nutqning ong doirasida tezlashishi bilan aloqador sanaladi. Demak, nutq tempi, ovoz toni, ritmi, ekspressiv ifoda va lingvistik fonatsion belgilarning bari so'zlovchining individual hamda ijtimoiy belgilari haqida axborot beradi. Shuning uchun ham, yuqoridagi vositalarning tadqiqi sud-huquq tizimi, lingvistik ekspertizada dolzarb o'rinda turadi.

Audio va videoyozuvli yozishmalarning tahlili lingvistik ekspertizaning fonoskopik tahlil yo'nalishi bilan aloqador sanaladi. Fonoskopik ekspertizada ovozli xabarlar quyidagi tahlil usullari orqali amalga oshiriladi:

- Audit tahlili;
- Lingvistik tahlil;
- Instrumental tahlil;
- So'zlovchining nutq madaniyatini baholash tahlili

(Каганов 2005, 272).

Audit va instrumental tahlil fonoskopik uskunalar yordamida aniqlanadi. Lingvistik tahlil esa yozma matnlarning ekspertizasi singari amalga oshiriladi. Xususan, bu jarayon yozishmadagi lisoniy birliklarning leksik, sintaktik, morfologik, stilistik jihatlarini qamrab oladi. Bunda yozishmaning mazmuniy jihati muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lingvistik tahlilda leksemalar, shuningdek, morfemalarning hududiy yoki ijtimoiy chegaralanganligini aniqlash, ularning adabiy me'yorga muvofiqligi, stilistik xususiyatlarini belgilash, ifoda xarakterini ochib berish kabi masalalar orqali matn avtorizatsiyasini aniqlash mumkin.

Ekspertizaning to'rtinchi usuli "So'zlovchining nutq madaniyatini baholash" bo'lib, bu bevosita tilshunoslikning lingvokulturologiya, sotsiologiya, pragmalingvistika sohalari bilan aloqadordir.

Xususan, nutqda hurmat mazmunini ifodalash uchun bir nechta lisoniy vositalardan foydalanish mumkin. Tilshunos olim H.Ne'matov, B.Mengliyev, Sh. Hamroyeva buni quyidagicha izohlashgan (Ne'matov, Mengliyev, Hamroyeva 2020, 103): "Hurmat ma'nosidagi lisoniy vositalar tilning turli bo'limiga mansub. Bular fe'lning hurmatga shakli (shaxs, son va hurmat qo'shimchasi), fe'lning o'zak-negizi, otning egalik shakli (shaxs, son va hurmat qo'shimchasi), otning o'zak-negizi, otlashgan so'z (shaxs-son va hurmat qo'shimchasi bilan), olmosh, son (otning o'rnida qo'llanuvchi so'z), sifat, ikki otning o'zaro birikuvi, ot bilan olmoshning birikuvi, ohang. Hurmatga aloqador birliklarning struktural-funksional-semantik tadqiqi so'zlovchining nutqiy maqsadini aniqlashni taqozo etadi. Otning -lar son shakli orqali hurmat, kinoya-kesatq ma'nolarini ifoda etish mumkin. Masalan, *To'rajon, arzimiz shuki, bebosh buzuqi birgina shariatga emas, balki podshoh hazratlarining sha'niga ham yomon gaplar aytgan. Hamza, "Boy ila xizmatchi"*. Ushbu misolda -lar shakli uslubiy vazifa bajarib, hurmat ma'nosini ifodalaydi. Yozishma qo'lyozma, elektron bosma, audio va video shakllarda bo'lishidan qat'i nazar lisoniy birliklarning lingvokulturologik jihati tahlilga tortiladi. Bu nutqiy vaziyat, jarayonga aniqlik kiritish bilan bir qatorda so'zlovchi va tinglovchining kasbiy faoliyati, ijtimoiy-siyosiy qatlami haqida axborot beradi.

Hurmat va hurmatsizlik, kinoya-kesatq, obro'sizlantirish, haqorat, kamsitish kabi tushunchalarni ifoda etuvchi lisoniy birliklarning mavjud bo'lgani singari nutqning intonatsion xususiyatlari ham bunday munosabatlarni yoritib berishi mumkin. Nutqdan fonatsion paralingvistik vositalarni aniqlash sud-huquq tizimida yuqoridagidek munosabatlarni jamiyat a'zolariga emotsional, ijtimoiy ta'sir etishning oldini olish, insonning huquqiy manfaatlarini himoya qilish kabilarda ahamiyatli sanaladi. Masalan, quyidagi misoldagi tana harakati orqali hujumkorlik, tajovuz belgilarini uchratish mumkin: *Odam o'ldiruvchi, xunxo'r, qotil. U toshdek og'ir gavdasini kuch bilan Mardonbek tomon tashlagan zamonAQ, qattol birin-ketin ikki o'q uzdi. (S.Azimov, "Oppoq tong qo'shig'i")*. Quyidagi misolda esa qahramonning mimikasi, ovoz tonining pastligi qahramonning psixologik-fiziologik belgilarini ifoda etadi. Bunda salbiy yoki ijobiy ma'noni ilg'ab olish qiyin. Belgi sifatida berilgan *yolvorgan yig'i tovushi* birikmasi so'zlovchining iltimosona munosabati ochib beryapti: *Nusratilla vahshiy ko'zlarini yiltiratib, titrab, shivirlab, yolvorgan yig'i tovushi bilan gapirar edi. A.Muxtor, "Opa-singillar"*.

Og'zaki nutq fanning turli sohalari tomonidan o'rganildi.

Fizika, fiziologiya, musiqa, psixologiya kabi fan tarmoqlari uning turlicha qirralarini tadqiq etishdi. Lingvistik ekspertizada ham ovoqli nutqni o'rganish sohasi mavjud bo'lib, u kriminalistik ahamiyatga ega sanaladi. Xususan, og'zaki nutqni tahlil etish orqali so'zlovchining ijtimoiy mansubligi: kasbi, tabaqasi, jamiyatdagi o'rni hamda individual xususiyatlari: yoshi, jinsi, millati, irqi, tili kabilar haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu sud jarayonida og'zaki nutqqa aloqador daliliy ashyolarni tadqiq etishda ahamiyatlidir. Bu xususda olim shunday ta'kidlaydi: audioyozuvni o'rganish orqali so'zlovchining quyidagi belgilari aniqlanishi mumkin (Карахов 2005, 25-26):

- Jismoniy (nutqning akustik tavsifiga ko'ra). Bunda nutqning fizik xususiyatlari hisobga olinadi;
- Biologik (nutqning fizik-fiziologik tavsifiga ko'ra). Bu orqali so'zlovchining anatomik, fiziologik holati hisobga olinadi.
- Psixologik (shaxsning neyrofiziologikva psixologik tavsifiga ko'ra). Bunda so'zlovchining psixologik, emotsional-ekspressiv, stress va asabiy holati inobatga olinadi.
- Intellektual. Bunda so'zlovchining individual xususiyatlari: aqliy, axloqiy, kasbiy kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda so'zlovchini aniqlash maqsadida audioyozuvli nutq turli jihatdan o'rganiladi. Kriminalistika shunday vaziyatlar bo'ladiki, ovozni o'zgartirish, nutq tempiga moslash, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilgan deformatsiyalashga, o'zganing nutqiga o'xshatishga harakat qilishadi. Ammo so'zlovchiga xos individual belgilar muayyan miqdorda bo'lsa-da nutqda saqlanib qoladi. Bugungi kunda jahon ilm-fan sohasida bu masalada sud-tibbiy fonoskopik tahlillar rivojlangan va yuqoridagi masalalar to'liq dasturlash asosida amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan. Ushbu masalada ikki tushuncha farqlanadi. Birinchidan, ovoqli xabarning analogik xarakteri – bunda nutq muayyan shaxs tomonidan ovoz tebranishlari, toni, sur'atini o'zgartirgan holda bayon etiladi. Ya'ni o'zganing nutqiga o'xshatma qilishda inson omilidan foydalaniladi. Ikkinchidan esa, nutqning ovoqli montaj asosidagi xususiyati bo'lib, bunda audioyozuv elektron raqamli tahrirlash, qayta ishlash orqali o'zgartiriladi. Bu holatda og'zaki nutqning individual xususiyatlari barqaror va o'zgarmas ekanligini inobatga olish kerak. Ammo undagi lingvistik belgilar o'zgaruvchan hamda beqaror bo'lishi mumkin. Bu nutqning nafaqat leksik jihatidan, balki morfem-morfologik, sintaktik tomonlaridan ayon bo'ladi. Fonetik va intonatsion xususiyatlari esa bundan mustasnodir. Shunga ko'ra ovoqli xabar, audioyozuvlarni tahlil qilish quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

- instrumental;
- eshitish;
- lingvistik tahlil (Иванашко 2017, 17).

Yuqoridagi instrumental, eshitish va lingvistik tahlil yozishma avtorizatsiyasini aniqlashda taxminiy xulosani yuzaga ketiradi. Yozishma avtorizatsiyasini aniqlashdan ilgari nutqning umumiy jihatlariga e'tiborni qaratmoq lozim. Masalan, nutq vaziyati: shovqinli, tinch; ovozning holati: baland, pastligi; nutq usuli: pichirlash, shivirlash, baqirish kabi. Keyingi masala esa gumonlanuvchi shaxslar nutqi va dalil sifatida olingan audioyozuvni umumiy jihatlariga ko'ra qiyoslashdir. Xususiy tahlil nisbatan izchil va aniq bo'lib, unda so'zlovchining jinsi, yoshi, kasbi va intellektual salohiyati kabi masalalar audioyozuv orqali oydinlashtiriladi. Shu omillarga ko'ra insonlar quyidagilar bilan ajralib turadi (Иванашко 2017, 18):

- nafas olishning har xil turlari: - klavikulyar (qisqa va yuzaki). Bu bo'yin suyaklarini yuqoriga ko'tarish ko'krak qafasining kichik kengayishi natijasida yuzaga keladi;

- ko'krak/qovurg'a (kengayadigan interkostal mushaklarning qisqarishi bilan boshlanadi ko'krak qafasi yuqoriga va yon tomonlarga). Eng keng tarqalgan nafas olish;

- qorin / diafragma (eng chuqur, ya'ni diafragma harakati orqali og'ir nafas olish).

Nafas olishning tavsifiy xususiyatlari va ko'lami og'zaki nutqning sur'ati, ritmi, tembri kabi jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Olimlarning tadqiqotiga ko'ra bu jarayonda o'pka hajmi muhimdir. Bu yosh bolalarda taxminan 6000 sm<sup>3</sup> dan, 1000 sm<sup>3</sup> gacha bo'ladi. Shunga ko'ra chuqur va nisbatan tinch nafas olish usullari mavjud. Masalan, chuqur nafas olishda - diafragma-kostal usulida nafas olish ancha qisqa bo'lib, bu 6-8 soniyada 2-3 martaga to'g'ri keladi. Bu bevosita nutq jarayoni bilan aloqador sanaladi. Gapirmay, sokin turgan holatda esa, nisbatan, tinch nafas olish kuzatiladi va bu jarayon 1,5-2 soniyani tashkil etadi. Bu nafas olish patologiyalari bilan ham aloqador. Bu astma, o'pka amfizamasi kabilarda namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarda nutq jarayonida nafas olishning og'ir va kuchsizligi, qisilishi, hushtaksimonligi va tez-tez pauzalar kuzatilishi kabi jihatlari bilan belgilanadi. Demak, og'zaki nutq, audioyozuvli daliliy ashyolarini lingvistik ekspertiza qilishda so'zlovchining biologik-fiziologik holati ham hisobga olinadi. Bunda insonning nafas olish holati va u orqali nutq sur'atining o'zgarishiga e'tibor qaratiladi. Shu kabi nutqning fonetik, intonatsion xususiyati umumiy tahlil orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi lingvistik belgilar, ularning morfem-morfologik,

синтактик, stilistik jihatlari esa xususiy tahlilni o'z ichiga oladi.

### **Xulosa**

Xulosa shuki, lingvistik ekspertizada og'zaki va yozma nutq tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. Lisoniy birliklar ekspertizasi nutqning har ikki turi uchun ham xos. Ammo noverbal vositalar audio hamda video yozishmalarda uchraydi. Bu fonoskopik ekspertiza usullari orqali tadqiq etiladi. Bunda so'zlovchining ovoz toni, tembri, ritmi va nutq sur'atiga ko'ra ijtimoiy hamda individual belgilari aniqlanadi. Shuningdek, noverbal vositalar sirasiga inson tana a'zolarining harakatlari ham kirib, ular videoyozuvli ashyolar orqali tahlil etiladi. Bunda suhbatdoshlarning jestlari, mimikasi, tana, gavda harakati orqali uning millati, mentaliteti, jinsi, nutqiy maqsadini aniqlash mumkin. Qolaversa, bunday nolisoniy vositalar muloqot vakillarining madaniyati, ma'naviy onggi, axloqiy tarbiyasi haqida ham axborot beradi.

### **Adabiyotlar**

- Мощева С. В. (2013). Дискурс массмедиа: роль и место графики и графических средств паралингвистики (на материале рекламных текстов) 109 [Текст] / С. В. Мощева// Перспективы науки и образования. – М.
- Колшанский Г.В. (1974). Паралингвистика [Текст] / Г. В. Колшанский. – М.: Наука.
- Горелов И. Н. (1980). Невербальные компоненты коммуникации [Текст] / И. Н. Горелов. – М.
- Вилсон Г. (2000). Язык жестов – путь к успеху [Текст] / Г. Вилсон, К. Макклафлин. – Санкт-Петербург: Питер.
- Верещагин Е.М. (1981). О своеобразии отражения мимики и жестов вербальными средствами. Вопросы языкознания [Текст] / Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров. – М.: Наука № 1.
- Баева Е. Д. (2010). Жест как важнейший аспект невербальной коммуникации [Текст] / Е. Д. Баева. – М.: Армавир.
- Панина Н.И. (2003). Паралингвистика [Текст]: Методическое пособие / Н. И. Панина. – Кострома: КГТУ.
- Василик М. А. (2009). Пара и экстралингвистические особенности невербальной коммуникации., М. А. Василик. – М.: Эксмо.
- Казаченок А.А. (2020). Паралингвистические средства в смешанных текстах. – Екатеринбург.
- Нурмонов А. (2012). Ўзбек паралингвистик воситалари//Танланган асарлар. 1- жилд. –Т.: Академнашр.
- Саидхонов М. (2008). Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. –Т.: Фан.
- Usmonova ,D.S,& Yusupova, M.I.Q.(2021). Comparative analysis of the somatic phraseological units of the english and russian languages with the component "heart". current research journal of philological science (2767-3758), 2(11), 94-99.

- Mirzayeva D.I., Xolmatova Z.A. (2022). Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 13-son.
- Nurmonov A. (2012). O'zbek paralingvistik vositalari// Tanlangan asarlar. 1-jild. – T: Akademiya nashri.
- Allaberdiyeva S.T. (2023). Fonatsion paralingvistik vositalar va ingliz tilidan o'zbek tiliga og'zaki tarjima jarayoni qo'llanilishi. Innovations in technology and science education. sjif , issn 2181-371x, volume 2 issue 14.
- Muratova N.B. (2021). Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy vositalardan foydalanishi. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1197-1203.
- Каганов А.Ш. (2005). Криминалистическая экспертиза звукозаписей. – М.: Изд-во "Юрлитинформ".
- Ne'matov H.G., (2020). Mengliyev B.R., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Monografiya – Toshkent.

## **Linguistic examination of linguistic and non-linguistic means in personal correspondence**

Dildora Turayeva<sup>1</sup>

### **Abstract**

The development of Science and technology assumes the integration of various disciplines. As a result of the judicial system and linguistic cross-section, the field of linguistic expert science of Applied Linguistics arose. This study reflects on the study of verbal and nonverbal tools in world and Uzbek linguistics, their importance in speech and their analysis in various aspects. Also, the study of these signs in linguistic, phonoscopic examination, significance in the judicial system are presented with several theoretical data as well as practical expressions. The classification features of paralinguistic signs and their place in personal correspondence are dis-

---

<sup>1</sup> *Turayeva Dildora Anvarovna* – Alisher Navoi Tashkent state university of the uzbek language and literature, 2-course DSc

**E-mail:** dildoratorayeva9@gmail.com.

**ORCID:0000-0002-2595-3516.**

**For reference:** To'rayeva Dildora. Linguistic examination of linguistic and non-linguistic means in personal correspondence. Uzbekistan: language and culture. Linguistics. 2024-1: 81-93.

cussed.

**Keywords:** *linguistic and nonlinear means, paralinguistic, extralinguistic, mimicry, gesture, kinesics, vocalica, phonoscopic examination, phonation, audit, acoustics, articulation.*

### References

- Mosheva S. V. Mass media discourse: the role and place of graphics and graphic means of paralinguistics (based on the material of advertising texts) 109 [Text] / S. V. Mosheva//Prospects of science and education. – M., 2013. - Issue 4.
- Kolshansky G.V. Paralinguistics [Text] / G. V. Kolshansky. – M.: Nauka, 1974..
- Gorelov I. N. Nonverbal components of communication [Text] / I. N. Gorelov. – M., 1980.
- Wilson G. Sign language – the way to success [Text] / G. Wilson, K. McClaughlin. – St. Petersburg: Peter, 2000.
- Vereshchagin E.M. On the peculiarity of the reflection of facial expressions and gestures by verbal means. Questions of linguistics [Text] / E. M. Vereshchagin, V. G. Kostomarov. – M.: Nauka No. 1, 1981.
- Baeva E. D. Gesture as the most important aspect of nonverbal communication [Text] / E. D. Baeva. – M.: Armavir, 2010.
- Panina N.I. Paralinguistics [Text]: A methodological guide / N. I. Panina. Kostroma: KSTU, 2003.
- Vasilik M. A. Para- and extralinguistic features of non-verbal communication., M. A. Vasilik. – M.: Eksmo, 2009.
- Kazachenok A.A. Paralinguistic means in mixed texts. – Yekaterinburg: 2020.
- Nurmonov A. Uzbek paralinguistic tools/ / selected works. Volume 1. – T.: Akademnashr, 2012.
- Saidkhanov M. Communication-intervention and gestures. – T.: Science, 2008.
- Usmanova, D.S,& Yusupova, M.I.Q.(2021). Comparative analysis of the somatic phraseological units of the english and russian languages with the component “heart”. current research journal of philological science (2767-3758), 2(11).
- Mirzayeva D.I., Kholmatova Z.A. History of paralinguistics, current era non-verbal tools and their importance in advertising. Journal of interdisciplinary innovation and scientific research in Uzbekistan, No. 13, 20.11.2022.
- Nurmonov A. Uzbek paralinguistic tools/ / selected works. Volume 1. – T.: Akademnashr, 2012.
- Allaberdieva S.T. Phonatory paralinguistic means and the application of the process of oral translation from English to Uzbek. Innovations in technology and science education. scif 2023: 5.305, issn 2181-371x, volume 2 issue 14.
- Muratova N.B. The use of nonlinear means of the addressant and addressee in the discourse process. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Sci-

entific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-111197-1203.

- Kaganov Compiled A.Sh. Kriminalisticheskaya examination zvukozapisey. – M.: Izd-Vo “Yurlitinform”, 2005. – 272 P.
18. Ne’matov H.G., Mengliev B.R., Hamroyeva Sh. Methodological issues of linguistics. Monograph. –Tashkent, 2020.

# “Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi

Xilola Uzakova<sup>1</sup>

## Abstrakt

Maqolada aksiolingvistik konseptlarning antroposentrik paradigma tahlillariga asoslanishi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika bilan aloqadorligi yoritilgan. Dunyo tillarida “sadoqat” konseptining ifoda vositalari xilma-xilligi qayd etilgan. O‘zbek tilida “sadoqat” konseptining lug‘aviy birliklar – leksik vositalar va barqaror birikmalar hamda timsollar orqali ifodalanishi tahlil qilingan. “Sadoqat” konseptining timsollar orqali ifodalanishi, asosan, maqollar matnida kuzatilishi ta’kidlangan.

“Sadoqat” konseptining zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari orqali ramziy tarzda aks ettirilishi misollar asosida tahlil etilgan. Maqollarda timsollar orqali ifodalangan “vatanga sadoqat”, “yurtga sadoqat”, “o‘zlikka sadoqat”, “elga sadoqat” kognitiv belgilari aks ettirilgan.

“Sadoqat” konseptining timsollar orqali ifodalanishi obrazlilikka, konsept mazmunini ta’sirchan yetkazishga, milliy-madaniy ramzlar orqali ifodalashga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *aksiolingvistika, antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, konsept, “sadoqat” konsepti, zoonim, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari, timsol, ramz, obrazlilik, ta’sirchanlik.*

## Kirish

Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasini inson omili, bahosi va qadriyat nuqtayi nazaridan tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Inson tafakkuri, baho va qadriyatning shakllanish omillari, lug‘aviy birliklar semantikasida aks etish darajasi aksiolingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylandi. Borliq haqidagi axborot, muloqot ishtirokchilari, til egalari rining munosabati lug‘aviy birliklar semantikasida aks etadi. Qadriyat va aksqadriyat, subyektiv baho – munosabat, xalq turmush tajribasi, lug‘aviy birliklarning aksiologik mazmunni ifodalashdagi psixolingvistik, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari semantik

<sup>1</sup> Uzakova Xilola – Davlat xafsizlik xizmati “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi.

**Iqtibos uchun:** Uzakova Xilola. “Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi. O‘zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*. 2024-1: 94-109.

mundarijada, semalar taraqqiyotida o’z ifodasini topadi.

Dunyo tilshunosligida lug’aviy birliklarning semantik taraqqiyoti, lingvokulturologik xususiyatlari, madaniy semalar taraqqiyotini qadriyatlar negizida o’rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Konseptlarning shakllanishi, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, konseptlarning mental va kognitiv xususiyatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qadriyatlar madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsuli sifatida zamon ruhi, imkoniyatlari, insonning borliqqa, voqelikka munosabati, orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlarini o’zida aks ettiradi.

Lug’aviy birliklar semantikasida ma’nodan tashqari insonning borliqqa, voqelikka, ijtimoiy jarayonlarga munosabati, bahosi o’z ifodasini topadi. Qadriyatlar kognitiv xususiyatga ega bo’lib, jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. O’zbek tilshunosligida lug’aviy birliklar semantikasining valentlik xususiyatlari, semalar tarkibi o’rganilgan. Lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy va chog’ishtirma aspektida tadqiq etilgan. Ammo lug’aviy birliklar semantikasi baho, qadriyat nuqtayi nazaridan ochib berilmagan. Qadriyat tushunchasini inson omili va lug’aviy birliklarning to’plash vazifasi aloqadorligida yoritish: leksema semantikasidagi baholash kategoriyalarini aniqlash; qadriyat, baho ifodasi, aksiologik bahoni subyektiv munosabat shakli sifatida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. “Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bugungi kunda biz Markaziy Osiyoning kelajagi bo’lmish yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim” (Mirziyoyev 2022). Shu nuqtayi nazardan, lug’aviy birliklar semantikasining aksiolingvistik tahlili dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aksiolingvistik tahlillarning nazariy asosini belgilab beradigan kognitiv tilshunoslik integrativ soha sifatida bevosita psixolingvistik yondashuvni ham talab etadi. Til birliklarining olam manzarasini ifoda etishi, so’zlovchining fikrini kodlash jarayoni, tinglovchi tomonidan nutqning qabul qilinishi psixolingvistik tahlillar orqali ochib beriladi.

Z.D.Popova, I.A.Sterninlar konseptni lisoniy ong, tafakkur faoliyati mahsuli sifatida talqin qiladilar. Konseptlarning inson ongidagi tartibli tizimi konseptosferani yuzaga keltirishini ta’kidlaydilar. Tilni inson ongi konseptosferasi kirish hamda ongning konseptual mazmunini ma’lum bir jihatdan anglash vositasi sifatida tavsiflaydilar. Kognitiv tilshunoslikni u yoki bu konsept xususiyatlarini qamrab oluvchi, moddiylashtiruvchi, verballashtiruvchi til birliklarining semantikasini yoritishini, til birliklarining semantikasi-

ni o'rganish orqali tafakkur birligi sifatida konseptlar mazmuniga kirish mumkinligini qayd etadilar. Ma'noni tafakkurga aloqadorlikdagi lisoniy ong elementi deb, konseptni kognitiv birlik sifatida ta'riflaydilar. Konsept va ma'no– tafakkurning kognitiv mazmundagi mahsuli, ma'no konseptning til belgilariga kommunikatsiya maqsadida singdirilgan tafakkur birligidir (Popova, Sternin 2007; Murot-xodjayeva 2022).

### Asosiy qism

Jahon tilshunosligida umuminsoniy qadriyatlar, milliy-madaniy tushunchalar konseptual jihatdan tahlil etilgan bo'lib, konseptlar tadqiqining lingvistik jarayonlarni yoritishdagi o'rni, til va tafakkur munosabatlari, lisoniy ong, mental tuzilma xususiyatlarini ilmiy asoslashdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Dunyo madaniyatida qadriyat sifatida talqin etilgan genetik taraqqiyot, mental ong va milliy madaniyat belgilarini jamlagan murakkab tuzilmalardan biri "sadoqat" konseptidir.

"Sadoqat" konsepti turli tillarda har xil nomlanadi, shuningdek, ifoda vositalari ham turlichadir. O'zbek tilida "sadoqat" konsepti ikki xil vosita yordamida ifodalanadi. Birinchisi, "sadoqat" konseptining muhim semantik belgilarini aks ettiruvchi leksik birliklar, barqaror birikmalar bilan ifodalansa, yana bir ko'rinishi timsollar orqali namoyon bo'lishidir. "Sadoqat" konseptining timsollar orqali ifodalanishi, asosan, maqollar matnida kuzatiladi. Maqollarda "sadoqat" konsepti zoonimlar, fitonimlar, tabiat hodisalari timsollarida aks ettirilgan.

"Sadoqat" konsepti zoonimlarning shaxs otlariga munosabati asosida aks ettirilgan:

**el > ot:** *El – qo'ngan yerda, Ot – to'ygan yerda; El qo'ngan yerni bilar, Ot to'ygan yerda tinar* [O'XM,12] maqollarida yurtga sadoqat ko'rsatgan **er** timsoli sadoqatsizlik, bevafoqlikni namoyon etgan **ot** timsoliga qarama-qarshi qo'yilgan va undan afzal, deb baholangan.

**el = ot:** *Yaxshi odam qarisa ham so'zi aynimas, Yaxshi ot qarisa ham yurishi aynimas* [O'XM,310] maqolida o'zlikka sadoqat konsepti shaxs oti va zoonim vositasida ifodalangan.

"Sadoqat" konsepti zoonimlar orqali aks ettirilgan.

O'zbek xalqida ot va it sadoqat ramzi hisoblanadi. Bu qadriyat badiiy matnlarda ham aks etgan:

– *Ha-a, Ot odamni bosmaydi, nimaga shunday?*  
– *Boisi, ot odamzotni ulug'laydi. Odamzotga vafo qiladi. Hayvonlar ichida ot bilan it shunday* (Tog'ay Murod, 76).

"Ot kishnagan oqshomda" asarida ot orqali "sadoqat" kon-

septining tadrijiy lingvistik vositalar orqali ifodalanganini kuzatish mumkin. Qahramon ot sadoqatini *ko‘pdan bilish asosidagi sodiqlik* → *uka sadoqati* → *jiyan sadoqati* → *aka sadoqati* → *birodar sadoqati* → *qiyomatli birodar sadoqati* mantiqiy tizmasi orqali ifodalagan:

*bilish asosidagi sodiqlik:*

*Tarlon-ay, nima kunlarga qolding-a?... Tushda bo‘lyaptimi, yo o‘ngda bo‘lyaptimi? Sen farqlamasang, men farqlay olmay qoldim, Tarlon... Haligilar qanday jonzot edi, Tarlon! Sin-simbati odamga kelbat beradi. Ust-boshlari-da bor. Odamga mayzab gapiradi, odamga mayzab kuladi... Bilmadim, Tarlon, bilmadim. Sen bilmasang, men bilmadim. Men seni bilaman, Tarlon. Ular men uchun begona, Tarlon...*

Qahramon jonzotga murojaat etib, o‘zining qavmidagilarni “jonzot” deb ataydi. Ularni “bilmas”ligini bayon beradi. Otni “bilishi”ni aytadi, ya‘ni uning do‘stligi, sadoqatiga shubha qilmasligini birgina so‘zda mujassamlantirgan;

*uka sadoqati:*

*Ayo Tarlon, sen mening ukamsan, ukam. Bo‘ldi, men endi ularni ukam demayman. Mening ukam sensan. Sen mening ukamsan, Tarlon. O‘zi menga o‘xshaysan, Tarlon, menga... Ukasi akasiga o‘xshaydi-da, Tarlon... Tarlon ukam-ov, endi nima qilamiz? Endi, bola-chaqaga borib nima deymiz? El so‘rasa nima deymiz?..*

Qahramon jonzotni o‘ziga uka maqomida ko‘radi. Ularga yomonlik qilgan kimsalarni “uka” demasligini aytish bilan xiyonatga nisbatan isyonini bayon qiladi;

*jiyan sadoqati:*

*Ayo Tarlon, sen mening jiyanimsan, jiyanim.*

*Bo‘ldi, men endi ularni jiyanim demayman. Mening jiyanim sensan, Tarlon. Sen menga tortding, Tarlon. Jiyan tog‘asiga tortmasa, kimga tortadi, Tarlon... Tarlon jiyanim-ov, yo yo‘lda yiqildik, deymizmi? Ko‘zlaring bor edi-ku, desalar-chi? Ariq loy ekan, toyib ketdik, deymiz. Binoyimi, Tarlon jiyanim? Bo‘lmasa, elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lamiz...*

Keyingi galda jonzotni o‘ziga jiyani maqomida tavsiflaydi. Jonzotda o‘ziga o‘xshash belgilar borligini e‘tirof qiladi;

*aka sadoqati:*

*Ayo Tarlon, sen mening akamsan, akam.*

*Bo‘ldi, man endi ularni akam demayman. Mening akam sensan, Tarlon. Uka desa degulik, mendayin ukang bor, aka desa degulik, sendayin akam bor, nima g‘amim bor, Tarlon...*

Qahramon jonzotni “aka” deydi, unga tayanishini aytadi.

*birodar sadoqati:*

*Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim. Bo'ldi, men endi ularni birodarim demayman. Mening birodarim sensan, Tarlon...*

Qiyomatli birodar sadoqati: *Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim...* (Tog'ay Murod, 84).

Qahramon jonzotni "birodar" deb ataydi. Birodar forscha-tojikcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "aka" yoki "uka" tushunchasini ifodalaydi: *birodar* 1. Aka yoki uka; og'a yoki ini. 2. Faoliyati, qarashlari, munosabatiga ko'ra o'zaro yaqin shaxs; hamdam, do'st. 3. O'rtoq, og'ayni (murojaatda).

Shu so'zdan yasalgan *birodarlashmoq* "aka-ukalardek, og'a-inilardek bo'lib ketmoq"; "inoqlashmoq, do'stlashmoq"; *birodarlik* "aka-ukalik, og'a-inilik"; "aka-ukalardek, og'a-inilardek do'stona munosabat"; "inoqlik, do'stlik"; *birodarona* "aka-ukalardek", "og'a-inilardek"; "yaqin, qarddon kishilardek; do'stona" ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL, I, 279). *Birodar* so'zi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, shevalarda "do'st" ma'nosida ishlatiladi.

*Har toycha o'zi suv ichgan bulog'ini maqtar* (O'XM, 15) maqolida toycha timsoli vatanga sadoqatni ifodalashga xizmat qilgan.

**it > bek:** *Birovning yurtida bek bo'lguncha, o'z yurtida it bo'l* (O'XM, 9). *It* leksemasi "pastlik", "qo'li kaltalik" semalariga ko'ra *bek* leksemasiga ("yuqori martaba", "qo'li uzunlik" semalari asosida) zid qo'yilgan. *Itlik* "o'z yurt" tushunchasi *beklik* tushunchasiga ("o'zga yurt" tushunchasi negizida) aksqadriyat sifatida baholangan.

**er > it:** *Er tuqqan yeriga, it to'ygan yeriga* (O'XM, 310) maqolida er tuqqan yeriga sadoqat ko'rsatgani uchun ulug'langan. Itning bir joyda turg'un bo'la olmasligi qoralangan.

Maqollardagi *it* timsoli qadriyat yoki aksqadriyatni ifodalashga xizmat qiladi. Qadriyat ifodasi uchun xizmat qiladigan *it* timsoli "vatanparvarlik", "vafodorlik", "mehnatsevarlik", "oriyatlilik", "ozodalik", "shukronalik", "xayr-baraka" kabi tushunchalarni bildirsa, aksqadriyat sifatida "pastkashlik", "pastlik" "ochko'zlik", "noshukurlik", "laganbardorlik", "farosatsizlik", "axloqsizlik", "tamagirlik", "nomardlik", "erinchoqlik", "janjalkashlik" tushunchalarini anglatadi.

O'zbek xalq maqollarida *it* timsoli "sadoqat" konseptini aks ettirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Til sohibi ongida *it* vafo, sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi: *Bevafo yordan vafodor it yaxshi, bevafo yordan osilgan dor yaxshi* maqolida *befavo yor* – *vafodor itga va osilgan dorga* zidlanmoqda. *Yordagi "yuksaklik"* (inson), *itdagi "pastlik"* (hayvon) semalari *bevafo* – *vafodor* zidligiga uyg'un holda namoyon bo'lgan. *Osilgan dor* qofiya (saj') talabi bilan qo'llangan, "o'lim" tush-

unchasini ta’sirchan aks ettirgan. *It – vafo, xotin – jafo; It – cho‘ponning qo‘ldoshi, yolg‘izlikda yo‘ldoshi; It – egasi uchun, qush –tomog‘i uchun; It egasiga hurmas* maqollarida itning egasiga odatdagi sadoqati xususida fikr yuritilgan. Inson hamisha unga ko‘maklashgan, zarur paytda yordam qo‘lini cho‘zgan, mehr-muhabbat bilan muomala qilgan odamlarni yodida tutishi, shunga yarasha javob qaytarishi lozimligi anglashiladi (Tosheva, 2018).

*It vafo – xotin jafo* (O‘XM, 242) maqolida *it* vafo ramzi sifatida tasvirlangan. “Hayvon” iyerarxik munosabatidagi *it* tushunchasi “inson” iyerarxik munosabatidagi xotindan ustun qo‘yilgan. Ustunlik o‘lchovi sifatida “vafo” belgilangan.

*Odami bo‘lsa vafo andin yiroq,  
It vafo bobida andin yaxshiroq* (Lison ut-tayr, 6).

Zoonimlar “elga sadoqat” konseptini ifodalashga xizmat qilgan: *O‘zga yurtning qozisi bo‘lguncha, o‘z elingning tozisi bo‘l* (O‘XM,14) maqolida “elga sadoqat” konsepti metonimiya hodisasi asosida ifodalangan. “O‘zga yurt” birikmasi “o‘zga el” ma’nosida qo‘llangan. Chunki *qozilik* makonda, yurtda emas, bevosita elning ijtimoiy munosabatlariga xos faoliyat-jarayon otidir. *Qozi va tozi* tushunchalari asosida “sadoqatli hayvon” timsoli “sadoqatsiz inson”dan afzal baholanmoqda.

Tog‘ay Murod asarida itning sadoqati bilan bog‘liq urf-odat tasviri keltirilgan: *Kelinlar tong saharlab turadi! Kelin ayollar hamrohligida eshikni ochdi, tuynukni ochdi. Shu xonadonga sodiq bo‘lish ramzida it yalog‘iga ovqat qo‘ydi. Idish-toboqlarga bir-bir ko‘z soldi. Porillabyonmish olovga moytomizdi. Bu baxtli bo‘lish ramzi bo‘ldi* (Tog‘ay Murod, 36). Sodiqlik bo‘lish istagi it yalog‘iga bog‘liq qadriyatda o‘z aksini topgan.

**qo‘zi > ohu:** Muhammad Yusufning mashhur she’rida ona zaminda ulg‘aygan qo‘zi arab ohusidan ustun qo‘yilgan va shu timsol orqali vatanparvarlik aks ettirilgan, yurtga sadoqat tuyg‘usi tasvirlangan:

*Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing  
Arab ohusidan go‘zalroq menga...*

*Tovushqonga tug‘ilgan tepasi aziz* (O‘XM,11) maqolida zoonim vatanga, tug‘ilgan makonga sadoqat ko‘rsatgan timsol sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tepa esa qadrdon makon ramzidir.

*Fil tushida Hindistonni ko‘rar* (O‘XM,11) maqolida yurtga sodiqlik fil timsoli orqali ifolanmoqda.

Zoonimlar vositasida “yurtga sadoqat konsepti” ifodalangan:

*Bulbulga bog' yaxshi, Kaklikka tog'* (O'XM,9) maqolida bog' va tog' leksemalari "vatan", "o'z yurt", "ona tuproq" tushunchalarini ifoda etmoqda.

Abdulla Oripovning mashhur she'rida *bulbul* tilga sadoqat ramzi, to'ti esa tilda beqarorlik belgisini ifodalovchi timsol sifatida foydalanilgan:

*Ming yillarkim, bulbul kalomi,  
O'zgarmaydi- yaxlit hamisha.  
Ammo sho'rlik to'tining holi-  
O'zgalarga taqlid hamisha.*

Bulbul timsolidagi *sadoqat* belgisi kalomning o'zgarishida ko'rinadi. Bulbulning bir xil sayrash qobiliyati bir xil, o'zgarish, yaxlit kalomga – so'zga, tilga qiyoslangan. To'ti timsolidagi beqarorlik, sadoqat ko'rsata olmaslik "o'zgalarga taqlid" birikmasi orqali anglashiladi. Bulbul timsolidagi presuppozitsiya orqali "ona tili", to'ti timsolidagi "o'zga til" tushunchasi ifodalangan:

*Ona tilim, sen borsan, shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.*

*Har kim – eliga, O'rdak ko'liga* (O'XM,15) maqolida elga sadoqat tushunchasi jonzotlarning o'z makoniga intilishi bilan qiyoslangan.

*Har qush o'z uyasiga qarab uchar* (O'XM,15) maqolida qush sadoqat ifodalovchi timsol sifatida namoyon bo'lgan.

*Qush ham ketsa, keladi, o'z elini sevadi* (O'XM, 150) Yurtga sadoqat qushning qaytishi orqali ifodalangan.

Qush butaga sig'inar, odam vatanga (O'XM, 15) maqolida *sig'inar* "ibodat" ma'nosidagi so'z emas, balki "topinmoq", "talpinmoq" ma'nosidagi so'zdir.

Zoonimlar "asliyatga, o'zlikka sodiqlik" konseptini ifodalashda faol qo'llangan: Qush turlari "asliyatga, o'zlikka sodiqlik" qadriyat va aksqadriyatini ifoda etgan: *Kaptar bo'lib, tug'ilsang, qarg'a bo'lib o'lma* [O'XM, 309]. O'zlik *kaptar* timsoli orqali ifodalangan. "Asliyatga, o'zlikka sodiqlik" qadriyati jonzotlarning xususiyati orqali aks ettirilgan: *Yaxshi ot qarisa ham yurishi aynimas* (O'XM, 310).

"O'zlikka sadoqat" jonzotlarning qismi yoki ulardan tayyorlangan mahsulot xususiyati bilan ifodalangan: *Qazisan, qartasan, Asl zotingga tortasan* [O'XM, 310].

Jonzotlar timsolidagi o'zlikka sadoqat, o'zlikda qolish

aksqadriyat sifatida salbiy baholangan: *Suluv bo‘lgan bilan yor bo‘la olmas, Tuya bo‘lgan bilan nor bo‘la olmas* (O‘XM, 245).

“Sadoqat” konseptini ifodalashda o‘simliklardan, giyohlardan foydalanilgan. “Yurtga sadoqat” tushunchasi Alisher Navoiyning mashhur ruboiysida *tikan* timsoli orqali ifodalangan:

*G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.  
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish.*

*Tikan* – vatan timsoli, tikanning bulbulga tengsiz oshiyon sifatida keltirilishi “vatanga sadoqat” konseptini ifoda etgan. *Oltin qafas* esa – o‘zga yurt timsoli sifatida namoyon bo‘lgan. Bu ruboiyda *tikan* timsoli *oltin qafasga* zid qo‘yilgan bo‘lsa, quyida cho‘l vatan timsoli sifatida gulga zid qo‘yilgan:

**cho‘l >gul:** *O‘zga yurtning gulidan o‘z yurtningning cho‘li yaxshi* (O‘XM, 14) maqolida *gul* leksemasi “yashnash”, “hayot ifodasi” semalariga ko‘ra *cho‘l* leksemasiga (“quriganlik”, “suvsizlik” semalariga asosan) zid qo‘yilgan. O‘z yurtning cho‘li o‘zga yurtning gulidan afzal deb baholangan.

Ushbu matnda *gul* ramzi orqali “yurtga sadoqat” konsepti obrazli tarzda ifodalangan:

*U yovvoyi gul edi: dashtda tugildi.*

*...Qurg‘oqchilik boshlanib, yer toshdek qotdi. Tamom! ... Ammo u tirik edi!*

*Dasht* – vatan timsoli. Qurg‘oqchilik, mollarning toptashi, shamollar, qorlarga qaramasdan, gul tirik qoladi:

*Yana bahor keldi. Iliq-iliq yomg‘irlar yog‘di. U jamiki ko‘rgiliklari evaziga qaytadan bosh ko‘tardi. ...Shu qadar muattar bo‘y tarata boshladiki, hamma hayratdan yoqa ushladi!... Shunda... Uni ko‘chirib keltirdilar-da, qimmatbaho tuvakka solib, uying to‘riga keltirib qo‘ydilar. Qandoq yaxshi! ... Negadir u endi muattar bo‘y taratmay qo‘ydi... Uni uloqtirib yubordilar-da, qimmatbaho tuvakka boshqa gul keltirib o‘tqazdilar... (Hoshimov).*

Vatandan yiroqda gul iforidan ayrildi, vatandan yiroqda o‘zligini yo‘qotdi. Oqibatda nishonsiz yo‘qoldi. Matnda vatanning qudrati va unga sadoqatning amaliy ahamiyati gul timsolida yaqqol gavalantirilgan.

Quyidagi misralarda tug‘dona daraxti misolida “o‘zlikka sadoqat” konsepti ifodalangan:

*Chaqmoqlar ko'klam chog'i, tug'donaga qasdlashar,  
Qora bulutlar kelib, tepasida pastlashar.  
Turaverar u mag'rur, Kuzda-yu yozin-qishin  
Do'stlari archalardek, yashil-yashil, yam-yashil* (Azim Suyun,  
Tug'dona).

Ildiz o'zlikka sodiqlik ramzi sifatida tasvirlangan: *Nuqul o'tmishidan noliydigan odam kelajagini barbod qilishi mumkin. O'z ildizini inkor qilgan daraxt qurib qoladi...*(Hoshimov).

“Do'stga sadoqat” konsepti daraxt yaproqlari vositasida tasvirlangan: *Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i – behisob. Kuz kelganda-sanoqli. Yoshlik chog'i – behisob. Keksayganda – sanoqli...* (Hoshimov).

*Daraxt bir joyda ko'karar* (O'XM, 308) maqolida tug'ilgan yurtga, kindik qoni tomgan makonga sadoqat obrazli tarzda ifodalangan.

*Joyidan qo'zg'algan daraxt kech avj olar* (O'XM, 309) maqolida ham shu mazmun aks etgan. Bu matnlarda joy, daraxt ildiz otgan yer oziqlantirish, rivojlantirish, tiriklik omili sifatida namoyon bo'lgan.

O'simliklarga xos turg'un belgilar “o'zlikka sadoqat” konseptini ifodalashga xizmat qilgan: *Chinor chirimas, archa qurimas* (O'XM, 310). *Changal ham o'z joyida gurillar* (O'XM, 11) maqolida changalning alanga olishida shiddat uning o'z joyi bilan izohlanmoqda.

Har ko'katning o'z suygan tuprog'i bor (O'XM, 15) maqolida vatanga sadoqat ko'kat timsoli orqali aks ettirilgan.

*O'sma ketar, qosh qolar, Begona ketar, o'z qolar* (O'XM, 310) o'simlik va shaxs oti o'zlikka sadoqatni ifolovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning vatan sog'inchi aks etgan, yor-u diyor madh etilgan, dunyo sitamlaridan ozurda qalb tug'yonlari jo bo'lgan sermazmun g'azallari, ruboiylari kitobxonlar shuuridan joy olgan (Xolmanova, 2021). “Boburnoma” faol qo'llangan timsollardan biri *qovun* bo'lib, Boburning vatanga bo'lgan sog'inchini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilgan. *Qovun* timsoli asarda yigirmaga yaqin o'rinda kelib, muallifning turli munosabati va kayfiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Bobur Andijon qovunini *yaxshi* deb sifatlaydi: *Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas* (BNm,57). *Qovun mahali* paytni bildiruvchi barqaror birikmasi o'rnida hozirda *qovun pishig'i* barqaror birikmasi faol qo'llanadi. “Boburnoma”da “qovun pishig'i” tasviriy ifodasi ham qo'llangan: *Qovun pishig'i edi. Nasuxda bir nav' qovun bo'lurkim, «Ismoil shayxiy» derlar, terisi sariq, kemuxtluq, osu-*

“Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o’simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi

da qovun bo’lur, ta’mi olmacha, go’shti to’rt iliq ajab laziz qovundir. Oncha qovun ul navohida bo’lmas (BN,115).

Axsi qovunining tengsizligini, o’xshashi yo’qligini qayd etadi: *Axsi uchun aytibturlar. Qovuni yaxshi bo’lur. Bir nav’ qovundurkim, «Mirtemuriy» derlar, andoq qovun ma’lum emaskim, olamda bo’lg’ay* (BN,61). Dong’i ketgan Buxoro qovunini Axsi qovuniga qiyoslab ko’radi va Axsi qovunining afzalligi haqida yozadi: *Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olg’on mahalda Axsidin va Buxorodin qovun kelturub bir majlisda kesturdum, Axsi qovunining hech nisbati yo’q erdi* (BN,61).

Buxoroning qovunini maqtaydi: *Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami’ mevasi xo’b bo’lur* (BN,105); *Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahre voqi’ bo’lubtur. Mevasi ko’p bo’lur va xo’b bo’lur, qovuni bisyor yaxshi bo’lur, Movarounnahrda Buxoro qovuni-cha ko’b va xo’b qovun bo’lmas* (BN,108).

Dizakta qovun mo’llicini qayd etadi: *Dizakta ...chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon* (BN, 155).

Qarshining qovunini ham ta’riflaydi: *Kamobroq yerdur, bahori xo’b bo’lur, ekini va qovuni yaxshi bo’lur* (BN,108); G’azni qovunini Kobul qovuniga qiyoslaydi: *Qovuni ham Kobul qovunidin ortuqroqtur* (BNm,138).

Bobur butun umri davomida vatan sog’inchi bilan yashadi. Bu sog’inch u hali Farg’onaligidayoq, hokimiyat qo’ldan ketib, darbadar kezingan lahzalardayoq botiniga jo bo’lgandi. “Boburnoma”dagi Andijon tabiati, hayvonoti, o’simlik dunyosi tasvirida ana shu sog’inch izlari seziladi. Bu sog’inch Samarqand, Kobul hududida kuchayib, Hindistonga borganda og’riqli qo’msashga, armonga aylandi: *Bizni ehtimomiz ul sorilar bormoqqa behad va beg’oyatdir. Ul viloyatlarning latofatini kishi nechuk unutqay...Bu fursatda bir qovun keltirib edilar, kesib yegach, g’arib ta’sir qildim, tamom yig’lab edi* (BN,430). Boburning yurt sog’inchi iztirobga aylanib, gazal va ruboiylariga to’kilgan (Xolmanova. 2021, 15).

Hindistonda ham qovun ekishni yo’lga qo’yadi: *Balxiy polizkorni qovun ekkali qo’yulub edi. ...Hindustonda qovun, uzumning muncha bo’luridin filjumla xursandlig’ye bo’ldi* (BN,485). Bu bilan Hind zaminida vatan tarovatini tuyushni istaydi.

“Sadoqat” konsepti tabiat hodisalari va tabiiy ashyolar yordamida ifodalangan:

*Begona tuproq – devona tuproq* (O’XM,9) maqolida yurtiga sodiqlik yashirin tarzda, presuppozitsiya orqali ifoda etilgan. O’z yurtning tuprog’i afzalligi begona tuproqni inkor etish orqali ifoda-

langan;

O'z uyim – o'lan to'shagim; *O'lsang o'l, vataningda bo'l* (O'XM, 14)

maqollarida “yurtga sadoqat” konsepti aksqadriyatni, zid holatni keltirmasdan ifoda etilmoqda.

O'zlikka sadoqat tabiat va uning qismlari vositasida tasvirlangan. Masalan, “suv” timsoli orqali ifodalangan: *Suvni ming qaynatsa ham quyulmas* (O'XM, 309). *Quyosh qoraymas, oltin zanglamas* (O'XM, 310). *Oltin zanglamas, Sevgi qarimas* (O'XM, 243) maqollarida o'zlikka sadoqat konsepti tabiiy ashyolar misolida aks ettirilgan.

“O'zlikka sadoqat” rang belgilari, xususiyatlari orqali ifodalangan: *Qorani yuvgan bilan oq bo'lmas* (O'XM, 311);

“Asliyatga, o'zlikka sodiqlik” konsepti o't va suvning xususiyatlari orqali ifodalangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bilimning ahamiyatini ta'kidlab, unga “o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi” deya ta'rif bergan edilar.

“Yurtga sadoqat” konsepti uzoq umr ko'rish omili sifatida baholangan: *Yurtni dedim – yuzga kirdim* (O'XM, 14).

Yurtga xiyonat aksqadriyati armon belgisi sifatida baholangan: *Yurtdan ketgan, yurtmonda, O'tar hasrat armonda* (O'XM, 14). *Yurtmonda* – “yurtini tark etgan” ma'nosidagi so'z.

*O'z yurtning – o'lan to'shaging,*

*O'zga yurt bo'lmas beshiging* (O'XM, 14) maqolida inson o'lganda ham yurtda qolishi aks etgan bo'lib, bunda sadoqat o'lim orqali ifodalanmoqda.

*Oltin chirimas, da'vo qarimas* (O'XM, 309) maqolida “o'zlikka sadoqat” oltinning o'zgartmas xususiyati bilan izohlangan.

*Et yaxshisi qartadir* 9O'XM, 310); *Oxir asliga tortadir* (O'XM, 310) maqolida ham o'zlikning saqlanib qolishi, yo'qolmasligi aks etgan. *Qarib quyulmagan achib suyulmas* (O'XM, 310) maqolida o'zlikka sadoqat presuppozitsiya orqali ifodalangan.

Ayrim leksik birliklar ko'chma ma'noda qo'llanib, “sadoqat” konseptini ifodalashga xizmat qilgan: *Sevgi aynimas, asl chirimas* (O'XM, 244) maqolida *asl* so'zi orqali o'zlikka sadoqat aks etgan. Ushbu maqolda til sohibi konseptosferasidagi sevgining boqiyiligi, manguligi o'zlikka sadoqat belgisini namoyon etadi, unga qiyosan

Sevgining aslini bulbuldan so'ra,

Gulzor qadrini –guldan maqolidagi ramziy ifodani ham keltirish mumkin.

*Yurt qo'ri, eling o'sar,*

*Qo'rimasang uying to'zar* (O'XM, 13) maqolida sadoqat *qo'ri*

fe‘li orqali aks ettirilgan.

*Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,*

*Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar* (O‘XM, 10) maqolida yordandan yurtdan ayro tushish azobi yordan ayrilish iztirobidan ustun qo‘yilgan.

“Sadoqat” konseptini aksiolingvistik aspektda tahlil qilar ekanmiz, xalqimizning konsept, mavhum voqelik, tushunchalarni real narsa-buyumlar, voqelik va jarayonlar orqali ifodalaganini kuzatamiz. Yuqorida qayd etilgan maqollar matnida *gado* ↔ *shoh: sulton* >*cho‘pon*, *sulton* >*ulton*, *it* > *bek*, *tosh* >*bosh*, *cho‘l* >*gul*, *er* > *it*, *ot: tuproq*, *bulbul*, *kaklik*, *bog‘*, *tog‘*, *qozi*, *tozi*, *o‘rdak*, *din*, *yor*, *quvvat*, *baliq*, *suv*, *chinor*, *archa*, *qazi*, *qarta* kabi timsollar “sadoqat” konseptini reallashtirish uchun vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek xalqidagi tushunchalarni reallashtirish hodisasi harbiy soha tarixida ham kuzatiladi. Amir Temur jangda qo‘llanadigan qurol-yarog‘, qo‘shin, qo‘shin qismlari, harbiy jihozlar, ashyolar to‘g‘risida aniq tasavvur va bilimga ega bo‘lishni talab qilgan. Shuning barobarida tafakkurda mavjud bo‘lgan harbiy taktikani, jang faoliyatini reallashtirgan. Hujum uyushtirishni *bo‘ronga*, raqibga ruhiy zarba berish, raqibni qo‘rqitish, raqibga bosim o‘tkazishni *momoqaldiroqqa*, suvoriy va piyoda qo‘shinlarning yopirilgan holdagi hamlasini *selga* o‘xshatgan. Konseptlarni predmetlashtirish, predmetlarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda mudofaani amalga oshirish yoki hujum taktikasini belgilash, tezkor jangovar vazifalarni bajarish tartibi muayyan bilim va tajriba asosida amalga oshirilgan.

“Sadoqat” konsepti, uning ko‘rinishlarini tadqiq qilish davomida xalqning muayyan tajribasi, bahosi asosidagi qadriyatlar tizimi turli usullar, vositalar yordamida ifodalanganini ko‘rish mumkin. Bu tahlillar xalqimizning voqelikka, hodisalarga tizimli yondashuvidan, munosabat, baho asosida qadriyatlarni shakllantirish mahoratidan dalolat beradi.

Konsept tarkibining nomlash maydoni ingliz tilida 17 leksik reprezentant orqali, rus tilida 24 leksik reprezentant vositasida ifodalanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ikki tilda “sadoqat” konseptiga oid uchta kognitiv belgi ajratilgan. Ingliz tilida: 1) sevgi va burchga asoslangan, kimgadir yo‘naltirilgan sadoqat; 2) qasamyod, burch va ma‘lum qoidalarga bo‘ysunish asosida nimagadir bog‘lanish; 3) do‘stlarga, prinsiplarga, mamlakatga sodiqlik. Rus tilida namoyon bo‘lgan kognitiv belgilar: 1) o‘zining hislariga sodiqlik, kimgadir yoki nimagadir bog‘lanish; vafodorlik; 2) sevgiga sodiqlik va kimga yoki nimagadir

vafo qilish; 3) sadoqatni ifodalash. Ingliz tilida sevgiga, burchga, qasamga, va'daga, majburiyat va prinsiplarga bog'liqlik ifodalansa, rus madaniyatida sevgi, vafo, bog'lanib qolish tuyg'ulari ifodalanishi keltirilgan (Abdulqodirova 2022, 2972).

O'zbek tilidagi "sadoqat" konsepti 17 leksik vosita orqali ifodalangan. Leksik vositalarning 8tasi "sadoqat" leksemasi bilan ham struktur, ham semantik jihatdan bevosita aloqador bo'lib, konseptning leksik vositalar bilan ifodalanishida ochqich vazifasini o'taydi. Qolgan 9 leksik vosita "sadoqat" leksemasi bilan struktur-semantik jihatdan aloqador emas. Bu leksik vositalar ramziy ma'no kasb etib, timsol sifatida "sadoqat" konseptini ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilidagi "sadoqat" konseptining informatsion maydoni "yurtga sadoqat", "elga sadoqat", "asliyatga, o'zlikka sodiqlik", "e'tiqodga sadoqat", "so'zga sadoqat", "islom ahliga sodiqlik", "kasbga sodiqlik", "qalamga sodiqlik", "guvohlikka sodiqlik", "istakka sodiqlik" kognitiv belgilarini o'z ichiga oladi. Bu o'rinda "asliyatga, o'zlikka sodiqlik", "so'zga sadoqat", "islom ahliga sodiqlik", "guvohlikka sodiqlik", "istakka sodiqlik" belgilarini o'zbek millatining o'ziga xos konseptlari sifatida baholash mumkin.

#### O'zbek tilidagi "sadoqat" konseptining maydon tarkibi

1. Nomlash maydoni	<i>sadoqat, sadoqatli, sodiq, sidqidildan, vafo, vafoli, vafodor.</i>
2. Informatsion maydon	axborot maydoni: "yurtga sadoqat", "elga sadoqat", "asliyatga, o'zlikka sodiqlik", "e'tiqodga sadoqat", "so'zga sadoqat", "islom ahliga sodiqlik", "kasbga sodiqlik", "qalamga sodiqlik", "guvohlikka sodiqlik", "istakka sodiqlik". xos axborot maydoni: "asliyatga, o'zlikka sodiqlik"
3. Interpretatsiya maydoni [Abdulqodirova 2022; 2972].	
a) ensiklopedik soha	umummilliy, umuminsoniy
b) regulyativ soha	"sadoqat"ga ega bo'lish, uni his qilish, muntazam ravishda namoyon qilish, qasam, va'da, ont bilan mustahkamlash, unga ehtiyoj sezish mumkin. Bu konsept davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy vaziyatining muhim shartlaridan biri sifatida baholanadi.
d) baholash sohasi	o'zbek tilidagi "sadoqat" <i>samimiy, sinalgan, doimiy, egallangan</i> kabi sifatlarga egadir.
e) utilitar soha	ilhomlantiradi, qiyin vaziyatlarda ruhlantiradi.

## **Xulosa**

Jahon tilshunosligida “стыд” (uyat), “совесть” (vijdon), “вина” (ayb), “добро/благо” (oliyjanoblik, yaxshilik, himmat), “вера /доверие” (ishonch), “грех” (gunoh), “долг” (burch), “добро и зло” (ezgulik va yovuzlik), “правда и ложь” (chin va yolg‘on) kabi konseptlar atroflicha tahlil etilgan. Ammo “sadoqat” konsepti alohida monografik planda o‘rganilmagan. “Sadoqat” konseptining qadimiyligi va barcha davrlarda ijtimoiy-siyosiy voqelikning muhim shartlaridan biri bo‘lgani ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo etadi.

“Sadoqat” konseptini aksiolingvistik aspektda tahlil qilish jarayonida o‘zbek xalqining konsept, mavhum voqelik, tushunchalarni real narsa-buyumlar, voqelik va jarayonlar orqali ifodalagani ma‘lum bo‘ldi. Maqollar matnida timsollar “sadoqat” konseptini reallashtirish vazifasini bajargan. Shaxs otlari, zoonimlar bilan bir qatorda tabiat hodisalari, o‘simliklar “sadoqat” konseptini ifodalovchi timsollar sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqotlarda konseptlarni ifodalovchi lisoniy birliklar, leksik vositalar imkoniyati, strukturasi, kognitiv belgilari tahlil etilgan. Turli tizimdagi tillar misolida konsept terminining mazmuni yoritilgan, qadriyat va baho xususiyatlari izohlangan. Aksiolingvistik yo‘nalishdagi izlanishlarda psixolingvistik yondashuv, etnik belgilar, madaniy xususiyatlar, ijtimoiy turmush tarzi va subyektning baho munosabatiga asoslanilgan.

## **Adabiyotlar**

- Mirziyoyev Sh. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent.
- Абдулкадырова А.Б. (2022). Ценностный концепт loyalty/преданность в английской и русской лингвокультурах (на материале современных медиатекстов)/ Филологические науки. Вопросы теории и практики. Philology. Theory & Practice. 2022. Том 15. Выпуск 9. С.2972-2978 / 2022. Volume 15. Issue 9. P.2972-2978.
- Azim Suyun. Tug‘dona. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi).
- Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi).
- Баранская С.С. (2010). Проблема этимологии понятия “организационная лояльность”/ Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. –№2.
- Бобурнома. (1960). Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. –Тошкент: Фан.
- Бобурнома. (2002). Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. Масъул муҳаррир В. Раҳмонов. –Тошкент: Шарқ НМАК.
- Murotxodjayeva F. (2022). Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z va so‘z birikmalar ma‘nolarining kognitiv-semantik tahlili va ularning tarjima muammolari. Filol.fan. fals. d-ri (PhD)...diss. –Toshkent.
- Попова З.Д., (2007). Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ

языка. – Воронеж: Научное издание.

Тошева Д. (2018). Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиялари. Филол. фан. фалс. док.-ри (PhD) ...дисс.-Т.

Тоғай Мурод. От кишнаган оқшомда. www.ziyouz.com.kutubxonasi.

Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. www.ziyouz.com.kutubxonasi.

Xolmanova Z. (2021). “Boburnoma” – til qomusi. – Toshkent: Akademnashr.

O‘zbek xalq maqollari. (2002). –Toshkent.

Ҳошимов Ў. Дафтар хошиясидаги битиклар. www.ziyouz.com.kutubxonasi.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006). I. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2008). IV. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.

## Expression of the concept of “loyalty” in articles through zoonyms, plant names and symbols based on natural phenomena

Xilola Uzakova<sup>1</sup>

### Abstract

The article discusses the basis of axiolinguistic concepts for the analysis of the anthropocentric paradigm, their connection with cognitive linguistics and psycholinguistics. In world languages there are different expressions of the concept of “loyalty”. The expression of the concept of “loyalty” in the Uzbek language is analyzed through lexical units - lexical means and stable compounds and symbols. It is emphasized that the expression of the concept of “loyalty” through symbols is mainly observed in the text of proverbs.

Based on examples, the symbolic representation of the concept “fidelity” through zoonyms, plant names, and natural phenomena is analyzed. “Loyalty to the homeland”, “loyalty to the country”, “loyalty to oneself”, “loyalty to the soul”, expressed in proverbs, are represented by symbols.

It is shown that the expression of the concept of “loyalty” through symbols serves to effectively convey the imagery, content of the concept, and express it through national and cultural symbols.

**Key words:** *axiolinguistics, anthropocentric paradigm, cognitive lin-*

---

<sup>1</sup> Uzakova Xilola – Teacher of native language and literature of the military-academic lyceum “Temurbek School” of the State Security Service.

**For reference:** Uzakova Xilola. Expression of the concept of “loyalty” in articles through zoonyms, plant names and symbols based on natural phenomena. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-1: 94-109.

*guistics, psycholinguistics, concept, concept “fidelity”, zoonym, plant names, natural phenomena, emblem, symbol, imagery, metaphor.*

### References

- Abdulkadyrova A.B. The valuable concept of loyalty in English and Russian linguocultures (based on the material of contemporary media texts) / Philological Sciences. Questions of theory and practice. Philology. Theory & Practice. 2022. Tom 15. Edition 9. C.2972-2978 / 2022. Volume 15. Issue 9. P.2972-2978.
- Azim Suyun. Tugdona [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) library.
- Alisher Navoi. Lison ut-tair. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) library.
- Baranskaya S.S. The problem of the etymology of the concept of “organizational loyalty” / Bulletin of Kostroma State University named after N.A. Nekrasov. No. 2, 2010.
- Baburnoma. Prepared by P. Shamsiev for publishing. –Tashkent: Science, 1960.
- Baburnoma. Prepared by S. Hasanov for publishing. Editor V. Rahmonov –Tashkent: Sharq NMAK, 2002.
- Murotkhodjayeva F. Cognitive-semantic analysis of the meanings of Word and word combinations in English and Uzbek and their translation problems. Doctor of Philosophy (PhD)...diss. –Tashkent, 2022.
- Popova Z.D., Sternin I.A. Semantic-cognitive analysis of language. – Voronezh: Scientific Edition., 2007.
- Tosheva D. Linguocultural characteristics of Proverbs with zoonyms component. Doctor of Philosophy. – Rivers (PhD) ...diss. –T.,2018.-CH.71
- Togay Murod. “The night when horse neighed” [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) library.
- Togay Murod. “Lands that my father left” [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) library.
- Kholmanova Z. “Baburnoma” – is a treasure of our language. – Tashkent: Akademnashr, 2021.
- Uzbek national proverbs. –Tashkent, 2002.
- U. Khashimov. Notes on the diary [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) library.
- Annotated dictionary of the Uzbek language. I. –Tashkent: National encyclopedia of Uzbekistan State scientific publishing house, 2006.
- Annotated dictionary of the Uzbek language. IV. – Tashkent: National encyclopedia of Uzbekistan State scientific publishing house, 2008. –608 p.

## Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах

Солиха Анорбоева<sup>1</sup>

Нилуфар Сабирова<sup>2</sup>

### Абстракт

*Raiyat* termini genetikasiga ko'ra arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, poda, qavm; fuqarolar, aholi tushunchasini ifodalovchi so'z sifatida ishlatilgan (ЎТИЛ 2008, 344), XX asr boshlariga qadar o'z ma'nosini saqlab qolib, xalq tushunchasini ifodalab kelgan, keyinchalik bu terminning ma'nosi torayib, davlat kengashining ishtirokchilariga nisbatan ishlatilgan. Bugungi kundagi xalq so'zi raiyatga jarchilar tomonidan xaloyiq deb murojaat qilishi natijasida tovush tushish hodisasi yuz berib "xalq" shakliga kelgan. *Vazir* termini asarda aynan shu holatda hech bir o'zgarishsiz uchraydi. *Bek* (Kur arslonga o'xshar bu beklar o'zi) termini amaldorlarga nisbatan ishlatilgan bo'lib, asarda ularning adolatsizlikka daxldor ishlari borligi badiiy bo'yoqdorlikda keltirib ketilgan. Keyinchalik bu so'z boy, amaldor xonadonlarning erkaklariga nisbatan, yana ham keyingi davrlarda esa oddiy aholining erlariga nisbatan ham ishlatilgan. Qoraxoniylar davri (XI-XIII asrlar)ga oid eski turkiy yozma yodgorliklarda uchraydigan mansab va vazifa nomlarini ifodalovchi saksonta termin tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilinganda, quyidagi natijani bergan: (Дадабаев 1986, 45)

1. O'z qatlamga oid terminlar – 62 ta, shundan:

a) Oltoycha – 3 ta (xoqon, xon, tarxon)

b) Turkiycha – 59 ta ( ilig podshoh; qapug' bashchisi; su bashi "bosh qo'mondon"; tuqsin "xondan keyin uchinchi o'rindagi odam"; yalavach "elchi" );

2. O'zlashma qatlamga oid terminlar – 18 ta, jumladan:

a) Arabcha – 9 ta (malik "podshoh", hojib "eshikog'asi", vazir);

b) forscha – 7 ta (padishah "hukmdor", sipohsalar "harbiy qo'mondon", xansalar "bosh oshpaz");

v) hindcha – 1 ta (raj "roja");

g) mo'g'ulcha – 1ta (dorug'a "shahar yoki qal'a hukmdori").

Ba'zi so'zlar qadim tarixdan beri saqlanib qolgan: xon, xoqon, tarxon "g'arbiy turklardagi davlat boshlig'i lavozimi", buyruq, su bashi "ish boshqaruvchi", yalavach, elchi. Tugal qilib aytganda Qorax-

oniylar davlat boshqaruvi o'ziga xos murakkab tizimga ega bo'lib, davlat boshqaruviga oid terminlarning aniq va mukammal tushuncha ifoda etganligining guvohi bo'lamiz.

Keltirilgan barcha tahlillar asosida davlat boshqaruviga oid terminlarni quyidagicha tasniflaymiz. Ya'ni tarixiy-an'anaviy terminlar, o'z qatlamga oid va o'zlashgan qatlamga oid davlat boshqaruvi terminlari.

Tarixiy an'anaviy davlat boshqaruvi terminlariga soliq, vazir, devon, pul, hokim, ellikboshi kabi bir qancha leksemalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Nega aynan bu guruhni alohida qildik, umumiy tilshunoslikda leksemalar, asosan, o'z qatlam va o'zlashgan qatlamga bo'lib tadqiq qilinardi-ku, degan e'tirozli savollar tug'iladi. Mohiyatan bu guruhga mansub terminlar o'z qatlamga ham o'zlashgan qatlamga ham doir bo'lib, ulardan farqli tomoni uzoq tarix davomida davlat boshqaruvida ishlatilib kelingan va hozirda ham amalda qo'llaniladigan terminlar kiradi. Masalan, soliq, davlat, davlat boji kabi bir qancha terminlar borki bu kabi terminlar temuriylar davridan hozirga qadar ishlatilib kelinmoqda.

O'z qatlamga oid terminlar esa o'zining tarkibi va genetik xususiyatlariga ko'ra bir biridan farq qiladi. Masalan, rasmiyatchilik, real daromad, ta'lim konsepsiyasi, ta'lim innovatsiyalari, vakolatxonana, valyuta bozori kabi bir qancha terminlar ham borki, bular ham o'z qatlamga doir bo'lib, so'z yasovchi qoliplar negizida vujudga kelgan terminlardir. Shunga ko'ra, o'z qatlamga doir davlat boshqaruvi terminlarini quyidagicha tasniflaymiz:

1. Umumturkiy so'zlardan olingan terminlar: boj, yurt, el, elat, sud. Bu guruhga aynan turkiy tillarda qo'llanilayotgan yoki qo'llanilgan leksik qatlamdan olingan terminlardir.

2. So'z yasovchi qoliplar negizida hosil qilingan davlat boshqaruvi terminlari: jinoyatchi, rasmiy, bitim, yosh senzi elchi, elektron hukumat, valyuta siyosati, tarif setkasi, tarbiya koloniyasi;

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, tilning o'z ichki imkoniyatlar asosida yasalgan terminlar yasalish tamoyiliga ko'ra ikki xil tasniflanadi. Ya'ni tilning ichki manbalari, ona tili materiallari negizida hosil qilingan terminlar va o'zlashmalar asosida yuzaga kelgan terminlardan iborat.

2.1. Tilning ichki manblalari, ona tili materiallari negizida hosil qilingan davlat boshqaruvi terminlariga quidagilarni kiritishimiz mumkin: Saylov, qayta saylov to'lov, bitim, shartnoma, soliq imtiyozlari, soliq islohotlari...

2.2. O'zlashmalar asosida yuzaga kelgan davlat boshqaru-

vi terminlari: sotsial ta'minot, prezident administratsiyasi, professional armiya, investitsiyalash, kadrlar bo'limi ...

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, terminlar qaysi sohaga tegishli bo'lmasin, uning yashovchanligi tilning takomillashuvi bilan chambarchas bog'liq. Ma'lum vaqt o'tgan sari tildagi sohaviy terminlar ham o'z o'rnini yangisiga bo'shatib beradi. Shu sababli ham, yangi terminlarni o'rganib borilishiga bo'lgan talab terminologiyada doimo yangi ilmiy izlanishlarni va tadqiqotlarni talab qiladi.

Bugungi kunda faollikda bo'lgan har bir tilda yangi ma'no hamda tushunchaga ega bo'lgan terminlar mavjud. Ma'lumki jamiyatdagi har qanday o'zgarish dastlab tilining leksik tizimida namoyon bo'ladi (Shoabdurahmonov 1980, 105). Shu ma'noda til – tirik organizm. U ijtimoiy hayotda boshqa tillar bilan birga yashaydi, muntazam aloqada bo'ladi. Doimiy ravishda boshqa tillardan so'z oladi va o'zga tillarga donorlik vazifasini o'taydi (Hakimov 2021, 120). Lingvistik jihatdan e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, tashqi ekstralingvistik omil natijasida o'zlashgan leksemalarning aksariyati sohaviy terminologiyaga tegishlidir. Ayniqsa, davlat boshqaruviga tegishli terminlarning 50% dan ko'prog'ini o'zlashmalar tashkil qiladi. *Parlament, prezident, deportament, deputat, palata, partiya* kabi ko'plab terminlarni misol keltirish mumkin. Barcha nuqtai nazar va farazlarimizni hisobqa olib, davlat boshqaruvi terminlari genetikasida o'zlashgan qatlam alohida mohiyat kasb etadi, degan xulosa beradi.

O'zlashgan qatlamdagi o'zlashma terminlar turli yo'llar bilan o'zlashtiriladi. Shunga ko'ra o'zlashgan davlat boshqaruvi terminlari fonetik o'zlashmalar va kalkalash asosida o'zlashtirilgan terminlardan iborat. Fonetik o'zlashmalarga o'zlashtirilayotgan tildagi so'zning tovush qobig'i, tashqi va ichki strukturasi asosida qabul qilingan barcha leksik birliklar kiradi. Masalan, *prezident* asl lotincha so'z bo'lib, *praesidens* - oldinda o'tiruvchi ma'nosini ifoda etgan va tovushlar asosida tilimizga moslashib bizga shu shaklda o'zlashtirilgan. Shuningdek, *pedagog* termini ham xuddi shunday, asl yunoncha so'z, tovush qobig'i, ya'ni talaffuzda eshivilishi asosida qabul qilingan. *Pensioner, reabilitatsiya, ratifikatsiya, rota, rezolyutsiya, sertifikat, seriya, sensor, senzura, servis, delegatsiya, diplomatiya* kabi bir qancha o'zlashma davlat boshqaruvi terminlarini keltirishimiz mumkin. Fonetik o'zlashma terminlar davlat boshqaruvi terminlarining deyarli 40% ni tashkil etganiga guvoh bo'ldik.

**Kalkalash** asosida o'zlashtirilgan terminlarning salmog'i ancha. Kalkalash semantik kalka deb ham yuritiladi. Bunga sabab esa

semantik kalkalashda ma'no saqlangan holda bir tildagi so'z ikkinchi tilga tarjima asosida ko'chiriladi. Kalkalangan terminlar ham ikki turli bo'lib, ular struktur kalka va etimologik kalka deb yuritiladi. Struktur kalkada o'zlashtirilayotgan termin tuzilishi asosida aynan tarjima qilinadi. Masalan, *xalqaro huquq, bank kediti, boshqaruv monopoliyasi, Hokimiyat organlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar...*

### **Xulosa**

Keltirilgan nazariy qarashlar farazlar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki, aynan davlat respublika shakliga o'tgandan so'ng bu sohaga oid terminlar tizimi tubdan o'zgardi. Yangi terminlar hosil qilindi va o'zlashtirildi. Bugungi kunda davlat boshqaruvi sohasida turkiy, arabiy, forsiy tillarga oid terminlardan tashqari lotin, ingliz, fransuz tillariga xoslari asosiy qismni tashkil qiladi. Buning asosiy mezoni esa boshqaruv shakli bilan bog'liq sotsial jarayondir.

### **Adabiyotlar**

- Aliyev A., Sodiqov Q. (1994). O'zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent. O'zbekiston.
- Бекмухаммедов Х.Ю. (1977). Тарих терминлари изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи.
- Dadaboyev H. (2020). O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim.
- Дадабаев Х. (1991). Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Тошкент: Ёзувчи.
- Дадабаев Х. (1986). Термины обозначающие административные должности и титулы в старотюркских письменных памятниках XI-XIII вв./ “Историко-культурные контакты народов алтайской языковой общности” (тезисы докладов XXIX сессии PIAC, – Ташкент, 1986 ). Ч .II. – М.Наука.
- Jhon Lyons. (2000) Language and linguistics. – London: Cambridge University press.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент. (2008). Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Имомиддинова Н.А. (2022) “Ҳозирги хитой тилидаги ҳарбий терминлар тадқиқи” ф.ф.б. ф.д.(Phd) автореферат. – Тошкент.
- A. Madvaliyev (2021) [va boshq.] jtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti.
- Hakimov D. (2021) O'zbek tiliga xorijiy so'zlar kirib kelishining tasnifiy tahlili. O'zbek tiliva adabiyoti// – Toshkent// / №6.

# Genetic description of public administration terms

Lobar Ganiyeva <sup>1</sup>

## Abstract

In the article, the research process on genetic terminology was carried out based on the theoretical views and hypotheses of linguists. The characteristic features of the terms were taken into account when carrying out the genetic description of the state administration terms. The basis of the formation of terms was studied. From the genetic point of view, the historical-traditional terms were classified in the form of state management terms related to own stratum and assimilated stratum. The internal sources of the language were divided into groups of state administration terms formed on the basis of native language materials and state administration terms formed on the basis of acquisitions. The acquired layer was divided into phonetic acquisitions and acquisitions based on spelling. Borrowed terms based on calquing were divided into groups of structural calques and etymological calques. From the conducted research, it was concluded that 60% of terms related to public administration are made up of appropriations.

**Key words:** *term, linguistic issues, genetics of terms, genetic classification, own layer, assimilated layer, phonetic acquisitions, copying.*

## References

- Aliyev A., Sodikov Q. From the history of the Uzbek literary language. – Tashkent. Uzbekistan, 1994.
- Bekmuhammedov H.Yu., Annotated dictionary of historical terms. – Tashkent: Teacher, 1977.
- Dadaboyev H., Uzbek terminology. – Tashkent: Nodirabegim. 2020.
- Dadabaev X Obshestvenno-politechiskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v turkoyazychnyx pismennyx pamyatnilax XI-XIV vv. – Tashkent: Yozvchi, 1991.
- Dadabaev Kh. Terminy oboznachayushchie administrativnye doljnosti i titles and Old Turkic written records XI-XIII centuries. / “Historical-cultural contacts of people of Altai language society” (tezisy dokladov XXIX sessii PIAC, Tashkent, 1986). Ch. II. – M. Nauka, 1986.
- John Lyons. Language and linguistics. – London: Cambridge University

---

<sup>1</sup> G'aniyeva Lobar Sa'dulla qizi – Doctoral student at TSUULL named after Alisher Navoi.  
ganiyevalobar29@gmail.com.

**For reference:** Ganiyeva Lobar. Genetic description of public administration terms. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 128-137.

Press, 2000. P. 31.

An explanatory dictionary of the Uzbek language. -Tashkent. 2008. National encyclopedia of Uzbekistan.

Imomiddinova N.A. "Research on military terms in modern Chinese" f.f.b. f.d. (Phd) abstract. - Tashkent: 2022.

A. Madvaliyev [et al.] Brief explanatory dictionary of socio-political terms. – Tashkent: "SAHHOF" publishing house, 2021.

Hakimov D. Classification analysis of foreign words entering the Uzbek language. Uzbek language literature// -Tashkent// 2021/ No. 6/ Page 120.

## O'zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar

Go'zal Mirzayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada o'zbek va turk tillarining tovush tizimining o'rganilishi, ulardagi fonetik hodisalarning talqini va qiyosiy tahlilini yoritishga harakat qildik. Shuningdek har ikki tildagi fonetika va fonologiyaga oid terminlar masalasi, tilshunoslarning fonetikaga oid qarashlarini ko'zdan kechirdik.

**Kalit so'zlar:** *fonetika, fonologiya, fonema, invariant, korrespondentsiya, kuchli pozitsiya, kuchsiz pozitsiya, akustika, reduksiya.*

Til millat birligi va borligining belgisi, millat ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi, tengsiz boyligi, boshqa millatlardan farqlantiruvchi omil hisoblanadi. Til orqali avvalo o'z millatining, qolaversa boshqa millatning tarihi, dunyoqarashi va urf-odatlarini o'rganish mumkin. Har bir tilning qiyosida avvalo fonetika va fonologiya sohasi keng o'rin tutadi. Turkiy tillarni bir-biri bilan qiyoslar ekanmiz, ularning bir-biridan eng farqlanuvchi tomonini tovush tizimi orqali ko'ramiz. Ayniqsa, boshqa turkiy tillar bilan o'zbek tili fonetik-fonologik sathida o'zgachaliklar mavjud bo'lib, buni o'zbek tilining singarmonizmga bo'ysunmasligi va boshqa deyarli barcha turkiy tillarda singarmonizm qonununiyatining mavjudligi bilan izohlash ham mumkin. Ma'lumki, turkiy tillar tasnifiga ko'ra o'zbek tili qarluq guruhiga, turk tili esa o'g'uz guruhiga mansub bo'lsa-da, bu tillarning ayni paytdagi holatlarini, ayniqsa, fonetik va grammatik sathdagi hozirgi xususiyatlarini o'rganish, mazkur tillar taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashtirish zarur. Shu maqsadda o'zbek va turk tillari taraqqiyotidagi grammatik, leksik-semantik o'zgarishlar keyingi yillarda qator tadqiqotlar obyekt sifatida o'rganildi (Usmonova 1998; Xudayberganova 1999; Siddiqov 2000; Chetin 2002; Shabanov 2004; Abdurahmonova 2004).

O'zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan A.G'ulomov, H.Abdurahmonov, A.Abduazizov, H.Jamolxonov, J.Mamatovlarning asarlari ayniqsa

<sup>1</sup> *Mirzayeva Go'zal Qobuljonovna* – ToshDO'TAU tayanch doktoranti.

**E-mail:** ummuabдумannon@gmail.com.

**Iqtibos uchun:** Go'zal Mirzayeva. O'zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-1: 138-149.

diqqatga sazovor (G'ulomov 1947; Abdurahmonov 1963; Abduazizov 1992; Jamolxonov 1999; Mamatov 2009).

Ma'lumki, fanlarning uzviy aloqasi ilmning doimiy talablardan biri hisoblanadi. Xususan, S.Otamirzayeva o'z tadqiqotlarida fonetika va tibbiyot sohalarini bog'lab o'rgandi (Otamirzayeva 1990). Turkolog olim E.V.Sevortyaning asarlarida ham qiyosiy fonetikaga oid ba'zi fikrlar mavjud (Sevortyan 1955).

O'zbek tili jahondagi eng yirik turkiy tillardan biridir. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi shu tilning adabiy talaffuzi va til madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek tilshunosligining hozirgi davrda qo'lga kiritayotgan katta yutuqlari bilan birga, hali ilmiy tadqiq etilmagan birmuncha sohalari mavjud. Jumladan, fonetika va fonologiyaning qiyosiy aspektda tadqiq qilinmaganligi, tovush o'zgarishlarining keltirib chiqaruvchi sabablari sifatida neyrolingvistika sohasi ishlanmaganligini e'tirof etish mumkin.

Turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasining tarixiga nazar tashlasak, ko'plab ilmiy qarashlar qadimdan mavjudligini anglab yetamiz. Masalan, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy bizdan necha asrlar ilgari tillarni fonologik jihatdan qiyosiy aspektda o'rganadi, hind tili bilan arab tili fonologik tizimida katta tafovut borligini bayon qilib, hind so'zlarini arab tilida berishda bir qadar qiyinchilik borligini aytadi. (Абу Райхон Беруни 1974, 41-43).

Ana shu qiyinchilikni bartaraf etish maqsadida arab alfavitiga bir qator o'zgarishlar kiritadi. Qisman forslardan foydalangan holda to'rtta (p, ch, j, g) harfni qo'shadi. Bundan tashqari forslarda so'z boshida b va v fonemalarining o'zaro erkin almashinishi mumkinligiga diqqatni jalb etadi va ana shu almashinish asosida ayrim so'zlarning kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Masalan, o'n ikkinchi maqola Abhalga bag'ishlanadi. U rumcha barutanun va barutun, suryoniycha barusa, forscha burs va vurs, zabolcha vurs gunda deb nomlanishini ta'kidlagan holda, fors tilida b-v fonemalarining talaffuzi bir-biriga yaqin ekanligi, shuning uchun ko'pincha ular bir-biri bilan oson almashinishini aytadi (Beruniy 1974). Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Beruniyning yuqorida keltirilgan fikrlari distributsiya hodisasining erkin almashinish turi haqida ketmoqda, demak distributsiya hodisasi aslida IX-X asrlarda allomamiz tomonidan tadqiq etilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning fonetika haqidagi qarashlari uning "Asbob" asarida o'z ifodasini topgan. Garchi bu asar arab tili fonetikasiga bag'ishlangan bo'lsa ham, lekin ko'p o'rinlarda, ayniqsa, V bobida fors, turk va boshqa tillar materiallari ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham Ibn Sinoning mazkur asari boshqa asarlardan fonetika

masalalarini yoritishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. "Asbob" asari arab tilshunosligi an'anasidan yana shunisi bilan farqlanadiki, unda fonetik o'zgarishlar masalasi ko'rilmaydi, tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari o'rganiladi. Asarda artikulyatsiya tomonidan yaqin bo'lgan va akustik belgisiga ko'ra farqlanuvchi undoshlar o'zaro zidlangan holda o'xshash va farqli belgilari ochiladi. Masalan, k-g, q-g' kabi. Bu shuni ko'rsatadiki, N.S.Trubetskoydan bir necha asrlar oldin Markaziy Osiyo filologlari tomonidan korrelyativ undoshlar ajratilgan va undosh fonemalarni belgilashda asosiy tamoyil sifatida foydalanilgan.

Ibn Sino asarida yana bevosita kuzatishda, turli o'zgarishlar bilan talaffuz qilinuvchi variant bilan bu variantning abstrakt bosqichdagi umumlashmasi (invarianti) farqlanadi. Xususan, r-r', l-l' tovushlari bir umumiylikning ikki xil ko'rinishi ekanligini bayon qiladi. Bu esa distributsiyaning kontrast turida voqelanuvchi tovushlar o'zgarishiga oid hodisadir. Ibn Sino o'z risolasini quyidagi boblarga bo'lib izohlaydi:

Tovushning paydo bo'lish sabablari haqida;

Nutq tovushlarining paydo bo'lish sabablari haqida;

Bo'g'iz va tilning anatomiyasi haqida;

Ayrim arab tovushlarining paydo bo'lishidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida;

Bu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari haqida;

Bu tovushlarning nutqiy bo'lmagan harakatlarda eshutilishi (Ibn Sino 1979).

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ilk bor turkiy tillar fonetikasi qiyosiy aspektida tadqiq etildi. Ushbu asarda o'g'uz va qipchoq qabilalari talaffuzidagi fonetik tafovut ko'rsatilgan. Jumladan, fonetik jihatdan so'z boshidagi "y" o'g'uzlarda va qipchoqlarda "j" bilan almashinuvi misollar orqali ko'rsatilgan:

Turklar: O'g'uzlar va qipchoqlar

Yelkin(musofir) elkin

Yinju (marvarid) jinju

Yug'du (tuyaning uzun juni) jug'du

Mahmud Koshg'ariy fonemalarning nutq jarayonida xilma xil variantlarga ega bo'lishi, shuningdek, turli fonetik hodisalar haqida ma'lumot beradi. Jumladan, ishbo' (tovushlarni qattiq va qalin talaffuz qilish), imola (tovushlarni cho'zib talaffuz qilish), ishmom (tovushlarni yumshoq yoki ingichka talaffuz qilish), g'unnaning ikki ko'rinishi (ng, ng'), hayshum (nazalizatsiya), ikki undoshning qator kelishi (geminatsiya),

tovush almashinishi (metateza), assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush tushishi va tovush orttirilishi haqida fikr yuritadi (Mahmud Koshg'ariy 1960).

XIX asrda Boduen de Kurtene korrespondensiya deb ajratgan fonetik hodisa haqida Mahmud Koshg'ariy XI asrlardayoq ma'lumot bergan ya'ni turklar bilan o'g'uz va qipchoqlar o'rtasida m-b(menben, mun-bun"sho'rva"), t-d (teve-deve"tuya") kabi fonetik moslik borligini ham ko'rsatgan (Boduen de Kurtene 1963).

Fonetika-fonologiya sohasining har bir jabhasiga to'htalar ekanmiz, Trubetskoyning nazariyalarini keltirmasdan ilojimiz yo'q. N.S.Trubetskoy o'zining "Основы фонологии" asari orqali fonologiyani keng tadqiq etdi. Olim tovushlar klassifikatsiyasini berar ekan, har bir tovushning ikki, uch, to'rt varianti va oppozitsiyasini keltiradi. Masalan, b-p, g-k, d-t kabi. U tovushlarning oppozitiv holatlarini to'rt turga bo'lib asoslaydi. Trubetskoy tovushlarning pozitsiyasini ularning distributiv holati bilan bog'laydi:

kuchli pozitsiyadagi tovush so'zga hech qanday qo'shimcha qo'shilmay turib, o'zakning bir-biridan bir tovushga farq qilishidir: cam-com;

kuchsiz pozitsiyadagi tovush esa uning aksi, ya'ni o'zakka qo'shimcha qo'shilgach, undagi tovushlarning urg'u orqali farqlanishi: сома-сама, нога-нага, рок-род kabi.

Turkiy tillarda so'zlar dastlab bir bo'g'inli bo'lgan (Shoabdu-rahmonov; Ishayev 1982). Ayrim so'zlarning asta-sekin affiksga o'tishi, ko'p bo'g'inli so'zlarning yuzaga kelishi bilan affiks va o'zakni o'zaro birlashtiruvchi prosodik imkoniyatlar yuzaga kela boshladi.

Bu imkoniyatlarning biri so'z urg'usi edi. Natijada urg'u tushgan bo'g'indagi tovushlar akustik tomondan kuchli, urg'u tushmagan bo'g'indagilar esa nisbatan kuchsiz bo'lib boradi (Mamatov 1988).

Urg'uning unlilar sirtiga ta'siri juda kuchli (G'ulomov 1947).

So'zda urg'uli bo'g'inning unlisi kuchli va aniq, uzunroq talaffuz qilinib, o'z borlig'ini to'la saqlab qoladi (Malov 1951). Urg'uli bo'g'indagi unli urg'usiz bo'g'indagidan akustik ustunligi, ovozning balandligi, kuchli intensivligi va miqdor jihatdan uzunligi bilan namoyon bo'ladi. Urg'usiz bo'g'indagi unli esa kuchsiz, ya'ni intensivlikda va miqdor tomondan qisqaroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ham urg'usiz, ya'ni akustik tomondan kuchsiz bo'lgan bo'g'in unlisi reduksiyaga uchray boshladi. Demak, turkiy tillarda reduksiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri, ko'p bo'g'inli so'zlarning yuzaga kelishi va buning natijasida so'z urg'usining paydo bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, reduksiyani yuzaga keltirgan hodisa so'zda

bo'g'inlar sonining o'zgarishidir. Shunday qilib, yuzaki qaraganda oddiygina bo'lib ko'ringan unlilar reduksiyasi til taraqqiyotining tarixiy jarayonida yuzaga kelgan fonetik hodisadir. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi to'la, bolta, so'ngal, so'gal kabi so'zlar "Devoni lug'otit turk" da tolu, boldu, so'nuk, so'g'ul tarzida yozilgan. Bu so'zlarda nima uchun reduksiya yuz bermaganining, aksincha, unli kengayganining sababi noma'lum. Ehtimol, qoshg'ar shevasiga xos ko'ngil > kunal, qo'shiq>qo'shaq modelidagi unlilar dissimilyatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan holatdir. O'zbek tilida lab singarmonizmining yo'qola borishi bilan urg'u ta'siri kuchayishi o'laroq lablangan u unlisi o'rni-ga a (keng unli) qo'llana boshlagan bo'lishi, ya'ni bu unlining urg'u ushlab qolgan bo'lishi mumkin. Bu ham o'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yo'qola boshlaganidan va so'z urg'usi pozitsiyasining kuchayib borganidan dalolat beradi (Mamatov 1988).

Ma'lumki, turkiy tillarning bir-biridan asosiy farqli jihatlari fonetik sathda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Avvalo, tilning har bir sathi o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etishini inkor qilmagan holda, fonetik va fonologik sath tilning asosini tashkil etuvchi sathlarlar ekani ta'kidashimiz lozim. Chunki so'z tovushlardan tashkil topadi. So'nggi yillarda tillarning sathlarini qiyosiy aspektda o'rganishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Bizning ham tadqiq qilishni maqsad qilgan obyektimiz ikki – turk va o'zbek tillarining fonetik sathi bo'lib, avvalo turk tilshunoslarining bu borada olib borgan tadqiqotlarini ko'rib chiqishni to'g'ri deb bildik.

Turk tilshunosligida fonetikaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Birinchi navbatda qayd qilish kerakki, tilshunoslikdagi har bir sathning bosh masalasi undagi terminlar masalasidir. Turk tilshunosligidagi terminlarda milliylik aks etib turadi. S.Topbash va H.Kapkallilarning "Sesbilim" ve "Sesbilgisi" Terimleri Üzerine" maqolasida turk tili fonekasi va fonologiyasiga oid terminlar hususida kichik tadqiqot olib borilgan. (Topbaş; Kopkalli 1994, 310–321). Maqolada turk tilshunoslari tomonidan fonetika va fonologiya terminlarining bir-biriga qorishtirib yuborilayotgani va natijada xatoliklar yuzaga kelayotgani hususida so'z boradi. Bu terminlarning qorishtirib qo'llanishiga sabab ularning turk adabiy tilga moslangani va buning oqibatida ular o'rtasida bevosita o'xshashlik mavjudligidir. Maqola mualliflari bir guruh turk tilshunoslari fonetikani "Sesbilim" termini bilan; fonologiyani esa "Sesbilgisi" yoki "görevsel/gelishmeli sesbilim" terminlari bilan qo'llaganlarini aytib o'tadilar (masalan, Selen, Demirjan, Aksan, Konrot, Topbash kabilar).

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa, aksincha, fonetika atamasini “Sesbilgisi” va fonologiya atamasini “Sesbilim” deb qoʻllaganini (masalan, Vardar, Demirezen) qayd etadilar.

Bundan koʻrish mumkinki, S.Topbash va H.Kapkallilarning mana shu kichik tadqiqotiga qadar turk tilshunosligida fonetika va fonologiya terminlarini qoʻllashda chalkashlik mavjud boʻlgan va maqola ikki terminni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etgan. Shundan soʻng bu ikki tilshunos “Sesbilim”ning fonetika va “Sesbilgisi”ning fonologiya ekanini va bu ikki terminning bir-biridan farqli jihatlarini, oʻrganish obyektini asoslab berganlar. Maqolada sath tarmoqlarining tarixiga ham toʻxtalangan va gʻarb tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni keltirib oʻtganlar.

E.V. Sevortyaning “Fonetika turetskogo literaturnogo yazыka” nomli asarida esa turk tilining fonetik tizimi juda keng tadqiq etilgan, bu asarda nafaqat fonetika, balki turk tilidagi fonetik tovush oʻzgarishlari ham misollar asosida keng yoritilgan. Masalan, u turk tilidagi reduksiya hodisasi haqida gapirib, bunda “i” harfining yopiq “ı” yoki “e” ga oʻtishini taʼkidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi:

yani yan i/e, belki belki/e, haydi hayd i/e, artık art i/k.  
(Севортян 1955, 80–83).

Tilshunos E.Demirjan “Türkçenin ses dizimi” asarida turk tiliniing tovush tizimini tahlil qiladi (Demir 2019).

R.Oʻzdem “Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlere fonetik ayrıçları” asarida turkiy tillarning etimologiyasini oʻrganib, chet tillaridan oʻzlashgan soʻzlarni fonetik jihatdan ajratish usullarini tahlil qilib beradi. Tilshunoslar Z.Koʻrkmaz va H.Zulfikarlar esa “Turk Dili ve Kompozisyon” asarida turk tilidagi fonetik tovush oʻzgarishlarini oʻrganadilar va bunga asosan urgʻu sabab boʻlishini misollar orqali koʻrsatib beradilar. Tilshunos Tahir Nejat Genjan oʻzining “Dilbilgisi” asarida turk tilidagi undoshlar tizimini, ulardagi singarmonizm hodisalarini jadvallar asosida yoritib, asoslab bergan.

N.Demirning 2019-yilda chop qilingan “Türkçe ses ve biçim bilgisi” (Turk tili fonetikasi va morfologiyasi) asari horijiy mamlakatlardagi Turkologiya fakultetlari uchun tayyorlangan boʻlib, tilshunos termin masalasida faqat turkchallashtirish tarafdori boʻlgani holda, atamalarni chet soʻzlardan emas faqat turkcha soʻzlar yordamida ifodalaydi. Kitob chet el talabalariga tushunarli boʻlishi uchun sodda tarzda yozilgan, shuningdek unda turk tilining tarixiy lahjalari xususida ham soʻz yuritilgan. (Demir 2019).

Tilshunos Mustafo Oʻzkanning “Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım

Bilgisi” asarida olim turk tili fonetikasiga oid juda keng ma'lumot bergan. Tilshunos bu asarni turkum holda nashr qilishni maqsad qilgan bo'lib, asar o'n bir bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda tillarning paydo bo'lishi, ularning nomlanishi va dunyo tillari haqida so'z ketadi. Beshinchi bo'limda tilshunos turk tili va uning tovush tizimi – unlilar, undoshlar, tovush o'zgarishlari, ularning sabablari hamda alifbosiga batafsil to'xtaladi. (Özkan, 331).

Shu o'rinda tilshunoslikning tarixiga ham biroz nazar solsak. Suad Mahmud Alvanning “Ali Shir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri” maqolasida ulug' mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug'atayn” asaridagi fonetik jarayonlar tahlil qilingan (Alvan).

Ma'lumki, bu asar qiyosiy tilshunoslikning yorqin namunalaridan bo'lib, unda turk va fors tillari o'zaro chog'ishtirilgan bo'lib, o'n beshinchi asrda barcha ijodkorlar ijod qilgan va gullab yashnagan til fors tilidan turk tilining qolishmasligini adib isbot qilib bergan. Asarda tilshunoslikning turli sathlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, hozirda leksik lakuna termini bilan tilshunoslikda o'rganilayotgan sohani Navoiy shu asarida aytib o'tgan, masalan fors tilida qovoq so'zi leksik lakuna bo'lib, unga ishlatiladigan biror ifoda yo'qligini, biroq turk tilida esa ko'z bilan qoshning orasi qovoq deb atalishi aytilgan. Endi mavzuyimizga qaytadigan bo'lsak, maqolada tilshunos shunday deydi: “Bu asarida Navoiy bir tarafdin turk tilining fors tilidan ustunligini isbot qilishga urinar ekan, ikkinchi tarafdin o'z tilining (ya'ni turkiy tilning) fonetik va morfologik xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan”. Maqolada Navoiyning hayoti va asarlari haqida ma'lumot keltirilib (turklarga tanitish maqsadida), so'ng asosiy maqsad bo'lgan unlilar tizimi haqida ma'lumot beriladi. Chig'atoy tilida to'qqizta unli mavjud ekanini aytib, o'sha vaqtdagi unlilar hozirgi turk tilidagi unlilar tizimi bilan qiyos qilinadi. Shundan so'ng tovush o'zgarishlari haqida ma'lumot berilib, singarmonizm sabab vujudga kelgan qo'shimchalarning unlilardagi variantlari beriladi. So'ng esa undoshlarga to'xtalinib, qiyosiy aspektda o'rganiladi va bunda ham undoshlarning o'zgarishlari va singarmonizmi haqida ma'lumot beriladi. Tilshunos xulosa sifatida Alisher Navoiyning asarida qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi xususiyatlari bilan birga qisman qipchoq shevalari ham mavjud ekanini ta'kidlaydi. Ulug' mutafakkirlarimizning asarlarini o'zga yurtda tadqiq qilinishi, albatta biz tilshunoslarni mamnun qiladigan holatdir.

Asli Yilmaz Davuto'g'lining “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapı” nomli katta asari adabiy turk

tilidagi unli tovushlarning akustik analizi va fonetik sutrukturasiga bag'ishlangan. Asarni turk tili fonetikasining haqiqiy eksperimental tadqiqoti deb atash mumkin. Tilshunos adabiy turk tilidagi unlilarning allofonlarini tadqiq qilish jarayonida 875 ta so'zni sakkizta respondentga talaffuz qildiradi va eksperiment qiladi. Tadqiqot statistikasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi 21 allofonlar guruhi va ularga oid 10 ta uzun unli topilgan. Allofonlar o'rin olgan tovush tizimlari so'zlar orqali misollar bilan berilgan. Tilshunos har bir unli tovushga keng to'xtalib, masalan "a" fonemasining o'zida uchta allofon aniqlanganini misollar orqali keltirib o'tadi: a1, a2, va a3. "Bulardan tashqari a1 va a2 guruhlarining uzun turlari a11 va a22) bordir, – deydi tilshunos va misollar keltirib o'tadi, "a1: ochiq, orqa, tor. "ova, muaf, avuntu, ala, mal, ag'ustos, azar, vasat, hala, ahır, ahbap, falaka" kabi so'zlarda. ("a" tovushi kundalik qo'llanganda qalin "a" sifatida keladi). So'z o'rtasidagi "a" fonemasining, xususan "b", "p", "v" kabi lab undoshlaridan va "h"dan keyin kelganda a1 sifatida qo'llanishi kuzatildi". (Davutoğlu 2010).

Tilshunos Ijlal Ergenchning "Sesbilim Çalishmalari" haqidagi ochiq dars ko'rinishidagi tadqiqotida turk tili fonetikasiga doir izlanishlar jadval asosida yoritib beriladi. Shuningdek, u Tilshunos Najib Uchokning, O'zkan Bashkanning, Nevin Selinning va O'mer Demirjanning tadqiqotlarini o'z asarida sxemalar asosida yoritadi va tahlil qiladi. (Ergenç)

Bundan tashqari Huseyin Kahraman Mutlu turk tili fonetikasiga doir olib borilgan tadqiqotlar bibliografiyasini tuzib, jurnalda chop etgan (Mutlu, 373–382).

So'nggi paytlarda neyrolingvistika sohasi tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida vujudga kelib, unda ko'plab tadqiqotlar olib borila boshlandi. Biroq, fikrimizcha neyrolingvistikani fonetikaga doir jihatlari ko'p, chunki fonetik jarayonlar va tovush o'zgarishlariga neyrolingvistik omillar o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Turk tilida neyrolingvistikaga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, professor D.Barishning "Dil ve Beyin" (Til va miya, Bolalarda til va nutq nuqsonlari) asarida bu mavzu keng yoritilgan. Asarda, avvalo odatiy til va tilning rivojlanishi keltiriladi. Bolalardagi eshitish qobiliyatining nutqqa ta'siri, nutq xususiyatlari va nuqsonlari batafsil yoritilib, nevrologik hastaliklarga urg'u beriladi. Tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, unda inson nutqi va hayvon nutqi orasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar keltiriladi, inson tili va genlar orasidagi aloqa yoritib beriladi, so'ng esa til va miyaning o'zaro bog'liqligi ochiqlanadi. Bolaning tilni o'rganishidan boshlab,

uning nutqidagi nuqsonlarning paydo bo'lish omillari ko'rsatib beriladi. Asarni o'qib-o'rganib til bilan tibbiyot shunchalik bir-biriga bog'liqligini, ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini anglash mumkin. Shu sabab bu ikki fanni o'zaro bog'lovchi neyrolingvistika sohasi vujudga keldi. Bunda esa tilshunoslardan ikkita soha – ham tibbiyot ham tilshunoslikni chuqur bilish talab qilinadi. Bu jarayonlar esa asosan fonetik sathda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Endi yana o'z tadqiqotimiz – turk tilshunoslarining fonetikaga doir ishlariga qaytsak. Yuqorida qayd etilgan mavzular turk tilshunosligida ko'plab ilmiy izlanishlarga sabab bo'la boshladi. Tilshunoslar nutqdagi nuqsonlar, tovushlarning o'zgarishlariga olib keladigan jarayonlarni chuqur o'rganish asnosida ko'plab ilmiy yangiliklarni ilmga olib kirdilar.

I.P.Bekar tomonidan yozilgan “Shizofrenlerin Sözlü Metinlerinde Duygudurum Görünümleri”, S.Ay va boshqalar tomonidan yozilgan “Türkçede gelişimsel disleksinin sesbilimsel ve biçimbilimsel görünümleri”, E.Esmar tomonidan yozilgan “Shizofrenlerin sözlü anlatım metinlerinin çözümlenmesi”, M.S.Erer “Karma Soz Uretme Yontemi ile Turkche Yazılı Metinden Soze Gechme” asarlarida nutq nuqsonlari ma'lum kasalliklar, xususan shizofreniya asosida tadqiq qilindi.

Ayja O'zbel Kochning “Septum deviasyonlu hastaların septoplasti operasyonu öncesi ve sonrası, akustik ses analizi ile değerlendirilmesi” asarida rinolali (nazal disfoni, rinofon (nazalning grekcha nomi) nazal rezonansining buzilishi natijasida yuzaga keluvchi nutq patologiyasi o'rganildi.

Maqolada tadqiqotlarni imkon qadar muhimlarini taqdim etishga harakat qildik. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va turk tili fonetikasiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, yuqorida keltirilganidek, turk tilshunosligida o'zbek tilshunosligidan farqli o'laroq birinchi galda termin masalasi munozarali holatdadir. Turk tili fonetikasi o'zga yurt tilshunoslari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Turk tilida eksperimental fonetika rivoj topgan, shu sabab amaliy ishlar ko'p deyish mumkin. O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikada o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar hali ko'p.

### **Adabiyotlar**

- G'ulomov A. (1947). O'zbek tilida urg'u. –Toshkent, “SAGU”.  
Abdurahmonov H. (1963). O'zbek fonetikasi tarixidan // O'zTA,  
Abduazizov A. (1992). O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent.  
Jamolxonov H. (1999). Fonetika. Ma'ruzalar matni. – T: TDPU bosma-

xonasi.

Mamatov J. (2009). O'zbek tilida reduksiya. Filol.fan.nomz. – Toshkent.

Abu Rayxon Beruni. (1974). Избранные произведения. Том II. – Ташкент.

Abu Ali Ibn Sino. (1979). Fonetika haqida risola. –Toshkent, Nashrga tayorlovchilar: A.Mahmudov, Q.Mahmudov.

Mahmud Koshg'ariy. (1960-1963). Devonu lu'atit turk. I-II tomlar. – Toshkent.

Boduen de Kurtene I.A. (1963). Избранные труды по общему языкознанию. – Москва.

N.A. (1959). Каракалпакский язык. Т. II. 1. –М.

Шоабдурахмонов Ш. Ишаев А. (1982). Об одном фонетическом явлении. Опыт экспериментального и структурного изучения языка – Tashkent.

Малов С.Е. (1951). Памятники древнетюркской письменности – М.

Ne'matov Q. (1992). O'zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent. O'qituvchi.

Özdem R. (1939). Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlere fonetik açıları. İstanbul: Universitet yayınlar – I.

Orhun Anıtları üzerinden araştırmalar. <http://www.turkdilidergisi.com/>.

Севортян Е.В. (1955). Фонетика турецкого литературного языка. – Москва.

Kokrmaz. Z., Zulfikar H. (2005). v.b. Turk Dili ve Kompozisyon – Ankara.

Hojiyev A. (1985). Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi.

Topbaş.S. Koptallı H., (1994). “Sesbilim” ve “Sesbilgisi” Terimleri Uzerine”. Dilbilim araştırmaları, – Anadolu Universitesi.

Muharrem Ergin. (1985). Turk Dil Bilgisi, Boğazici, Yayınları – İstanbul.

Suer E. (2002). Çağdaş Turk Dili. Grafiker Yayınları – Ankara.

Demir N. (2019). Ses Bilgisi ve Biçim Bilgisi. Hamur Tipi : 2. Hamur. İlk Baskı Yılı.

Özkan M. Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım Bilgisi. İstanbul, Filiz Kitabevi.

Alvan S.M. “Ali Şir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri”<https://docplayer.biz.tr/>.

Davutoğlu A.Y., (2010). “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapı” – İstanbul.

Ergenç I., Sesbilim Çalışmaları. <https://acikders.ankara.edu.tr/>.

Mutlu H.K.“Türkiye Türkçesi Ses Bilgisi Üzerine Bir Bibliyografiya Denemesi”, Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 6 (2) .

## Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages

Go'zal Mirzayeva<sup>1</sup>

### Abstract

In the article, we tried to highlight the study of the sound system of the Uzbek and Turkish languages, the interpretation and comparative analysis of phonetic phenomena in them. We also looked at the issue of terms related to phonetics and phonology in both languages, and the views of linguists on phonetics.

**Key words:** *Phonetics, phonology, phoneme, invariant, correspondence, strong position, weak position, acoustics, reduction.*

### References

- Ghulomov A. (1947). Accent in the Uzbek language. –Tashkent, “SAGU”.
- Abdurahmanov H. (1963). From the history of Uzbek phonetics // UzTA, #2.
- Abduazizov A. (1992). Phonology and morphonology of the Uzbek language. – Tashkent.
- Jamol khanov H. Phonetics. (1999). Text of lectures. TDPU printing house, – T.
- Mamatov J. (2009). Reduction in the Uzbek language. Philol.fan.nomz. – Tashkent.
- Abu Raikhan Beruny. (1974). Selected works. Volume I. – Tashkent.
- Abu Ali Ibn Sina. (1979). A treatise on phonetics. Preparers for publication: A. Mahmudov, Q. Mahmudov. –Tashkent.
- Mahmud Koshgari. (1960-1963). Devanu lug'atit Turk. Roofs I-II. – Tashkent.
- I. Baudouin de Courtenay I.A. (1963) Selected works on general linguistics. – Moscow.
- N.A. (1959). Karakalpak language. T. II. 1. –M.
- Shoubdurakhmonov Sh., Ishaev A. (1982). About one phonetic phenomenon. Experience experimental and structural language learning. Tashkent.
- Malov S.E. (1951). Monuments of ancient Turkic writing. –M.
- Nematov K. (1992). Historical phonetics of the Uzbek language. Tashkent. Teacher.
- Özdem R. (1939) Phonetic differences of Turkish and foreign words from

---

<sup>1</sup> *Mirzayeva Guzal Qobuljonovna* – Doctoral student at TSUULL named after Alisher Navoi.

**E-mail:** ummuabduannon@gmail.com.

**For reference:** Guzal Mirzayeva. Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 138-149.

- a historical point of view. Istanbul: University publications, I. Research on Orhun Monuments. <http://www.turkdilidergisi.com/>.
- Sevortyan E.V. (1955). Phonetics of the Turkish literary language. – Moscow.
- Kokrmaz. Z., Zulfikar H. etc. (2005). Turkish Language and Composition – Ankara.
- Hajiyev A. (1985). Explanatory dictionary of linguistic terms. –T.: Teacher.
- Topbaş.S., Kopkallı H. (1994). On the Terms «Phonology» and «Phonology». Linguistic research, Anadolu University.
- Muharrem Ergin (1985). Turkish Grammar, Boğazici, Publications, Istanbul, 16th Edition.
- Suer E. (2002). Contemporary Turkish Language. Graphics Publications. Ankara.
- Demir N. (2019). Sound Knowledge and Form Knowledge. Dough Type: 2. Dough. First Edition Year.
- Özkan M. Türkiye Turkish Vocabulary and Writing Knowledge. Istanbul, Filiz Kitabevi 331.
- Alvan S.M. «Phonetik Features of Alishir Nevai Muhakemetül-lugateyn Work» <https://docplayer.biz.tr/>
- Davutoğlu (2010). A.Y., «Acoustic Analysis and Phonetic Background of Celebrities in Standard Turkish». – Istanbul.
- Ergenç I., Phonology Studies. <https://acikders.ankara.edu.tr/>
- Mutlu H.K. “A Bibliography Essay on Turkish Phonology”, Journal of Turkish World Studies, 6 (2).

## Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida zoonim asosidagi ko‘chimlar tahlili

Dilobar Odilova<sup>1</sup>  
Zamira Rahmonova<sup>2</sup>

### Abstrakt

Hozirgi kunda qadimgi yozma yodgorliklar, mumtoz manbalarni o‘rganishda, ularni tahlil qilishda bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Olimlar mumtoz asarlarda yashiringan sir-u sinoatlarni yechish orqali tilimizning yanada ravnaq topishiga, so‘z boyligining rivojiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shib kelmoqda. Ana shunday lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishga arzigulik asarlardan biri, shubhasiz, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidir. Asarda muallif metafora va metonimiya hodisasini ishtirokidagi zoonimlardan unumli foydalangan. Bu esa asarning badiiy ifodasini oshirishga, fikrni aniq ifodalashga, adibning so‘z qo‘llashdagi mahoratini aks ettirishga xizmat qilgan. Ushbu maqolada zoonim asosidagi ko‘chimlar xususida so‘z yuritiladi hamda asarda keltirilgan hayvonlar asosidagi metafora va metonimiya hodisalari tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** *adib mahorati, ko‘chma ma‘no, metafora, metonimiya, obrazlilik, tafakkur, zoonimlar, o‘xshashlik.*

### Kirish

Ma‘lumki, tilning asosiy vazifalaridan biri kommunikativlikdir. Ammo kishilar so‘zlashuv jarayonida faqatgina fikr almashinish bilan cheklanib qolmay, borliqdagi voqea-hodisalarga o‘z munosabatlarini ham ifodalashga harakat qiladilar. Lug‘atimiz tarkibidagi so‘zlar narsa va hodisalarni atabgina qolmay, ayni vaqtda so‘zlovchining ifodalayotgan fikriga munosabatini, o‘z bahosini ifodalashni ham ko‘rsatadi. Bu munosabatlar qurshoviga erkalash, g‘azab, nafratlanish, qoyil qolish, kinoya, hayrat kabi turli xil emotsional

<sup>1</sup> *Odilova Dilobar* – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti  
dilobarodilova@gmail.com.

<sup>2</sup> *Rahmonova Zamira* – TATU Farg‘ona filiali akademik litseyi o‘qituvchisi

**E-mail:** zamir.rahmonova@mail.ru.

**Iqtibos uchun:** Odilova Dilobar, Rahmonova Zamira. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridazoonim asosidagi ko‘chimlar tahlili. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-1: 150-163.

munosabat namunalari kiradi.

Nutqimizni ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarsiz tasavvur etish juda qiyin. Bilamizki, ma'no ko'chishining xilma-xil turlari mavjud. Ular ma'no ko'chishining nima asosda yuzaga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi guruhlariga bo'linadi. Ular orasida keng tarqalgan ko'chim turi metaforadir. "Metafora" bu – o'xshashlikka asoslangan ko'chim turi hisoblanib, bunda ma'no o'xshashlik jarayoni asosida ko'chadi va bu metaforaning muhim belgisi sanaladi. Nutqimizda obrazlilik, ekspressiv bo'yoqdorlikni oshirish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlikka asoslangan so'z va iboralarni ko'chma ma'noda ifodalaymiz va bu esa nutqimizda metafora deb yuritiladi. Metafora tilning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bir predmetga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chirilishi metaforaning bir ko'rinishidir (Jamolxonov 2005, 88).

Metaforalar har bir xalqning badiiy ijodi, tafakkurining mahsuli bo'lib, asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy hamda milliy-madaniy qarashlari zahirida vujudga kelgan. Tildagi metaforalarga qarab, tilning shakllanishini, taraqqiyotini, imkoniyatlarini baholash mumkin. Tilshunoslik sohasida metafora haqida yetarlicha taqdiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hali-hanuz unga bo'lgan qiziqish kamaygani yo'q. Sababi, ma'lum tildagi so'zlardan foydalanish uchun so'zlarning o'z ma'nosidan tashqari majoziy ma'nolarini ham birdek bilish lozim. Bu esa hozirgi kunda tilshunoslikda ko'chim turlarini har tomonlama o'rganib tadqiq qilish zarurligini anglatadi. Shu jumladan, bugungi kundagi metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko'chim turlarining xususiyatlari, shu bilan birgalikda, ularning oldingi davrdagi ko'rinishlarini, farqlarini tadqiq qilish ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Bunda esa bizga qadimiy asarlar, obidalar yordamga keladi. Metaforalar xususiyatiga ko'ra o'xshatishlarga juda yaqin keladigan vosita hisoblanadi. O'xshatishlar kabi metafora ham ko'chma ma'noga asoslanadi hamda shaxs va predmetlar bir-biriga qiyoslanadi. Biroq metaforalarda o'xshatishdan farqli o'laroq *-dek, -day, -namo, -simon, -vash, kabi, singari, misoli, yanglig', o'xshash* kabi vositalar qo'llanilmaydi. Agar adabiyotshunoslikda bu hodisalarni ham farqlaydigan bo'lsak, metafora orqali istiora san'ati, o'xshatish orqali esa tashbeh san'ati hosil bo'ladi. Biz tahlil qilayotgan "Qutadg'u bilig" asarida ham bu ikki lingvistik vosita orqali hosil bo'lgan ma'nolar ham talaygina.

"Qutadg'u bilig"dagi to'rtliklar o'zining sermazmunligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Muallif o'zi oldinga surgan g'oyalarni

o'quvchiga obrazli va yaqqol ko'rsatib berish uchun bir qator badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llaganki, ular orasida metaforaning ham alohida o'rni bor. Bu borada ijodkor inson, tabiat, hayvonot olamiga tegishli obrazlardan keng foydalanadi. Zero, borliq turli simvollarga to'la va har bir ko'rinish o'zining ikkinchi ma'nosiga ega. "Qutadg'u bilig" asarida turli mansabdor shaxslar va ijtimoiy tabaqalarni ifodalovchi metaforalardan tashqari tabiat hodisalari va hayotdagi jarayonlar, voqea- hodisalarga doir metaforalar ham faol qo'llangan (Xolmuradova 2017, 123-129).

### **Asosiy qism**

"Qutadg'u bilig" asarini tadqiq qilish jarayonida asarda qo'llanilgan zoonimlarning denotativ ma'nolaridan tashqari emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi ko'chma ma'nolariga ham duch keldik. Har bir tilda hayvon nomlari anglatadigan konnotativ semalar milliy-madaniy hamda diniy xarakterga ega bo'ladi. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalardan shuni bilishimiz mumkinki, zoonimlar turkiy xalqlar hayotida va badiiy ijodida metaforik qo'llanishi tufayli shaxsning kuch-qudratini, mard va jasurligini, jasoratini ifodalovchi vosita bo'lishi bilan birgalikda shaxslarning ismlari va ularga qo'shilgan holda ijtimoiy mavqeyini, o'rnini bildiruvchi belgi sifatida ham keng ishlatilgan. Har bir tilda uchraydigan o'xshatish va metaforalar o'sha tildan foydalanayotgan xalq kabi qadimiy va o'z tarixiga egadir.

Ayrim jonivor nomlaridan iborat lisoniy vositalar badiiy nutq tarkibida moddiy-mantiqiy ma'nolaridan uzoqlashib, insonning muayyan xislat-xususiyatini obrazli tasvirlashda qo'llaniladi. Bunday paytda uning fe'l-atvori, yurish-turishi, aql-zakovati va jismoniy layoqatida mavjud bo'lgan xususiyatlar alohida qayd etiladi. Mazkur lisoniy vositalar kasb etgan timsoliy ma'nolar nutqqa hissiy ta'sirchanlik baxsh etadi. Insonning muayyan jonivor nomi bilan erkalatilishi, suyulishi yoki, aksincha, tahqirlanishi, haqoratlanishi odamlarning o'sha jonivorga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatiga, qarashiga bog'liq bo'ladi (Musayev 2005, 244).

"Qutadg'u bilig" asarida zoonimlar bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos metafora namunalarini uchratishimiz mumkin. Asarda qo'llanilgan bu ko'chim turi o'zining ta'sirchanligi va betakrorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. "Qutadg'u bilig" da qo'llanilgan metaforalarni A. Kasiyeva tadqiq etgan. Asar leksikasi bo'yicha ish olib borgan Mushtariy Xolmurodova asarda ishtirok etgan metaforalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lgan:

- a) shaxs fe'l- atvorini ifodalovchi metaforalar;
- b) tabiat hodisalari, narsa- buyum xususiyatlarini ifodalovchi

metaforalar.

Uning ta'kidlashicha, asar matnida qo'llangan metaforalar ma'noni ta'sirchan ifodalashga, denotat xususiyatlari, belgilarini yoritishga, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'xshashlikni anglashga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda hayvonlar va qushlarning tasvirlari, ko'pincha, metaforaning manbasi sifatida odamlarning tabiatini, xulq-atvorini, ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochib berish usuli hisoblanadi. Bunda ko'chim hayvonlar va insonlar o'rtasidagi o'xshash fazilatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan metaforalar muallifning individual mahoratini ko'rsatibgina qolmay, o'ziga xos bo'lgan uslubini ham belgilab bergan. Asar matnida qo'llangan metaforalar ma'noni ta'sirchan ifodalashga, denotat xususiyatlari, belgilarini yoritishga, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'xshashlikni aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, asardagi mavjud zoonimlarning zohiriy ta'riflari, haqiqatan ham, insonlarning ramzlari sifatida talqin qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan zoonim asosli metaforalar tasviri asarning xalq tiliga va ruhiy holatiga yaqin bo'lishini ta'minlagan. Shu bilan birgalikda, asarning badiiy qimmatini oshirishda muhim rol o'ynagan. Bu baytda hayvonga xos xususiyatlar insonga ko'chirilgan. Hayvonlarning yaxshi, insonga yoqadigan yoki aksincha yoqmaydigan sifatleri asosida atrofimizdagi insonlarni baholash kundalik hayotimizda ko'p uchraydi. Zoonimlarning badiiy ifoda vositasi sifatida qo'llanishi epik asarlar uchun qadimdan an'anaviy tusga kirib qolgan bo'lib, ular birgina metaforalar doirasida chegaralanib qolmagan. Vaholanki, dostonlarda zoonimlarga xoslangan o'xshatish, sifatlash (epitet), metonimik nom ko'chishi va boshqa badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishiga doir qadimiy va nodir namunalari ham anchagina uchraydi. Ularning bu kabi xususiyatlarini o'rganish oldimizda turgan galdagi vazifalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda uchraydigan mazkur xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni keng miqyosda leksik-semantik hamda uslubiy jihatdan tahlil qilish har tomonlama foydalidir.

Inson tirik mavjudot ekan, salbiy va ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi va atrofda insonlar uni shunday qabul qiladi. Shu tufayli insonga turli xildagi zoonim asosli metaforik ma'nolar qo'llaniladi. Bunda ba'zi leksemalar ijobiy, ba'zilari salbiy, ayrim o'rinlarda har ikki ma'noda qo'llanilishi mumkin.


Asardagi zoonim asosidagi metaforalar shirinsuxanlik, erkalash tasvirini yaratish vositasi sifatida ham talqin qilingan. Tur-

kiy xalqlar lingvomadaniyatida “qo‘zichog‘im”, “toycho‘g‘im”, “bo‘talog‘im” kabi hissiyot va ta‘sirchanlikka boy bo‘lgan metaforalar qo‘llanilib kelingan. Asarning turli o‘rinlarida “qo‘zi”, “qo‘zichog‘im” kabi erkalashni ifodalovchi baytlarga duch kelamiz. Xalqimiz qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanganligi sababli turli xil hayvonlar bilan munosabatda bo‘lib kelgan hamda kundalik hayotda hayvon nomlari orqali yaqin insonlarini erkalatishgan. Bunday murojaatlarni qadimgi mumtoz adabiyot namunalari ham uchratishimiz mumkin.

*Yayiq ermas ercebu davlat ozi  
Na edgu nen erdi bu qut ey qozi  
Bu davlat o‘zi bevafo-beqaror bo‘lmasa edi,  
Baxt-davlat qanday yaxshi narsa bo‘lar edi, **ey qo‘zi** (QB,487b).*

*Yağida kör arslan yureki kerek  
Qarishtuqta äsri bileki yoriq  
Urushda botir, arslin yurakli bo‘lish kerak,  
Jangga kirganda qoplon bilakli bo‘lish kerak (QB, 171).*

Arslon – mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher. Ko‘chma ma’noda bahodir, zabardast, dovyurak odam (shu jonivorga nisbat beriladi). Ya’ni lashkarboshi, askarlar arslondek qo‘rqmas botir bo‘lishi nazarda tutilgan. Demak, asarda arslon zoonimi quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:



Qoplon–mushuksimonlar oilasiga mansub, terisi xol-xol, yirik sutemizuvchi yirtqich hayvon. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli *qaplan* tarzida talaffuz qilingan. A.M.Sherbak bu so‘zni qo‘shma so‘z deb talqin qilish tarafdori (arslan so‘zini ham qo‘shma so‘z deydi); uning fikricha, bu so‘zning ikkinchi qismi “hayvon” ma’nosini anglatuvchi **an** so‘zi bilan ifodalangan; bu so‘zning birinchi qismini esa sifat deb qarashga tarafdor; lekin **qapil** sifati manbalarda aks etmagan va bu sifatning ma’nosini A.M.Sherbak men uchun noma’lum deydi. Nazarimizda, *qaplan* so‘zi sodda so‘z bo‘lib, qadimgi turkiy tildagi “*mahkam ushla*” ma’nosini anglatgan **qap** fe’lining kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -la qo‘shimcha-

si qo'shilgan shaklidan -n qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik o'zbek tilida a unlilari â unlilariga almashgan: (qap+ la = qapla) + n = qaplan > qâplân. Bu ma'lumotdan shuni bilishimiz mumkinki, asarda qoplon bilakli birikmasi bekorga keltirilmagan (Ўзбек тилининг изоҳли луғати 2006, 198). Yozuvchi zoonimlarni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llash orqali asarining badiiy olamini yanada teranlashtirishga erishgan.

Asardagi zoonim asosidagi ko'chimlarni o'rganish o'sha davr madaniy hayoti xususiyatlari bilan tanishish imkonini berdi. Zero, "Qutadg'u bilig"dagi zoonimlar insonlarning ijobiy va salbiy vaziyatlarni baholay olishi, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni anglashi hamda har bir ishga to'g'ri yondashish singari ijobiy ko'nikmalarni o'zida aks ettirgan. Shuningdek, bu jarayonda hozirda mavjud bo'lmagan hayvon va qushlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bundan tashqari, asarda madaniyatlar mushtarakligi yoki farqli tomonlarini aniqlashga doir ma'lumotlar aniqlandi. Shu bois asardagi zoonim asosli ko'chim turlarini tadqiq qilish tilshunoslikning bir qator masalalarini hal qilishda muhim ahamiyatga egadir.

*Yomon ishga yaqinlashma, senga ziyon qiladi,  
Yomonlik ilondir, u seni chaqadi, ko'rgin.*

Bu baytda yomonlik ilonga o'xshatilishi orqali metafora san'ati hosil qilinadi. Hozirgi vaqtda ham yomon insonlar ilonga qiyos qilinadi.

*Tõnum qõy yũni tap yigũm arpa aş  
tũgål boldi dũnya maņa ay qadaş  
Dunyoda o'zimga keragini oldim  
qipiқ, kepak men uchun yetarli ovqat, kiyimim qo'y yungi*

(QB,711).

Ushbu baytda bu hayotning o'tkinchiligi, vafosizligi haqida so'z yuritiladi. Umumiy ma'noda kiyim-kechak, ya'ni to'n qo'y yungiga qiyos qilingan. Dunyodagi barcha noz-ne'matlar, kiyim-kechaklar, bir so'z bilan aytganda, moddiy boyliklar barchasi o'tkinchiligi uqtiriladi. O'zg'urmish O'gdulmishga bu dunyodan yuz o'girib, u dunyoga moyil bo'lmoqlikni nasihat qiladi. Bu kabi metaforalar asarda ko'p uchraydi.

*Sokinlik va shirin so'zlilik – zakovatlik kishining sifati,  
Zakovatsiz kishilar tugal yilqidir.  
Yesa, to'ysa va yotsa – bu demak yilqidir  
Bu yilqi deganim uning qiliqlari uchundir (QB, 471).*

Muallif zakovatsiz, bilimsiz kishilarni yilqiga qiyos qilmoqda. Bu o'rinda yilqi so'zi umumiy hayvon ma'nosini ifodalab kelmoqda. Keyingi misrada tanballik qoralangan. Hozirgi vaqtda ham ko'p yeydigan, dangasa insonlarga nisbatan ham hayvon so'zi ishlatiladi. "moldek yemoq" birikmasini so'zlashuv uslubida uchratishimiz mumkin.

Yozuvchi zoonimlarni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llash orqali asarining badiiy olamini yanada teranlashtirishga erishgan. "Qutadg'u bilig" asarida bu ko'chim turidan unumli foydalanilgan hamda ko'zlangan maqsadga erishilgan. Yusuf Xos Hojib asarda bo'ri obraziga ko'p marotaba murojaat qilgan. Bo'ri zoonimi turli ma'nolarda kelib, badiiylikni ta'minlovchi asosiy obrazga aylangan. Quyidagi baytda bo'ri zoonimi kuchlilik va jasurlikni emas, balki g'alamislik va ochko'zlikni ifodalab kelgan. Bu ziddiyat xalq og'zaki ijodida ham ko'zga tashlanadi: bo'ri goh mardlik, goh botirlik xususiyatlarini aks ettiruvchi obraz sifatida qo'llansa, goh laqma, noshud kimsalarning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Qayd etish joizki, dostonida bo'ri bilan bog'liq quyidagi semalar uchraydi:

*Qapuğda terildi qamuğ ač böri  
ey Elig qoyuğ keδ kuδāzib yūri*


*Saroyda talay och bo'rilar yig'ilgandir,  
ey elig, Saroyni juda avaylab saqlab yur (QB,425).  
Endi senda bu uchdan biri ham yo'q,  
Elga zo'ravon bo'ri qayerdan tegadi.*

Asarda qo'zi va bo'ri zoonimi o'zaro antonimlik qatorini hosil qilgan. Tabiatda qo'zi va bo'ri bir-biri bilan dushman. Lekin baytda hukmdorning adolatli siyosat olib borishi, hatto qo'zi bilan bo'ridek ikki dushmanning bir-biri bilan aralashib yurishiga sabab bo'lishi chiroyli tasvir vositasi sifatida beriladi.

*Elin etti tuzdi bayudi buδun  
böri qoy bilä suvladi ol ödün.  
Elida tartib o'rnatdi, uni tuzdi, xalq boyidi,  
U davrda bo'ri qo'y bilan birga suv ichdi (QB,480).*

*Qutuldi boδun ketti emgäkläri  
qozi birlä qotıp yüridi böri.  
Xalq baxtiyor bo'ldi, mashaqqatlar aridi,  
Qo'zi bilan bo'ri aralashib yurdi (QB, 472).*

Bu metafora hodisasi sifatida xalq ichidagi o’zaro do’st-dushmanlar, boy-kambag’allar, amaldor va oddiy xalqning tengligi nazarda tutilgan. Ushbu baytda adolatli podshoning taxtga kelgan paytida xalqning katta-yu kichigi, boy-u kambag’ali baxtiyor bo’lishi, ular o’rtasida adovatning yo’qolganligi va tenglikning mavjud bo’lishi o’z ifodasini topgan. Bu esa odil hukmdor xalqni birday ko’rishi, teng siyosat olib borganidan darak beradi. Yuqoridagi baytlarda hayvonlardagi xususiyatlar inobatga olingan hamda betakror metafora san’ati yuzaga kelgan. Mazmun jihatdan to’yingan bu baytdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Yusuf Xos Hojib xalqparvar, teran fikr egasi ekanligi, hayotda adolatni bosh o’ringa qo’ygan shaxs sifatida namoyon bo’ladi.



Yuqoridagi jadvalda asarda keltirilgan bo’ri zoonimining qanday ma’nolarda qo’llanilganini ko’rishimiz mumkin. Demak, bu hayvon Yusuf Xos Hojib davrida ham ikki xil ma’noda, ya’ni inson fe’l-atvoridagi ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni yoritish uchun xizmat qilgan. Zoonim asosidagi badiiy tasvir vositalarining semantik xususiyatlarini o’rganishda ularning lingvokulturologik jihatdan tahlilini amalga oshirish ham muhim omil hisoblanadi. B. Maslova bu haqida quyidagi fikrlarni keltirib o’tadi: “Lingvokulturologiyaning asosiy tahlil tamoyillaridan biri bo’lgan olamning lisoniy manzarasi turli ma’no bunyodkorligini namoyon etuvchi pragmatik semalar asosida tasvirlanadi. Har bir millat dunyoqarashi va olamni anglashi milliy madaniy xususiyatlar zamiridagi olamning lisoniy manzarasi ta’sirida yuz beradi(Maslova 2001, 37).

*Kür arslan bölü berse itqa başı  
Bu it barča arslan bölür oz tuşi  
Qali bölse it başçisi  
Bu arslan bölür barča it saqışı  
Ko'rgin agar arslon it(lar)ga bosh bo'lsa,  
Bu itlar barchasi uning tengida arslon bo'ladi.  
Bu arslon(lar)ga it boshchi bo'lsa,  
Bu arslon(lar) barchasi itga teng bo'ladi (QB, 421).*

Asarning “Beklar qanday (bo‘lishi) kerakligini aytadi” bobida O‘gdulmish bek sifatlarini ta’riflar ekan, yuqoridagi to‘rtlikni keltiradi. Ushbu to‘rtlikda muallif arslon obrazi orqali mard, adolatli lashkarboshini nazarda tutsa, it obrazi orqali pastkash va nokas kishilarni tanqid ostiga oladi. Hayvonlardagi ijobiy va salbiy xususiyatlar bevosita insonlarga ko‘chiriladi. Ushbu metaforalar orqali lashkarboshi (umuman har qanday boshliq ham) mard, adolatli bo‘lsa, bu sifat lashkarda ham o‘z aksini topishi, bilimsiz, qo‘rqoq va pastkash odam bosh bo‘lgan lashkarda hatto jasur va mard kishilar ham ilojisiz qolishi ta’kidlanadi.

“Qutadg‘u bilig” asarida zoonim asosli metonimiya hodisasi ham ko‘zga tashlanadi. Metonimiya yunoncha so‘z bo‘lib, “qayta nomlash” ma’nosini anglatadi. . Metonimiya ham ma’no ko‘chish usullaridan biri bo‘lib, bunda “bir predmetning, belgining harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, bog‘liqlik asosida ko‘chiriladi”.

Asarda hayvonlar bilan bog‘liq burj nomlari keltiriladi. **Qo‘zi, arslon, baliq, chayon** burji nomlari shular jumlasidandir. Quyidagi baytlarda zoonimlar burjlarning ramzi, mezoni sifatida ifodalanib, metonimiya hodisasi yuzaga kelishini ta’minlamoqda.

*Zerikarli qishni bahor nasimi haydadi,  
Musaffo bahor yana davlar yoyini qurdi(ya’ni o‘z hukmiga kirdi).*

*Quyosh qaytdi, yana o‘z o‘rniga keladi,  
Baliq quyrug‘idan qo‘zi burniga ko‘chadi (ya’ni quyosh Xut burjidan Xamalga ko‘chadi).*

**Qo‘zi** – bahorgi yulduz, so‘ng Ud keladi,  
Erandiz Quchi bilan yaqin yuradi.  
Qo‘rqmas **arslon** bilan Bug‘doyboshi qo‘shnidir,  
So‘ng Ulgu **Chazan** va Yoy eshi bo‘ldi.

Asardagi zoonimlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning ba’zilari o‘z nomlarini hozirgi kunga qadar saqlab qolgan, aksincha, nomida

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida zoonim asosidagi ko'chimlar tahlili  
o'zgarishga uchragan yoki umuman qo'llanmayotgan hayvon nomlariga duch kelamiz. Bu o'rinda zoonimlar asosidagi ko'chimlarda ham o'xshash va farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. B.Abdushukurov ta'kidlaganidek, zoonimlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan davrlarda bu soha doirasida yangi terminlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Mazkur jarayon ichki va tashqi omillar asosida ro'y bergan. Zoologik terminlarning taraqqiy topishi, asosan, eski turkiy tilga xos bo'lgan ichki manbalar, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik munosabatlar negizida amalga oshgan (Абдушукуров 2020, 103). Misol uchun, asarda "suvsar terisi" kiyim ma'nosida metonimiya hodisasiga misol bo'lgan.

*Satiğçi yoq ersä acun kezgüçi  
qaçan keđgäy erdi qara keş içi  
Olamni kezuvchi savdogarlar bo'lmaganda edi,  
qora suvsar terisini qachon kiygan bo'lar eding (QB,583).*

Suvsar – suv hayvonlaridan birining nomi. U XI asrda "tiyin" deb atalgan. Qadimda, hali pul muomalasi yuzaga kelmay turib, odamlar o'zaro narsa almashtirganida turli-tuman qimmatbaho mo'ynalar keng iste'molda bo'lgan. O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlari o'rtasida qunduz va olmaxonga o'xshaydigan tiyin degan jonivor ham shu maqsadda foydalanilgan. Hozir pul birligini anglatuvchi "tiyin" (so'mning yuzdan bir qismi) shu bilan aloqador. Xalqimiz orasida ham hozirgi kunda yuqoridagi ko'chim turiga o'xshash maqollarni uchratishimiz mumkin:

*Tindim tunda, tinmadim kunduzi,  
Bo'ldi qo'y telpagim qunduzi.*

Ushbu maqoldagi *qo'y telpak* hamda *qunduzi* so'zlari orqali metonimiya hodisasi amalga oshmoqda. Bu o'rinda qo'y hamda qunduz terisidan tikilgan telpak nazarda tutilyapti. Demak, ikkala o'rinda ham hayvon terisi bilan aloqador kiyimlar ifodalangan hamda hosila ma'no yuzaga kelgan.

*Charchamaydigan yo'rg'a otdan tushib,  
Mungli bo'lib, egarsiz yog'och ot minadi.  
Bularni o'ylagin, o'limga hozirlik ko'r,  
So'ng qora yer qa'rida o'kinmagin.*

Yuqoridagi baytda "yo'rg'a ot" hamda "yog'och ot" birikmasi orqali metaforalar hosil qilingan. Ushbu baytda yo'rg'a ot yoshlik, navqironlikni ifodalab kelgan. Inson bu paytda kuchga to'lgan hamda barcha mashaqqatlarga chidamli bo'ladi. "Yog'och ot" birikmasi

orqali esa **“tobut”** nazarda tutilgan. Bu misralar orqali yozuvchi umrining o‘tkinchiligiga ishora qilmoqda. Bu dunyoga ko‘ngil qo‘ymaslik, o‘limga tayyor turish kerakligi nasihat qilingan. Bu turdagi metaforani hozirgi o‘zbek tilimizda ham uchratishimiz mumkin:

*G‘anim bir yon, men bir yon bo‘lsam,  
U ustuvor, men uryon bo‘lsam,  
Bu ham kamday nogiron bo‘lsam,  
**Yog‘och otga** yonma-yon bo‘lsam,  
Oy tutilib, Onam yig‘laydir,  
Qolganlari yolg‘on yig‘laydi.*

Iste‘dodli shoir To‘ra Sulaymonning “Tavallo” deb nomlangan she‘rida “yog‘och ot” birikmasi aynan shu ma‘noda qo‘llangan. Bundan bilishimiz mumkinki, ancha yillar oldin qo‘llangan bu ko‘chim bugungi kunda ham o‘z mazmunini saqlab qolgan. Muallif asarda it zoonimidan asosan salbiy o‘rinlarda foydalangan. Masalan, quyidagi baytda fe‘li buzuq kimsalar tutqun itga tenglashtiriladi.

*Kishi uchun fe‘lning buzuqligi og‘ir yukdir,  
Fe‘li buzuq bo‘lsa uni tutqun it deb bilgin.*

Hozirgi o‘zbek tilida it obrazi insonlar xarakteridagi ijobiy va salbiy o‘rinlarni ifodalash uchun ifodalanadi. It vafodorlik, sodiqlik timsoli sifatida o‘zbek xalq maqollarida ko‘p uchraydi. Shoir Shavkat Rahmon o‘zining “Yorilgan harakat bayoni” she‘rida it hayvonini salbiy ma‘noda qo‘llagan:

*Bir odam izladim, izladim g‘arib  
Jufti yo‘q burgutday xunuk qishladim.  
Kezdim armon to‘la jom ko‘tarib,  
Malaklar yig‘ladi, **itlar** tishladi.*

Bu she‘rda it – yovuz odamlar timsoli sifatida gavdalangan hamda juda yovuz, butun hayoti ig‘vo va bo‘hton qilishdan iborat kishilarni ifodalab ko‘chma ma‘noni yuzaga keltirgan. Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, Yusuf Xos Hojib hamda Shavkat Rahmon baytlarida ham it zoonimi insonlardagi fe‘l-atvorga oid salbiy xususiyatni o‘zida mujassamlashtirgan.

### **Xulosa**

Asardagi zoonim asosidagi ko‘chimlarni o‘rganish o‘sha davr madaniy hayoti, xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Zero, “Qutadg‘u bilig”dagi zoonimlar insonlarning ijobiy va salbiy vaziyatlarni baholay olishi, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni anglashi hamda har bir ishga to‘g‘ri yondashish singari ijobiy ko‘nikmalarni

o'zida aks ettirgan. Zoonimlar asosidagi ko'chimlarning shaxs yoki predmet tavsifida qo'llanilishi jonivorlarning hayot tarzi, tashqi ko'rinishi, odatlari, xatti-harakatiga asoslanadi. Kishilardagi jamiki ijobiy xususiyatlar va salbiy illatlar ifodasi zoonimlar yaratgan obrazli tasvir asosini tashkil qiladi.

### **Adabiyotlar**

- Abdurahmonov G'. To'xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev N. (2011). Qutadg'u bilig. I, II, III, IV, V jildlar. –Toshkent: Jahon print.
- Абдурахмонов Ғ. (1999). Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. (1973). Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи.
- Абдурауф Фитрат. (2008). Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент, Мумтоз сўз.
- Арзиев Р. (1991). Лексико-стилистические особенности языка поэмы "Кутадғу билик" Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук. –Алма-Ата.
- Касиева А. (2005). Лексико-семантический анализ метафор "Кутадғу билиг". – Бишкек.
- Tasleem Sh. (2020). "Qutadg'u bilig" dostonining leksik-semantik o'ziga xosliklari. – Toshkent.
- Тўлаганова Н. (2008). Ҳозирги ўзбек шеърлятида бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2007). V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2007). I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Холмуродова М. Холмуродова М. (2019). "Кутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (Phd). дисс. – Тошкент.
- Худойберганаева Д. (2015). Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. дисс...автореф. – Тошкент.
- Усмонова Ш. (2011). Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент.
- Шамсиддинова Ҳ. (1999). Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент.

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)

## **Analysis of metonyms based on zoonym in Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig"**

Dilobar Odilova<sup>1</sup>  
Zamira Rahmonova<sup>2</sup>

### **Abstract**

Currently, a number of research works are being carried out in the study of ancient written monuments, classical sources and their analysis. Scientists have been contributing to the development of our language and vocabulary by solving the mysteries hidden in classic works. One of the works worth analyzing is undoubtedly Yusuf Khos Hajib's epic "Kutadgu bilig". The author effectively used zoonyms to create metaphors and metonymy in the work. This served to increase the artistic expression of the work, express the idea clearly, and illuminate the skill of the writer in using words. This article talks about zoonym-based migrations and analyzes the phenomena of metaphor and metonymy based on animals presented in the work.

**Keywords:** *Literary skill, figurative meaning, metaphor, metonymy, imagery, thinking, zoonyms, analogy.*

### **References**

- Abdurahmanov G. (2011). Toxliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Kutadgu bilig. Volumes I, II, III, IV, V. – Tashkent: World print.
- Abdurahmanov G. (1999). About the formation of the Uzbek people and language. – Tashkent.
- Abdurahmanov G., Shukurov Sh. (1973). Historical grammar of the Uzbek language. – Tashkent: Teacher.
- Abdurauf Fitrat. (2008). Examples of the oldest Turkish literature. – Tashkent, Classic word.
- Arziev R. (1991). Lexico-stylistic features of language poetry Yusuf Khas Hajib's "Kutadgu bilig". Philol. Science...diss – Alma-Ata.
- Kasieva A. (2005). Lexico-semantic analysis of the metaphor "Kutadgu bilig". – Bishkek.
- Tasleem Sh. (2020). Lexical-semantic peculiarities of the epic "Kutadgu bilig". – Tashkent.
- Tolaganova N. (2008). Linguistic and stylistic analysis of artistic arts in

---

<sup>1</sup> *Odilova Dilobar* – Doctoral student at TSUULL named after Alisher Navoi. dilobarodilova@gmail.com.

<sup>2</sup> *Rahmonova Zamira* – Teacher of the academic lyceum of the Fergana branch of TATU.

**E-mail:** zamir.rahmonova@mail.ru.

**For reference:** Odilova Dilobar, Rahmonova Zamira. Analysis of metonyms based on zoonym in Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig". Uzbekistan: language and culture. Linguistics. 2024-1: 150-163.

- contemporary Uzbek poetry. Philol. science... diss. – Tashkent.
- An explanatory dictionary of the Uzbek language. (2007). Volume V. – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
- An explanatory dictionary of the Uzbek language. (2007). Volume I. – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
- Xolmurodova M. (2019). Lexicon of "Kutadgu Bilig". Philol. science. (Phd)... diss. – Tashkent.
- Xudoyberganova D. (2015). Anthropocentric interpretation of artistic texts in the Uzbek language. Philol. science. doc. diss... – Tashkent.
- Usmanova Sh. (2011). A study of common household lexicon in Altai languages. Philol. science. doc. diss... – Tashkent.
- Shamsiddinova H. (1999). Functional-semantic synonyms of words in the Uzbek language. Philol. science. doc. diss... – Tashkent.
- [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtaga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

### III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi.

Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

**Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

#### VII.2. Kitoblar uchun

**Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

### **Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

## **VII.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi

“O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

## **GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS**

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any

opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### **1. General**

#### **- Submission Guideline**

1) Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

### **2. Manuscript format**

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

## 1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

## 2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

## 4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

## 5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## 6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

## BOOK

### Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

**In Text Cite:**

[Pollan 2006, 99–100]

### Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

**In Text Cite:**

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

### Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

**In Text Cite:**

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

### Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

**In Text Cite:**

[Cicero 1986, 35]

## BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

### Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

**In Text Cite:**

[Austen 2007, 101]

### Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*.

Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

**JOURNAL ARTICLE**  
**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

**Article in a newspaper or popular magazine**

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

## WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

### **Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

### **In text cite:**

[Google 2009]

### **Reference List (hanging indent):**

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

### **In text cite:**

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.linguistics.tsuul.uz](http://www.linguistics.tsuul.uz)  
E-mail: [linguistics@navoiy-uni.uz](mailto:linguistics@navoiy-uni.uz)  
[linguistics1navoiy@gmail.ru](mailto:linguistics1navoiy@gmail.ru)

Bosishga 15.03.2024-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.  
Nashr b.t. 10,875.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №54  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.